



Nur-Qashqadaryo quyosh fotoelektrik stansiyasi va energiyani saqlash akkumulyator tizimi (EEST)

Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB):

VI jild –Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi



Konsalting firmasi:

Juru

"Juru Energy Ltd"

Suite 1, One Jorj Yard, London,
Buyuk Britaniya, EC3V 9DF
www.juruenergy.com

Mijoz:

MASDAR 

"Masdar Clean Energy"

Xalifa Siti A,
Abu-Dabi, BAA, 54115-sonli pochta qutisi
www.masdar.com

Hujjat haqida ma'lumot

Loyiha nomi	"Nur-Qashqadaryo quyosh FE stansiyasi" loyihasi
Hujjat nomi	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB): VI-jild – Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejası
"Juru"ning loyiha havolasi	UZB-MAS-Guzar PV&BESS ESIA
Mijoz	"Masdar Clean Energy "
"Juru"ning loyiha menejeri	Nikola Devis
"Juru"ning loyiha direktori	Jushqinbek Ismailov

Hujjatni nazorat qilish

Versiyasi	Sanasi	Tavsifi	Tayyorladi	Tekshirdi	Tasdiqladi
00	2023 yil 16 oktyabr	EITB bosqichi uchun loyiha	Asadbek Nabiev	Marienn Lapton	Nikola Devis
1.0	2024 yil mart	Maydon chegarasidagi o'zgarishlarni kiritish uchun yangilangan	Asadbek Nabiev	Marienn Lapton	Nikola Devis
2.0	2024 yil 26 avgust	EITBni yakunlash uchun yangilangan	Zarina Gafurova	Marienn Lapton	Nikola Devis
3.0	2024 yil 18 oktyabr	Oshkor qilish uchun yakuniy loyiha (kreditorning izohlarini hisobga olish uchun yangilangan)	Zarina Gafurova	Marienn Lapton	Nikola Devis
3.1	2024 yil dekabr	2-round izohlarini inobatga olgan holda yangilangan	Zarina Gafurova	Marienn Lapton	Nikola Devis
3.2	Mart 2025	3-bosqich izohlarini inobatga olgan holda	Zarina	Marienn Lapton	Nikola Devis

		yangilangan	Gafurova		
3.3	25 Mart 2025	Jinsga asoslangan zo'ravonlik va tazyiq (JAZT) holatlari bo'yicha jabrlanuvchilar yo'naltirilgandan keyin Kompaniyaning ishtiroki bilan bog'liq harakatlarni aniqlashtirish maqsadida yangilandi.	Zarina Gafurova	Marienn Lapton	Nikola Devis
3.4	23 Aprel 2025	Oshkor qilish uchun yakuniy loyiha	Zarina Gafurova	Marienn Lapton	Nikola Devis

Voz kechish

Ekologik va ijtimoiy baholash hisoboti: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasи ("MTHR") "Juru" kompaniyasi tomonidan tayyorlandi. Hisobotda mavjud bo'lgan ma'lumotlar hozirgi holatini aks ettirsa-da, "Juru" ushbu hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'rilingiga hech qanday aniq yoki nazarda tutilgan bayonot yoki kafolat bermaydi va undagi har qanday ma'lumot, noto'g'ri bayonot yoki ko'rsatilmagan ma'lumotlar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu MTHR faqat "Masdar" uchun tayyorlangan. "Masdar" ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'rilingiga yoki to'liqligiga hech qanday aniq yoki nazarda tutilgan bayonot yoki kafolat bermaydi. "Masdar" ushbu MTHRda mavjud bo'lgan hech qanday ma'lumotni mustaqil ravishda tasdiqlamagan va undagi har qanday ma'lumot, noto'g'ri bayonot yoki ko'rsatilmagan ma'lumotlar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu MTHR "Masdar" mulki bo'lib qoladi.

Mundarija

Qisqartmalar	8
Atamalar lug'ati.....	9
1 Kirish so'zi va Loyiha haqida qisqacha ma'lumot	10
1.1 Loyiha haqida ma'lumot	10
1.2 Loyiha joylashuvi.....	11
1.3 Loyihaning tarkibiy qismlari	15
1.4 Loyiha tadbirlari	16
1.5 Yerga bo'lgan talablar.....	17
1.6 Infratuzilmadagi o'zgarishlar.....	18
1.7 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasining maqsadlari.....	19
2 Yakunlangan Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jarayoni	20
2.1 Qisqacha ma'lumot.....	20
2.2 Ijtimoiy-iqtisodiy tekshiruv jarayonida hamkorlik	20
2.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik ko'lamini aniqlash.....	20
2.4 EITB bosqichida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar.....	21
2.5 Jamoatchilik eshituvlari	24
2.6 Loyihaning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi	29
3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga qo'yiladigan talablar.....	29
3.1 Qisqacha ma'lumot.....	29
3.2 Milliy talablar	29
3.3 Kreditorlarning talablari.....	30
3.3.1 Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK).....	30
3.3.2 Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	31
3.3.3 Osiyo taraqqiyot banki	32
3.3.4 Ekvator Printsiplari IV	33
4 Manfaatdor tomonlar va muloqot qilish usullarini aniqlash.....	35
4.1 Qisqacha ma'lumot.....	35
4.2 Manfaatdor tomonlarni aniqlash	35
4.3 Ijtimoiy-iqtisodiy sharh	51
4.3.1 JAZT	52
4.3.2 Afzal ko'rilgan muloqot qilish usullari.....	53

4.4	Maslahatlashuvlar.....	55
4.5	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tamoyillari	56
4.6	Ayollarning ishtirokini rag'batlantirish.....	57
4.7	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand muhtoj guruhlarning ishtirokini rag'batlantirish	57
5	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishning rejalashtirilgan jarayoni	58
5.1	Qisqacha ma'lumot.....	58
5.2	Hujjalarni oshkor qilish.....	58
5.3	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishni rejalashtirish.....	59
6	Vazifalar va amalga oshirish	70
6.1	Qisqacha ma'lumot.....	70
6.2	Asosiy javobgar tomonlar	70
6.2.1	“Juru Ltd.”	70
6.2.2	“Masdar”	71
6.2.3	MXQ pudratchisi.....	72
6.2.4	Loyiha kreditorlari	72
7	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi	72
7.1	Qisqacha ma'lumot.....	72
7.2	Shikoyatlarni topshirish va hal qilish.....	73
7.3	Aloqa ma'lumotlari	74
7.4	Shikoyatlar bo'yicha vazifalar ²	75
7.4.1	“Juru”	75
7.4.2	Loyiha kompaniyasi.....	75
MXQ Pudratchisi.....	76	
7.4.3	Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi (JAZTdan tashqari)	76
7.4.4	O'qitish	77
7.5	Maxfiylik va anonimlik.....	77
7.6	Shikoyatlarni ko'rib chiqish variantlari va ularga javob berish	78
7.7	Shikoyatlarni ro'yxatga olish	78
7.8	JAZT shikoyatlari.....	79
7.9	Shu kungacha kelib tushgan shikoyatlar	85
8	Hisobot berish	86
8.1	Qisqacha ma'lumot.....	86

8.2 MTHR haqida hisobot berish.....	87
8.3 Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis hisoboti	87
8.4 Shikoyatlar bo'yicha hisobot	87
8.5 Yillik hisobot	89
8.6 Ko'rsatkichlar / ASK.....	89
8.7 Ma'lumotlarni boshqarish	91
A-ilovasi: Loyihaning Ish hajmini baholash va EITB bosqichi broshurasi.....	92
B-ilovasi: ShKM shakli	96
C-ilovasi: Loyihaning shikoyatlar jurnali (2024 yil oktyabrdagi yangilangan).....	100
D-ilovasi: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jurnali (2024 yil oktyabrdagi yangilangan)	102
E-ilovasi: Hamkorlik qilish jarayonining fotosuratlari (Ish hajmini aniqlash bosqichi)	123
F-ilovasi: Hamkorlik fotosuratlari (TTTR bosqichidagi inventarizatsiya jarayoni).....	127
G-ilovasi: Maslahatlashuvlar hujjatlari.....	130
H-ilovasi: Uchrashuvlar bayonnomalari	187

Jadvallar ro'yxati

1-jadval: Loyihaning EITB bosqichlari	11
2-jadval: Jamoatchilik bilan uchrashuvlar to'g'risidagi qisqacha ma'lumot.....	24
3-jadval: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish matritsasi (oxirgi marta 2024 yil 9 oktyabrda yangilangan).....	36
4-jadval: Respondentlar afzal ko'radian ma'lumot manbalari	53
5-jadval: Manfaatdor tomonlar bilan rejalashtirilgan hamkorlik qilish tadbirlari (oxirgi yangilangan sanasi 2024 yil oktyabr)	60
6-jadval: Aloqa ma'lumotlari.....	74
7-jadval: Shikoyatni ko'rib chiqish muddatlari - aholi shikoyatlari.....	78
8-jadval: Shikoyatni ko'rib chiqish muddatlari - JAZT shikoyatlari	85
9-jadval: ASK va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish faoliyati uchun maqsadli ko'rsatkichlar	89

Rasmlar ro'yxati

1-rasm: EITB jarayoni – bosqichlar ketma-ketligi (manba: "Juru")	11
2-rasm: Loyihaning O'zbekistondagi joylashuvi	13
3-rasm: Retseptorlar xaritasi (Loyiha maydoni va bevosita ta'sir hududi)	14
4-rasm: FE jarayonining umumiy ko'rinishi (HMK materiallaridan tayyorlandi, 2015 y.).....	15
5-rasm: FE panellari.....	16
6-rasm: FE kuzatuv tizimi va invertorlar (Bir o'qli trekerlar quyoshti sharqdan g'arbga bir nuqtada kuzatib boradi)	16
7-rasm: Batareya konteyneri (ichki)	16
8-rasm: Namunaviy EEST konteyneri (tashqi)	16
9-rasm: THdagi mahallalar joylashuvi.....	54
10-rasm: Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi.....	86

Qisqartmalar

Qisqartma	Ta'rifi
TUX	Ta'sirga uchragan uy xo'jaligi
TH	Ta'sir hududi
OTB	Osiyo Taraqqiyot banki
EEST	Elektr energiyani saqlash tizimi
JABM	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis
RAD	Rivojlanayotgan a'zo davlatlar
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
ETB	Ekologik ta'sirni baholash
MXQ	Muhandislik, xaridlar va qurilish
ETMI	Ekvator tamoyillari moliya institutlari
AIBR	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash
AIBR	Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasি
EIS	Ekologik va ijtimoiy siyosat
MU	Maqsadli uchrashuvlar
JAZT	Jinsga asoslangan zo'ravonlik va tazyiq
ShKM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
ShKQ	Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi
XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi
Juru	"Juru Ltd."
AMS	Asosiy ma'lumot beruvchilar bilan suhbatlar
YelSh	Yerni ijaraga berish shartnomasi
MCHJ	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
O'zREAMIO'V	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
O'MET	O'zbekiston milliy elektr tarmoqlar'i
NNT	Nodavlat notijorat tashkilot
NTH	Notexnik hisobot
HEUL	Havo elektr uzatish liniyasi
FTX	Foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish
LTX	Loyiha ta'siriga uchragan uy xo'jaliklari
LTA	Loyiha ta'siri ostidagi aholi
XK	Xususiy korxona
PPA	Elektr energiyasini sotib olish shartnomasi
IT	Ishlash talablari
IS	Ishlash standartlari
FE	Fotoelektrik
ST	Servitut
ITH	Ijtimoiy tekshiruv hisoboti
JEZ	Jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlik
JZ	Jinsiy zo'ravonlik
MTHR	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasি
HSB	Himoya Siyosati Bayonoti
IJSRDQ	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish davlat qo'mitasi

Atamalar lug'ati

Atama	Tavsifi
Hokimiyat	Davlat nomidan viloyat/tuman/shaharni ijro etish va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan ma'muriy organ.
Mahalla	O'zbekistonda va boshqa ko'plab mamlakatlarda o'zini-o'zi boshqaradigan ma'muriy-hududiy birlik.

1 Kirish so'zi va Loyiha haqida qisqacha ma'lumot

1.1 Loyiha haqida ma'lumot

O'zbekiston Hukumati va Energetika vazirligi 300 MVt (o'zgaruvchan tok) quvvatga ega Nur-Qashqadaryo quyosh fotoelektrik stansiyasi va 75 MVt quvvatga ega energiyani saqlash akkumulyator tizimini loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish, ishga tushirish va foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va topshirish ("Loyiha") bo'yicha loyihani "Abu-Dabi Future Energy Company" DAK ("Masdar") kompaniyasiga topshirdi. Loyiha milliy qoidalar va xalqaro standartlarga javob beradigan tarzda loyihalashtiriladi. Loyiha "O'zbekiston Milliy elektr tarmogi" AJ ("O'MET") bilan uzoq muddatli, ya'ni 25 yillik elektr energiyasini sotib olish shartnomasi ("PPA") orqali amalga oshiriladi.

Loyiha O'zbekistonga:


- uglerod asosidagi yoqilg'ilarga energiya qaramligini kamaytirish;
- qayta tiklanadigan energiya sohasidagi maqsadlariga erishish;
- issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga qaratilgan harakatlarida ko'maklashadi.

"Masdar" "Juru Ltd." kompaniyasini ("Juru" yoki "EITB maslahatchisi") Loyiha uchun Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholashni (EITB) amalga oshirish uchun tayinladi. EITB Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) 2019-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosati (EIS 2019), Ishlash Talablari (IT), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) Ishlash Standartlari (IS), Osiyo taraqqiyot bankining (OTB) Himoya Siyosati Bayonoti (HSB) va Ekvator IV tamoyillari talablariga muvofiq loyihalashtiriladi.

Loyiha I-toifadagi loyiha hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasining "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 541-son qarori (2020-yil) bilan tasdiqlangan "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, milliy Ekologik ta'sirni baholash (ETB) tadqiqotining Hisoboti va jamoatchilik eshitivi natijalari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga taqdim etilishi kerak. 2024-yil 30-avgust kuni Milliy ETBning I va II Bosqichlari bo'yicha ijobiy xulosa olindi. Ijobiy xulosa EITB to'plamining bir qismi sifatida III-jild: Texnik ilovada keltirilgan. ETB va EITB tadqiqotining bosqichlari ketma-ketligi 1-rasmida keltirilgan.

Ushbu hujjat manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasи (MTHR) bo'lib, u Masdar nomidan Loyihaning butun foydalanish muddati davomida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni olib borish va yo'naltirish uchun tayyorlangan. Ushbu MTHR EITBni tayyorlash, qurilish va foydalanish bosqichlari uchun amal qiladi. Hujjatning ushbu versiyasida Loyihaning ish hajmini aniqlash va EITB bosqichlari uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish faoliyati natijalari taqdim etilgan. MTHR yangilanib turiladigan hujjat bo'lib, unga qurilish va foydalanish bosqichlarida yangi ma'lumotlar qo'shiladi.

1-rasm: EITB jarayoni – bosqichlar ketma-ketligi (manba: "Juru")



EITB va Loyihaning muhim bosqichlari ko'rsatilgan.

1-Jadvalda EITB va Loyihaning muhim bosqichlari ko'rsatilgan.

1-jadval: Loyihaning EITB bosqichlari

	Sana
Ish hajmini aniqlash	2023 yil
Milliy ETB bo'yicha maslahatlashuvlar	2023 yil oktyabr – 2024 yil iyul
Milliy ETBni taqdim etish	2024 yil avgust oxiri
ETB loyihasini taqdim etish	2024 yil avgust oxiri
ETBni yakunlash	2025 yil mart
Yer ajratish va yer ijerasi shartnomalarini / kompensatsiya bo'yicha huquqiy tartib-qoidalarni yakunlash	2025 yil may
Dastlabki ishlarni boshlash to'g'risida bildirishnomalar	2025 yil iyun
Moliyaviy yopilish	2025 yil iyul
Ishlarni boshlash to'g'risida bildirishnomalar	2025 yil avgust
Tijoriy foydalanishning boshlanish sanasi	2026 yil dekabr
Kutilayotgan foydalanish muddati	25 yil - quyosh FE stansiyasi uchun; 10 yil - EEST ushun


1.2 Loyiha joylashuvi

Loyiha maydoni O'zbekistonning G'uzor va Qamashi tumanlaridagi (Qashqadaryo viloyati Shahrисabz shahridan 55 km janubi-g'arbda va G'uzor shahridan 12 km shimoli-sharqda) 220kV/500kV G'uzor podstansiyasiga bevosita tutashgan 733 ga maydondir. Maydonning shimoliy chegarasiga to'g'ridan-to'g'ri parallel ravishda Shahrисabz va G'uzor o'rtaidan o'tuvchi M39 viloyat yo'li joylashgan. G'arbda 220kV/500kV G'uzor podstansiyasi


joylashgan. Qashqadaryo “O’zsvarta’mnot” korxonasi tomonidan foydalaniladigan suv quvuri (“Yakkabog’-G’uzor”) M39 ga parallel ravishda o’tadi va kirish yo’lini qurish jarayonida kesib o’tadi. Maydonning g’arbiy chegarasi bo’ylab gaz quvuri o’tkazilgan. Ushbu quvur kirish yo’li va tarmoqqa ulanishining HEUL qismini kesib o’tishi kerak bo’ladi. Bu “O’ztransgaz” tomonidan taqdim etilgan III-jildda keltirilgan quyidagi texnik shartlar asosida amalga oshiriladi: Texnik ilova. Loyihaga eng yaqin joylashgan mahallalardan G’uzor tumanidagi Yangiobod, Xalqobod va Batosh, va Qamashi tumanidagi Oynako’l mahallalaridir. Loyiha maydonidan shimoli-sharqda, maydondan taxminan 1,3 km uzoqlikda, bir-biridan uzoqda joylashgan bir nechta uylar mavjud.

2-rasmda Loyiha joylashuvi ko’rsatilgan, 3-rasmda esa Loyiha hududidagi va unga yaqin joylashgan retseptorlar ko’rsatilgan.

2-rasm: Loyihaning O'zbekistonidagi joylashuvi




3-rasm: Retseptorlar xaritasi (Loyiha maydoni va bevosita ta'sir hududi)



1.3 Loyihanining tarkibiy qismlari

Fotovoltaik (PV) quvvat quyosh nurini doimiy tok (DC) elektr energiyasiga aylantirish uchun quyosh panellari yordamida elektr energiyasini ishlab chiqaradi. FE invertorlari kuchlanishni past kuchlanishdan (PK) o'rta kuchlanishga (O'K) ko'tarish uchun transformatorlar orqali o'zgaruvchan tokga aylantiriladigan doimiy tokni aylantiradi. So'ng, ishlab chiqarilgan energiya 35 kV lik yer osti o'rta kuchlanishli (O'K) tarmog'i orqali 35/220 kV podstansiyaga o'tkaziladi. Jarayonning umumiyo ko'rinishi quyidagi 4-rasmda ko'rsatilgan.

4-rasm: FE jarayonining umumiyo ko'rinishi (HMK materiallaridan tayyorlandi, 2015 y.)



Loyihanining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 578 088 FE modullari (yarim kesilgan monokristalli kremniy texnologiyasi);
- Bir o'qli treker, invertorlar va transformatorlar;
- 27 ta konteynerdan iborat lityum-ion fosfatli (LFP) energiyani saqlash akkumulyator tizimi (BESS);
- Mayjud "G'uzor 500kV podstansiyasi"ga maydonning garbiy qismidan podstansianing shimoli-g'arbiy tomoniga aralash havo elektr uzatish liniyasi (HEUL) va yer osti kabeli orqali ularish (jami uzunligi 1578 m: HEUL uchun 658 metr va yer osti kabeli uchun 915 metr)
- Yangi 35/220 kV podstansiya;
- Maydonda joylashgan binolar, jumladan, operatsion boshqaruv markazi, ofis, ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari, qo'riqchilar uyi, omborxonalar va do'konlar;

- M39 magistralidan yangi kirish yo'li;
- Yangi ichki kirish yo'llari
- Maydondagi oqava tizimi.

Loyihaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi rasmida tasvirlangan

5-rasm: FE panellari



6-rasm: FE kuzatuv tizimi va invertorlar (Bir o'qli trekerlar quyoshni sharqdan g'arbga bir nuqtada kuzatib boradi)



7-rasm: Batareya konteyneri (ichki)



8-rasm: Namunaviy EEST konteyneri (tashqi)¹



1.4 Loyiha tadbirlari

Loyihani rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Mobilizatsiya
- Umumiylar qurilish ishlari (asosiy maydon, yer osti kabel yo'lagi, kirish yo'li (asosiy kirish va ichki yo'llar)
- Uskunalarni xarid qilish va tashish
- Uskunalarni o'rnatish (asosiy maydon, elektr iste'molchilarni ulash ishlari)
- Hosil bo'lgan chiqindilarni utilizatsiya qilish
- Ishga tushirish
- Foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish (O&M)
- Foydalanishdan chiqarish

¹<https://energycentral.com/c/cp/large-battery-energy-storage-systems>

Loyihaning qurilish ishlari faqat Loyiha maydoni, kirish yo'li uchun, HEUL va yer osti kabel xandaqi uchun servitut (ST) bilan chegaralanadi. Qurilish ishlari taxminan 12 oydan 16 oygacha davom etadi. Qurilishning asosiy faoliyati - maydonni tozalash (toshlar, kommunal xizmatlar, o'simliklar), transport vositalariga kirishni tashkil etish (shu jumladan, gaz quvurlari o'tish joylari), umumiylar qurilish ishlari (yer osti kabeli, podstansiya va asosiy maydon), jihozlar, FE panellari, yordamchi infratuzilma va EESTni yetkazib berish, o'rnatish, va ishga tushirish. Maydonni tashkil etish va umumiylar qurilish ishlari uch oy, so'ngra o'rnatish ishlari to'qqiz oy va ishga tushirish ishlari yana ikki oy davom etishi kutilmoqda. Maydonning chegarasida materiallarni saqlash joyi tashkil etiladi (shu jumladan, potentsial bojxona maydoni) va beton tayyorlash qurilmasi o'rnatiladi. Qurilish jarayoni uchun suv maydonga avtosisternalarda keltirilishi kutilmoqda.

Loyiha Kompaniyasi xodimlari, pudratchilar va subpudratchilar Mehnat va mehnat shartlari bo'yicha boshqaruv rejasida bayon qilinadigan tanlash tartibiga muvofiqliq, "Ishchilar uchun turar joylar jarayonlari va standartlari" (XMK/YeTTB yo'riqnomasiga) talablariga javob bergen holda va ushbu EITBda ko'zda tutilgan boshqaruv va choratadbirlarga rioya qilgan holda, obyektdan tashqarida turar joylarni ijaraga olishga ruxsat beriladi. Pudratchilar vaqtinchalik maxsus qurilgan turar joyni loyiha hududida qurishlari mumkin, ammo bu hozircha rejalashtirilmagan, garchi u EITBda ko'rib chiqilgan bo'lsa-da. Mahalliy qishloqlardan tashqaridagi turar joylar afzal sanaladi, biroq mahalliy qishloqlardagi turar joylardan foydalanish taqiqlanmagan, agar u XMK/YeTTBning turar joy standartlari bo'yicha yo'riqnomasi talablariga javob bersa va oldindan G'uzor va Qamashi tuman hokimliklarining ijtimoiy bo'limgan hamda jamoa yetakchilari bilan kelishilgan holda amalga oshirilsa.

FE infratuzilmasining kutilayotgan foydalanish muddati 25 yil (kamida) va BESSniki esa - o'n yil. Foydalanish muddati tugaganidan so'ng, maydonning barcha infratuzilmani almashtirish, ta'mirlash yoki olib tashlash variantlari ko'rib chiqiladi.

1.5 Yerga bo'lgan talablar

Umumiylar 733,113 ga bo'lgan yer uchastkasi doimiy foydalanish uchun ajratiladi, jumladan:

- Loyihaning FE maydoni uchun - 731 ga.
- Minora poydevori uchun - 0,028 ga.
- Kabel yo'lagi uchun - 0,362 ga (shu jumladan, har bir tomonidan 1 m - muhofaza zonasini uchun).
- Kirish yo'li uchun - 1,7 ga (taxminan 1700 m uzunlikdagi 10 metrlik servitut).

Ushbu yer loyiha uchun maxsus maqsadli tashkilotga (MMT) ijaraga beriladi. 220 kV HEUL yo'nalishini tozalash ishlari (o'tkazgichning har ikki tomonida 30 m muhofaza zonasini bilan

birga ~ 698 m) uchun vaqtinchalik foydalanish uchun yer ajratiladi. Bugungi kungacha maslahatlashuvlar o'tkazilgan potensial yer resurslaridan foydalanuvchi tomonlar quyidagilardan iborat:

- Uchta hukumat tashkiloti (IJSRQ², Qamashi tuman hokimiysi, G'uzor tumani hokimiysi)
- Ikkita yer boshqarish kompaniyasi (biri - MChJ, ikkinchisi esa-xususiy korxona (XK))
- Sakkizta oilaga tegishli to'qqizta xususiy/oilaviy fermer xo'jaligi
- To'rtta chorvachilik xo'jaligi
- 22 ishchi (fermalarda ishlaydigan mavsumiy va doimiy ishchilar)
- 22 ta chorvani ijaraga beruvchi uy xo'jaliklari (ChIUX) bilvosita ta'sirlangan deb hisoblanadi, chunki ularning chorvalarini boqayotgan cho'ponlar loyihadan ta'sirlanadi³.

Loyihadan faqat dehqonlar, ishchilar va chorvadorlar ta'sir ko'rishligini aniqlashdi. Loyiha hududida, shuningdek, cho'pon uyi, molxona joylashgan ferma va ko'chma tirkama joylashgan boshqa ferma ham joylashgan. Turmush tarziga ta'sirni baholash va turmush tarzini tiklash rejasida (TTTR) retseptorlarga ta'sir ko'rib chiqiladi va milliy qonunlar va Kreditor standartlariga (IS5, IT5 va OTB HSB2) muvofiq qurilish boshlanishidan oldin taqdim etiladigan kompensatsiyani to'lash rejasi ishlab chiqiladi.

1.6 Infratuzilmadagi o'zgarishlar

Ish hajmini aniqlash bosqichida olib borilgan o'rganishlar natijasida Loyiha sxemasiga o'zgartirishlar kiritishni talab qiladigan quyidagi infratuzilma ob'ektlari aniqlandi:

- G'uzor podstansiyasiga ulanadigan mavjud HEULLari;
- Loyiha maydoni ichida va uning atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar (xususan, maydonning shimoli-g'arbida joylashgan L shaklidagi ko'pburchak) davomida Loyiha hududining shimolida potentsial ahamiyatga ega bo'lgan yer ustidagi kulolchilik parchalari va arxeologik topilmalar topildi, shuning uchun ehtiyyotkor yondashuv sifatida⁴ bu hududda ishlarni boshlamaslikka qaror qilindi;

² Eslatib o'tamizki, IJSRQ vakolatlari Veterinariya va Chorvachilikni Rivojlantirish Qo'mitasiga o'tkaziladi. Bu hali amalga oshirilmagan, biroq bu holat Loyihaga ta'sir ko'rsatishi kutilmayapti, chunki 2024-yil dekabr oyida Loyiha uchun ajratilgan yerlarning mulk huquqi IJSRQdan milliy yer zaxiralariiga o'tkazilgan.

³ Bir guruh LTOSh mavjud bo'lib, ular chorva egasi nomidan hayvonlarni boqadilar. ChIUX esa chorva hayvonlarini LTOUXga (mol-mulk yoki xizmatlar ko'rinishida to'lov evaziga) ijaraga beradi. ChIUX hayvonlarni LTOUXga ijaraga bergani sababli, va LTOUXlar uchun muqobil yer ajratilganligi sababli ular boqayotgan hayvonlar sonini kamaytirishga hojat yo'q. Shu sababli, ChIUXlar bilvosita ta'sirga uchragan deb hisoblanadi.

⁴ Ushbu topilmalar tarixiy madaniy qatlamga dalolat bo'lmasligi tasdiqlandi va mas'ul mahalliy hokimiyat tomonidan arxeologik nazorat ostida va tasodifiy topilmalar tartibiga muvofiq ishlashga ruxsat berildi.

- Mavjud suv quvuri – uni faqat yangi kirish yo'li kesib o'tishi kerak bo'ladi;
- Mavjud gaz quvuri - (FE maydoni chegarasi gaz quvurini umuman kesib o'tmasligi uchun o'zgartirilgan, biroq bunga qaramasdan qurilish vaqtida HEUL va kirish yo'li quvurni kesib o'tishiga to'g'ri keladi); va
- Loyihaning dastlabki joyini kesib o'tgan HEUL.

Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda Loyiha maydoni optimallashtirildi va Loyiha maydonining joylashuvi va shakli o'zgarishini oshkor qilish uchun manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi.

1.7 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasining maqsadlari

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik Loyiha faoliyati tufayli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yoki ma'lum qiziqish yoki qaror qabul qilish maqomiga ega bo'lgan manfaatdor tomonlarni aniqlash, xaritalash va ustuvorliklarni belgilash jarayonini o'z ichiga oladi.

Joriy manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasining (MTHR) asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Loyihaning potentsial manfaatdor tomonlarini aniqlash va xaritalash;
- Barcha ta'sirga uchragan va manfaatdor tomonlarni hamda Loyiha bo'yicha qarorlar qabul qilish majburiyatiga ega bo'lgan asosiy tashkilotlarni (masalan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi) o'z ichiga olgan manfaatdor tomonlar matritsasini tayyorlash;
- Loyiha ma'lumotlarini yetkazib berish va maslahatlashuvlarni o'tkazish uchun har bir manfaatdor tomonlar guruhi uchun tegishli aloqa yondashuvlarini yaratish;
- Loyiha bo'yicha manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari, tashvishlari va fikrlarini yozib olish;
- Barcha manfaatdor tomonlarni qamrab olish uchun tegishli shikoyatlar ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) ishlab chiqish va yuritish; va
- Aholining ijtimoiy ehtiyojmand guruhlari va ayollar bilan Loyiha bo'yicha yetaricha ma'lumot olishlarini ta'minlash va Genderga asoslangan zo'ravonlik va ta'qib (JAZT) (jumladan, jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlik (JEZ) va jinsiy zo'ravonlik (JZ)) bilan bog'liq har qanday xavflarni aniqlash uchun ular bilan to'g'ri/qlay aloqa vositalarini yaratish; va
- Jamoat va JAZT shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun ShKM platformasini yaratish, jamoat shikoyatlari va JAZT shikoyatlari bo'yicha hisobot berish maqsadida.

2 Yakunlangan Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jarayoni

2.1 Qisqacha ma'lumot

Ushbu bo'limda mazkur MTHRni yozish sanasigacha amalga oshirilgan barcha manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikning qisqacha mazmuni ochib berilgan. Ushbu bo'lim doimiy ravishda Loyihaning butun faoliyati davomida yangilanadi.

2.2 Ijtimoiy-iqtisodiy tekshiruv jarayonida hamkorlik

"Dornier Suntrace GmbH" konsalting kompaniyasi tomonidan OTBga taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan O'MET bilan hamkorlikda Loyiha uchun Ijtimoiy-iqtisodiy tekshiruv hisoboti (ITH) tayyorlashda manfaatdor tomonlarning dastlabki hamkorlik jarayoni yakunlandi. ITHning maqsadi Loyihaning YOK (Yer olish va ko'chirish) potentsial ta'siri va xavflarini baholash, barcha asosiy manfaatdor tomonlarni aniqlash va ular bilan hamkorlik qilish, yer olish va ko'chirish bilan bog'liq mayjud hukumat siyosati va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ko'rib chiqish va tegishli shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini yaratish jarayonini ta'riflashdan iborat edi.

2021 yil dekabr oyida ITHni tayyorlash jarayonida mahalliy kadastr idoralari mutaxassislari hamda G'uzor va Qamashi tumanlari hokimliklarining vakillari (Hokimning kapital qurilish bo'yicha 1-o'rinnbosari), NNT (Xotin-qizlar qo'mitasi), mahalla raislari, tadbirkorlik sub'ektlarining vakillari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, jumladan, Loyiha hududida yashovchi oqsoqollar va ijtimoiy ehtiyojmand guruuhlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi, ular: (i) ayollar tomonidan boshqariladigan ta'siriga uchragan uy xo'jaliklari (TUX); (ii) kam daromadli TUXlar; (iii) qo'llab-quvvatlanmaydigan qariyalar tomonidan boshqariladigan TUXlar, (iv) oilada nogiron a'zosi bo'lgan TUXlar va (v) yersiz TUXlar. G'uzor va Qamashi tumanlaridan jami 37 nafar fuqaro bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi. ITHda yer olish ta'sirlarining oldini olish mumkin emasligi va tegishli rejani tayyorlash kerakligi aniqlandi. Unda yer ajratish xarajatlarining ba'zi hisob-kitoblari taqdim etilib, ba'zi huquqlar taklif qilindi.

Bundan tashqari, 2021 yil dekabr oyida ITHni tayyorlash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni olish uchun Loyiha ta'siriga uchragan oltita uy xo'jaligi (LTUX) bilan ijtimoiy-iqtisodiy so'rovlar o'tkazildi.

2.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik ko'lamini aniqlash

2023 yil 11-12-sentyabr kunlari Ish hajmini aniqlash hisobotini tayyorlash haqida xabardor qilish uchun amalga oshirilgan maydonga tashrif davomida "Juru"ning ijtimoiy guruhi tomonidan quyidagi manfaatdor tomonlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi:

- G'uzor tumani hokimligi;

- Qamashi tumani hokimligi;
- "G'uzor" 500 podstansiyasi;
- Eng yaqin joylashgan mahallalar raislari: Oynako'l, Batosh, Xalqobod, Yangiobod;
- G'uzor tumani elektr tarmoqlari boshqarmasi;
- Kadastr agentligining G'uzor tumani bo'limi;
- G'uzor tumani qurilish bo'limi;
- Kadastr agentligining Qamashi tumani bo'limi; va
- Qamashi tumani qishloq xo'jaligi bo'limi.

Uchrashuvlar davomida barcha ishtirokchilarga (taxminan 16 kishi) rejalashtirilgan Loyiha haqida asosiy ma'lumotlar hamda EITB bo'yicha maslahatchining aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan broshuralar taqdim etildi. Broshuraning namunasi A-ilovasida keltirilgan.

Bundan tashqari, loyihaning manfaatdor tomonlari sifatida aniqlangan tegishli davlat organlariga ularni Loyiha haqida xabardor qilish maqsadida xatlar va zarur bo'lgan tegishli ma'lumot so'rovleri (masalan, Loyiha maydonida ularning har qanday uskunasining mavjudligi va har qanday aniqlangan infratuzilma uchun sanitariya-muhofaza zonasi talablari) yuborildi. Ushbu ma'lumotlar D ilovasida keltirilgan - Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jurnali (shu jumladan TTTR bo'yicha hamkorlik).

Tasdiqlovchi ma'lumotlar ham quyidagicha taqdim etiladi:

- E-ilovasi – Hamkorlik doirasida o'tkazilgan tadbirlarning fotosuratları (Ish hajmini aniqlash bosqichi)
- F-ilovasi – Hamkorlik doirasida o'tkazilgan tadbirlarning fotosuratları (EITB bosqichi)
- G-ilovasi – Maslahatlashuvlar hisobotlari
- H-ilovasi – Uchrashuvlar bayonnomalari

2.4 EITB bosqichida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar

2023-yil oktyabr va 2024-yil iyul oylarida EITB va Turmush tarzini tiklash rejası (TTTR) haqida ma'lumot berish uchun "Juru"ning loyiha maydoniga ikki marta tashrifi tashkil etildi.

- Asosiy manfaatdor tomonlarga bildirishnomalar (javob talab qilinmaydi);
- Biznes yozishmalar;
- Maqsadli uchrashuvlar (MU) (EITB va TTTR);
- Asosiy ma'lumot beruvchilar bilan suhbatlar (AMS);
- Milliy ETB va EITB uchun jamoatchilik eshituvlari;
- Loyiha tumanlarida NTHning oshkor etilishi (THda joylashgan to'rtta mahallaning har bir mahalliy hokimiyat idorasiga va ikkita shahar hokimligiga NTHning o'zbek tilidagi sakkizta qog'oz nusxasi taqdim etildi);

- Ma'lumotlarni Kreditorlarga oshkor qilish (davom etyapti)

Ish hajmini aniqlash bosqichida bo'lgani kabi, uchrashuvlar davomida ishtirokchilarga EITB broshurasi (Illova A) shaklida rejalashtirilgan Loyiha haqida Loyiha ma'lumotlari hamda EITB bo'yicha maslahatchining aloqa ma'lumotlari taqdim etildi.

Maqsadli uchrashuvlarda ishtirok etganlarning taxminiy soni 31 kishini tashkil etdi. Ularning barchasi loyiha haqida broshura oldilar. Barchasiga loyiha broshyurasi tarqatildi, unda shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi uchun kontakt ma'lumotlari va no-texnik tadqiqotning nusxalarini qayerdan topish mumkinligi ko'rsatilgan.

EITB bosqichidagi maslahatlashuvlarning uchinchi raundida 2024 yil iyul oyida TTTR bo'yicha hamkorlik o'tkazildi. Ta'sirga uchragan shaxslar bilan yuzma-yuz maslahatlashuvlar va TTTR doirasida ijtimoiy-iqtisodiy so'rovidan va aholini ro'yxatga olish⁵ kabi hamkorlik qilish tadbirlari o'tkazildi. TTTR doirasida tirikchilik manbalarini tiklash uchun ma'lumotlarni to'plashning oxirgi sanasida (Oxirgi sana) 2024 yil 11 iyulda mahalliy aholiga xat orqali oshkor qilingan. Oxirgi sana 2024 yil 26 iyul deb belgilangandi. Shu vaqtida 27 ta'sir ostidagi uy xo'jaliklariga tashrif buyurildi va barchasiga Loyiha broshurasi berildi, unda shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi uchun kontakt ma'lumotlari va no-texnik tadqiqotning nusxalarini qayerdan topish mumkinligi ko'rsatilgan.

Maydonga tashrif buyurishdan tashqari, davlat organlari bilan biznes yozishmalar, rasmiy xatlar va telefon orqali maslahatlashuvlar orqali doimiy ravishda muloqot olib borildi.

Maslahatlashuv tadbirlari davomida manfaatdor tomonlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va ularning tashvishlari qayd etildi va ularga javob qaytarildi. Qabul qilingan sharhlar quyidagilardan iborat edi:

- Maydonda yoki uning yaqinida turmush tarzini davom ettirish istagi – ularga maydon aynan qayerda joylashgani va Loyiha bilan bog'liq holda o'zlarining odatiy faoliyatlarini davom ettirishlari uchun qanday imkoniyatlar bo'lishi mumkinligi tushuntirildi.
- Ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining mavjudligi – birinchi navbatda, iloji boricha mahalliy aholi a'zolari ishga joylashtirilishi tushuntirildi.
- Qurilish jarayonida aholi bilan doimiy aloqada bo'lish istagi - Loyihaning qurilish va ekspluatatsiya jarayonida mahalliy aholi bilan aloqa qilish uchun jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisni ishga olinishi tushuntirildi.
- Suv ta'minoti va boshqa mahalliy infratuzilmani yaxshilash imkoniyatlari – “Masdar” qurilish bosqichida muhokama qilinadigan tavsiyalarni e'tiborga oldi.

⁵ Eslatma: hozircha hech qanday huquqlar muhokama qilinmagan, chunki ta'sirlar hali aniqlanmagan va TTTR yakunlanib oshkor qilinmagunicha muhokama qilinmaydi (2024 yil dekabrda bo'lishi kutilmoqda).

Mahalliy ijtimoiy retseptorlar bilan uchrashuvlar bo'yicha qisqacha ma'lumot D-ilovasida keltirilgan.

2.5 Jamoatchilik eshituvlari

Jamoatchilik eshituvlari milliy ETBning talabi hisoblanadi. Jamoatchilik bilan uchrashuvlar to'g'risidagi qisqacha ma'lumot 2-jadvalda keltirilgan. ETBni jamoatchilikka oshkor qilish bo'yicha yig'ilishlar yakunida THning barcha to'rtta mahallasida ayollar bilan alohida maslahatlashuvlar o'tkazildi. Jamoatchilik eshituvi ishtirokchilarining umumiyligi soni 113 kishini tashkil etadi. Ushbu uchrashuvlarning barcha ishtirokchilariga o'zbek tilida loyiha broshuralari berildi.

2-jadval: Jamoatchilik bilan uchrashuvlar to'g'risidagi qisqacha ma'lumot

Reseptor nomi	Uchrashuv sanasi va joyi	Ishtirokchilar soni va gender taqsimoti	Muhokamalar mazmuni	Bildirilgan tashvishlar	Berilgan javoblar	Muammolar EITB da qanday hal qilindi	Oshkor qilingan ma'lumotlar
G'uzor tumani hokimligi	2024 yil 30 iyul Hokimiyat binosi	16 ishtirokchi (14 erkak, 2 ayol va ulardan 3 nafari qariyalar)	"Juru" "Masdar" vakili ishtirokida ETB doirasida Loyihaning ijobjiy va salbiy ta'sirini muhokama qilish uchun asosiy tuman tashkilotlari/bo'limlari bilan uchrashuv o'tkazdi.	Hech qanday tashvish bildirilmadi	yo'q	Hech qanday tashvish bildirilmadi	Loyiha taqdimoti va Loyerha broshurasi
Qamashi tumani hokimligi	2024 yil 30 iyul Hokimiyat binosi	13 ishtirokchi (12 erkak, 1 ayol va ulardan 5 nafari qariyalar)	"Juru"ning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari ETB doirasida Loyihaning ijobjiy va salbiy ta'sirini muhokama qilish uchun asosiy tuman tashkilotlari/bo'limlari bilan uchrashuv o'tkazdilar.	Hech qanday tashvish bildirilmadi	yo'q	Hech qanday tashvish bildirilmadi	Loyiha taqdimoti va Loyerha broshurasi
Batosh mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasasi	10 ishtirokchi (6 erkak, 4 ayol va ulardan 7 nafari qariyalar)	"Juru"ning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari ETB doirasida Loyihaning ijobjiy va salbiy ta'sirini muhokama qilish	Mahalla aholisi Loyiha vakillaridan qurilish bosqichi uchun	Loyerha kompaniyasi vakillari bu iltimosni bevosita qurilish boshanishidan oldin ko'rib	EITB hisobotida mahalla aholisining	Loyiha taqdimoti va Loyerha broshurasi

Reseptor nomi	Uchrashuv sanasi va joyi	Ishtirokchilar soni va gender taqsimoti	Muhokamalar mazmuni	Bildirilgan tashvishlar	Berilgan javoblar	Muammolar EITB da qanday hal qilindi	Oshkor qilingan ma'lumotlar
		nafari qariyalar)	uchun mahalla aholisi bilan uchrashuv o'tkazdilar.	xodimlarni tanlashda mahalla aholisini inobatga olishlarini iltimos qilishdi.	chiqishlarini ma'lum qildi.	iltimoslari qayd etiladi	
Batosh mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasи	4 nafar ayol	Juruning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari mahallaing ayol a'zolari bilan jinsga asoslangan zo'ravonlik, har yili ayollarga beriladigan maxsus tibbiy ko'riklar va ETB doirasida ish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun uchrashuv o'tkazdilar.	Ish bilan ta'minlash imkoniyatlari, ayniqsa qurilish bosqichida tozalash xizmati va ovqatlanish xodimlari sifatida ishlashga ustuvorlik berish istagi bildirildi. Bundan tashqari, ishtirokchilar o'z mahallalarida bolalar uchun dam olish bog'lari va o'yin maydonchalari yo'qligini aytib o'tdilar.	Loyiha kompaniyasi vakillari ularga qurilish boshlanishi bilanoq ish bilan bog'liq imtiyozlarni ko'rib chiqishlarini ma'lum qilishdi. Dam olish bog'lari va o'yin maydonchalariga kelsak, loyiha vakillari korporativ ijtimoiy mas'uliyat faoliyatini uchun ushbu takliflarni e'tiborga olishlarini ta'kidladilar.	EITB hisobotida mahalliy aholining so'rovlar mavjud	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi

Reseptor nomi	Uchrashuv sanasi va joyi	Ishtirokchilar soni va gender taqsimoti	Muhokamalar mazmuni	Bildirilgan tashvishlar	Berilgan javoblar	Muammolar EITB da qanday hal qilindi	Oshkor qilingan ma'lumotlar
Xalqobod mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasi	14 ishtirokchi (2 erkak, 12 ayol, ulardan 6 nafari qariyalar)	"Juru"ning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari ETB doirasida loyihaning ijobiylar salbiy ta'sirini muhokama qilish uchun mahalla aholisi bilan uchrashuv o'tkazdilar.	Mahalla aholisi loyihaning havo sifatiga ta'siri yuzasidan tashvishlarini bildirdi, chunki loyiha ishlari katta miqdordagi changga olib kelishi mumkin.	Loyiha kompaniyasi vakili ularga salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun "Juru" tomonidan havo monitoringi olib borilayotgani haqida ma'lum qildi.	ESIA hisobotida havo sifati monitoringi haqida ma'lumot beriladi	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi
Xalqobod mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasi	12 nafar ayol	Juruning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari mahallaing ayol a'zolari bilan jinsga asoslangan zo'ravonlik, har yili ayollarga beriladigan maxsus tibbiy ko'riklar va ETB doirasida ish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun uchrashuv o'tkazdilar.	Ish bilan ta'minlash imkoniyatlari borasida tashvish bildirilgan bo'lib, qurilish bosqichida tozalash xizmati va ovqatlanish xodimlari sifatida ishlashga ustuvorlik berish istagi qayd etilgan.	Loyiha kompaniyasi vakillari ularga qurilish boshlanishi bilanoq ish bilan bog'liq imtiyozlarni ko'rib chiqishlarini ma'lum qilishdi.	EITB hisobotida mahalliy aholining so'rovlarini mayjud	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi
Yangiobod mahallasi	2024 yil 31 iyul	14 ishtirokchi (2 erkak,	"Juru"ning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari	Mahalla aholisi loyiha	Loyiha kompaniyasi vakillari bu iltimosni	EITB hisobotida	Loyiha taqdimoti

Reseptor nomi	Uchrashuv sanasi va joyi	Ishtirokchilar soni va gender taqsimoti	Muhokamalar mazmuni	Bildirilgan tashvishlar	Berilgan javoblar	Muammolar EITB da qanday hal qilindi	Oshkor qilingan ma'lumotlar
	Mahalla idorası	12 ayol va ulardan 8 nafari qariyalar, 1 nafari yosh)	ETB doirasida loyihaning ijobiylar salbiy ta'sirini muhokama qilish uchun mahalla aholisi bilan uchrashuv o'tkazdilar.	vakillaridan qurilish bosqichi uchun xodimlarni tanlashda mahalla aholisini inobatga olishlarini iltimos qilishdi.	bevosita qurilish boshlanishidan oldin ko'rib chiqishlarini ma'lum qildi.	mahalla aholisining iltimoslari qayd etiladi	va Loyiha broshurasi
Yangiobod mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorası	12 nafar ayol	Juruning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari mahallaing ayol a'zolari bilan jinsga asoslangan zo'ravonlik, har yili ayollarga beriladigan maxsus tibbiy ko'riklar va ETB doirasida ish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun uchrashuv o'tkazdilar.	Ish bilan ta'minlash imkoniyatlari borasida tashvish bildirilgan bo'lib, qurilish bosqichida tozalash xizmati va ovqatlanish xodimlari sifatida ishlashga ustuvorlik berish istagi qayd etilgan.	Loyiha kompaniyasi vakillari ularga qurilish boshlanishi bilanoq ish bilan bog'liq imtiyozlarni ko'rib chiqishlarini ma'lum qilishdi. Dam olish bog'lari va o'yin maydonchalariga kelsak, loyiha vakillari korporativ ijtimoiy mas'uliyat faoliyatini uchun ushbu takliflarni e'tiborga olishlarini ta'kidladilar.	EITB hisobotida mahalliy aholining so'rovlar mavjud	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi

Reseptor nomi	Uchrashuv sanasi va joyi	Ishtirokchilar soni va gender taqsimoti	Muhokamalar mazmuni	Bildirilgan tashvishlar	Berilgan javoblar	Muammolar EITB da qanday hal qilindi	Oshkor qilingan ma'lumotlar
Oynako'l mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasi	11 ishtirokchi (4 erkak, 7 ayol, ulardan 4 nafari qariyalar va 3 nafari yoshlar)	"Juru"ning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari ETB doirasida Lloyihaning ijobiy va salbiy ta'sirini muhokama qilish uchun mahalla aholisi bilan uchrashuv o'tkazdilar.	Hech qanday tashvish bildirilmadi	yo'q	Hech qanday tashvish bildirilmadi	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi
Oynako'l mahallasi	2024 yil 31 iyul Mahalla idorasi	7 nafar ayol	Juruning ijtimoiy va atrof-muhit bo'yicha mutaxassislari mahallaing ayol a'zolari bilan jinsga asoslangan zo'ravonlik, har yili ayollarga beriladigan maxsus tibbiy ko'riklar va ETB doirasida ish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun uchrashuv o'tkazdilar.	Ish bilan ta'minlash imkoniyatlari borasida tashvish bildirilgan bo'lib, qurilish bosqichida tozalash xizmati va ovqatlanish xodimlari sifatida ishlashga ustuvorlik berish istagi qayd etilgan.	Loyiha kompaniyasi vakillari ularga qurilish boshlanishi bilanoq ish bilan bog'liq imtiyozlarni ko'rib chiqishlarini ma'lum qilishdi.	EITB hisobotida mahalliy aholining so'rovlarini mavjud	Loyiha taqdimoti va Loyiha broshurasi

ETB bo'yicha jamoatchilik eshituvlari doirasida o'tkazilgan maslahatlashuvlarda erkaklar va ayollar, shuningdek, keksalar, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar, nogironligi bo'lган shaxslar va yoshlar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama vakillari ishtirok etdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, faqat ayollar uchun maxsus maslahatlashuvlar ham o'tkazildi. Ushbu format savodsiz shaxslarning ham loyiha ta'sirini baholash natijalari haqida xabardor bo'lishini ta'minladi.

Jamoatchilik eshituvlarida ko'tarilgan asosiy muammolar quydagilar bilan bog'liq edi:

- Loyihaning havo sifatiga ta'siri – bunga javoban, ETB va EITBdan havo sifati va ta'sirlarni minimallashtirish uchun taklif qilingan ta'sirni yumshatish choralari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etildi.
- Qurilish bosqichi uchun mahalla aholisini yollash – bunga javoban, birinchi navbatda mahalla aholisi ishga olinishi tushuntirildi.

2.6 Loyihaning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi

Ommaviy axborot vositalarida Loyiha ijobiy yoritildi.

“Masdar” kompaniyasi Qashqadaryoda quyosh FE stansiyasini qurish bo'yicha tenderda g'olib chiqqani haqidagi ma'lumot 2023 yilning may oyida O'zbekiston Energetika vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan edi. Shuningdek, daryo.uz va kun.uz mahalliy OAV manbalari va “Masdar” veb-saytida (masdar.ae) ham e'lon qilingan.

“Masdar”ning veb-saytida Loyiha uchun maxsus sahifasi ham mayjud (veb-saytda “Guzar” deb ataladi): <https://masdar.ae/en/renewables/our-projects/guzar>. Ushbu sahifa Loyihaning foydalanish muddati davomida tegishli hujjatlar bilan yangilanadi (oshkor qilinadigan hujjatlar uchun **Error! Reference source not found.** bo'limga qarang).

3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga qo'yiladigan talablar

3.1 Qisqacha ma'lumot

Loyiha, shu jumladan, ushu MTHR, O'zbekistonning qonuniy talablari va tartib-qoidalariga hamda quydagi bo'limlarda jamlangan Kreditorning E-I talablariga javob beradi. Bundan tashqari, har bir manfaatdor tomon uchun eng samarali hamkorlik usullari ko'rib chiqiladi.

3.2 Milliy talablar

O'zbekiston qonunchiligiga asosan, Loyihalardan manfaatdor tomonlarni jalb qilish va muloqot jarayonini amalga oshirish talab etilmaydi. Shuningdek, Loyihani ishlab chiquvchilari Loyihaning mahalliy aholi va korxonalarga mumkin bo'lган ta'sirini

baholash uchun maslahatlashuvlar o'tkazishlari va atrof-muhitni baholash natijalarini oshkor qilishlari bo'yicha talablar nazarda tutilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 541-sonli "O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitga ta'sirini milliy baholashni o'tkazish mexanizmlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, loyihalar tegishli tashkilotlar, shuningdek, mahalliy aholi ishtirokida ularning Loyihaning amalga oshirilishi haqidagi Loyihani qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi xulosasini olish uchun jamoatchilik eshituvini o'tkazishlari shart. Jamoatchilik eshituvi yig'ilishlari qayd etilishlari va ishtirokchilar tomonidan imzolangan tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi shart. Bu talab faqat I va II toifaga mansub loyihalar uchun majburiydir.

Ushbu Loyiha I toifaga mansub va shuning uchun bu talab qo'llaniladi.

781-sonli "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risidagi" qonunga asosan, Loyiha natijasida jismoniy yoki iqtisodiy ko'chirilishi mumkin bo'lgan Loyiha ta'siri ostidagi aholi (LTA) bilan mazmunli maslahatlashuvlar o'tkazilishi talab etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 3.12.2014 yildagi 378-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni (17.08.2017 y. tahririda) jismoniy va yuridik shaxslarning davlat tashkilotlari, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari bilan o'zaro muloqot qilishlari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonunga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar o'z shikoyat va murojaatlarini istalgan shaklda (og'zaki, yozma yoki elektron shaklda) yuborishlari mumkin. Taqdim etilgan murojaatlar kelib tushgan kundan boshlab 15 kun ichida ko'rib chiqilishi kerak. Agar qo'shimcha tekshirish kerak bo'lsa, javob bir oy ichida yuborilishi kerak.

3.3 Kreditorlarning talablari

Loyiha kreditorlari o'zlarining ekologik va ijtimoiy (EI) siyosatiga ega bo'lган xalqaro moliya institutlari bo'lishi kutilmoqda. Ushbu MTHR uchun kreditorlar XMK Ishlash Standartlari (IS), Osiyo Taraqqiyot Bankining Himoya choralar sohasidagi Siyosati yuzasidan Bayonoti (HSB), shuningdek, XMK IS lari talablariga rioya qilinishini talab qiladigan Ekvator Priniplari IV (EPIV) ning tegishli talablariga rioya qiladilar deb taxmin qilingan. Ushbu to'rtta standart bilan bog'liq manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish talablari quyida muhokama qilinadi.

3.3.1 Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)

XMKning barcha ISlarida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar/ular bilan hamkorlik qilishning miqdori bo'yicha talablar bayon etilgan (EITBda yoki AIBR doirasida) va shuning uchun Loyiha hamkorlik doirasidagi tadbirlarning darajasini talab qiladi. Xususan, "Ijtimoiy va ekologik baholash va boshqarish tizimlari" bo'yicha XMK IS 1 da manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish talablari yanada chuqurroq bayon etilgan:

"Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'sirini muvaffaqiyatli boshqarish uchun muhim bo'lgan kuchli, konstruktiv va ochiq munosabatlarni o'rnatish uchun asosdir. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish doimiy jarayon bo'lib, u turli darajada quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- *Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish va rejalashtirish;*
- *Ma'lumotni oshkor qilish va tarqatish;*
- *Maslahatlashuv va ishtirok etish;*
- *Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi; va*
- *Ta'sirga uchragan aholiga doimiy ravishda hisobot berish.*

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tabiat, chastotasi va sa'y-harakatlari darajasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin va loyihaning xavflari, salbiy ta'siri va loyihaning rivojlanish bosqichiga mutanosib bo'ladi."

XMK IS lari shuni ko'rsatadiki, ta'sirga uchragan aholi loyiha aniqlangan xavf va salbiy ta'sirlarga uchragan paytda, ishlab chiquvchi/mijoz ta'sirga uchragan aholiga ular loyiha xavflari, ta'siri va yumshatish choralar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini beradigan tarzda maslahatlashuv jarayonini o'tkazadi. Mijoz esa ularni ko'rib chiqib javob berishi kerak. Samarali maslahatlashuv ikki tomonlama jarayon bo'lib, u:

- Ekologik va ijtimoiy xavf va ta'sirlarni aniqlash jarayoni boshida boshlanadi va xavf va ta'sirlar yuzaga kelganda doimiy ravishda davom etadi.
- Madaniy jihatdan mos mahalliy til(lar) va formatdagi hamda ta'sirga uchragan aholi uchun tushunarli bo'lgan tegishli, shaffof, ob'ektiv, mazmunli va oson foydalana olinadigan ma'lumotlarni oldindan oshkor qilish va tarqatishga asoslangan.
- Aynan bevosita ta'sirga uchraganlar bilan inklyuziv tarzda hamkorlik qilishga e'tibor qaratiladi.
- Tashqi manipulyatsiya, aralashuv, majburlash yoki qo'rqtishdan xoli bo'ladi.
- Zarur hollarda, mazmunli ishtirok etishni ta'minlaydi.
- Hujjatlashtiriladi.

3.3.2 Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki

YeTTBning Ishlash Talabi-10 (IT10) manfaatdor tomonlarni aniqlash va ular bilan aloqa vositalarini o'rnatishni talab qiladi. Barcha muloqotlar, shuningdek, aniqlangan manfaatdor tomonlar ommaga oshkor etilishi kerak bo'lgan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasida (MTHR) hujjatlashtirilishi kerak.

IT10 doirasida talab qilinadigan muloqot qilish miqdori loyihaning xususiyatiga, shuningdek, loyihaning potentsial xavf va ta'sirlarni aniqlash uchun boshlang'ich ma'lumotlarini olish zarurligiga bog'liq.

IT10 manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish uchun quyidagi asosiy elementlarni belgilaydi:

- manfaatdor tomonlarni aniqlash va tahlil qilish;
- manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishni rejalashtirish;
- ma'lumotni oshkor qilish;
- maslahatlashuvlar va ishtirok etish;
- shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi; va
- tegishli manfaatdor tomonlarga doimiy hisobot berish.

3.3.3 Osiyo taraqqiyot banki

OTB HSB (2009) loyihalardan mazmunli maslahatlashuv jarayonlarini o'tkazishni talab qiladi. Maslahatlashuv jarayonida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- Loyihani tayyorlash bosqichining boshida boshlanishi va loyihaning butun foydalanish davri davomida doimiy ravishda amalga oshirilishi;
- Ta'sirga uchragan aholi uchun tushunarli va qulay bo'lgan tegishli va aniq ma'lumotlarning o'z vaqtida oshkor etilishini ta'minlash;
- Qo'rqtish yoki majburlashdan xoli muhitda amalga oshirilishi;
- Gender jihatlarini hisobga olish va ularga javob berish, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj va zaif guruhlar ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi; va
- Loyihani ishlab chiqish, ta'sirni yumshatish choralar, rivojlanish foydalari va imkoniyatlarini baham ko'rish va amalga oshirish masalalari kabi qarorlar qabul qilishda ta'sirga uchragan aholi va boshqa manfaatdor tomonlarning barcha tegishli fikrlarini kiritish imkonini berish.

OTB qarz oluvchilardan/mijozlardan taklif etilayotgan loyihalarning ta'siriga uchragan jamoalar, guruhlar yoki aholi bilan hamda fuqarolik jamiyatni bilan ma'lumotni oshkor qilish, maslahatlashuvlar va ta'sirga uchragan aholiga tegadigan xavf va ta'sirlarga mos keladigan tarzda hamkorlik qilishlarini talab qiladi.

Loyihalar ta'siriga uchragan aholining loyihaning ekologik jihatlari va majburiy ko'chirish jarayoniga oid tashvishlari va shikoyatlarini qabul qilish va hal qilishda yordam berish uchun shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini yaratishi kerak. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi loyihaning xavflari va salbiy ta'sirlariga mos ravishda yaratilishi kerak. U ta'sirga uchragan aholining tashvishlari va shikoyatlarini zudlik bilan, tushunarli va shaffof jarayondan foydalangan holda, gender jihatlari va madaniyatga mos keladigan va

ta'siriga uchragan aholining barcha qatlamlari undan hech qanday xarajatsiz va jazolanmasdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Mexanizm mamlakatning sud yoki ma'muriy himoya vositalaridan foydalanishga to'sqinlik qilmasligi kerak. Ta'sirga uchragan aholi mexanizm haqida tegishli ravishda xabardor qilinadi.

OTBning Axborotdan foydalanish siyosati (2018 yil sentyabr) OTBning ochiqlik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlarning OTB tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan rivojlanish tadbirlarida ishtirok etishi bo'yicha majburiyatini aks ettiradi. Shuningdek, u odamlarning OTB faoliyati haqida ma'lumot izlash, olish va tarqatish huquqini tan oladi.

Ushbu siyosat OTB ishlab chiqaradigan, o'z qarz oluvchilari yoki mijozlari tomonidan ishlab chiqilishini talab qiladigan yoki OTB faoliyati davomida boshqa tomonlar tomonidan OTBga taqdim etiladigan hujjatlar va ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi. OTB veb-sayti proaktiv oshkor qilish uchun asosiy vositadir, biroq OTB ma'lumotni oshkor qilish va u haqida xabar berish uchun boshqa tegishli vositalardan ham foydalanadi.

OTB o'z qarz oluvchilari va mijozlari bilan OTB loyihalari bo'yicha loyihaning ta'siriga uchragan odamlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ikki tomonlama aloqani ta'minlash uchun yaqindan ishlaydi. Bu tegishli tillardan foydalangan holda va loyihaning ta'siriga uchragan odamlar va boshqa manfaatdor tomonlarga loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim fikrlarni bildirish imkonini beradigan tarzda, belgilangan vaqt ichida amalga oshiriladi.

OTBning Gender va Rivojlanish Siyosati (1998 yil may) gender tenglikni targ'ib qilish va barcha OTB faoliyatlarida gender masalalariga ko'proq etibor berish bo'yicha asosiy strategiyadir. OTB siyosatining asosiy elementlari gender tenglikni hisobga olish, gender tahlil, gender rejalashtirish, e'tiborni oshirish va kun tartibini belgilashni o'z ichiga oladi. Gender tengsizliklar aniq bo'lgan rivojlanayotgan a'zo mamlakatlarda, OTB gender tengsizliklarning ba'zilarini hal qilish uchun kredit strategiyasini ishlab chiqishga harakat qiladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan a'zo mamlakatlarning ayollar guruhlari va asosiy ayollari bilan kengroq maslahatlashuvlar o'tkazishga katta e'tibor qaratiladi.

3.3.4 Ekvator Printsiplari IV

Ekvator Printsiplari IV manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi, ular 5-chi va 6-chi Tamoyillarda keltirilgan bo'lib, quyida ta'riflangan:

5-Tamoyil: manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish

- Barcha A va B toifadagi loyihalar uchun (Ekvator printsiplarining loyihalarni toifalashiga muvofiq) Ekvator printsiplarining moliyaviy institutlari (EPMI) o'z mijozidan manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik qilishni doimiy jarayon sifatida tuzilmaga ega va madaniy jihatdan mos tarzda, ta'sirga uchragan aholi,

ishchilar va, zarur hollarda, boshqa manfaatdor tomonlar bilan amalga oshirilishini namoyish etishni talab qiladi.

- Ta'sirga uchragan aholiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan loyihalar uchun mijoz ma'lumotga asoslangan maslahatlashuvlar va ishtirok etish jarayonini o'tkazadi. Mijoz maslahatlashuv jarayonini loyihaning xavf va ta'sirlari; loyihaning rivojlanish bosqichi; ta'sirga uchragan aholining ma'qul deb hisoblagan tili; ularning qaror qabul qilish jarayonlari; kam ta'minlangan va ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarning ehtiyojlariga moslashtiradi. Bu jarayon tashqi manipulyatsiya, aralashish, majburlash va qo'rqtishdan xoli bo'lishi kerak.
- Mahalliy xalqlar bilan muloqotni osonlashtirish uchun boshqa talablar ham mavjud.

6-tamoyil: Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

- Barcha A toifadagi va tegishlichcha, B toifadagi loyihalar uchun EPMI Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimining (AIBR) bir qismi sifatida mijozdan ta'sirga uchragan aholi va ishchilar tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan samarali shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini yaratishni talab qiladi; ushbu mexanizmlarning maqsadi - zarur hollarda loyihaning ekologik va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq muammolar va shikoyatlarni qabul qilish va hal qilishda yordam berishdir.
- Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari loyiha xavflari va ta'sirlariga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak hamda tashvishlarni tezkorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda tushunarli va shaffof maslahatlashuv jarayoni qo'llanilib, u madaniy jihatdan mos, barcha uchun ochiq, bepul va shikoyat yoki tashvishni bildirgan tomonga nisbatan hech qanday bosim yoki jazo choralarisiz amalga oshirilishi kerak. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari sud yoki ma'muriy vositalar orqali himoya huquqidан foydalanishga to'sqinlik qilmasligi lozim.

4 Manfaatdor tomonlar va muloqot qilish usullarini aniqlash

4.1 Qisqacha ma'lumot

Manfaatdor tomonlar bevosita yoki bilvosita Loyiha ta'siriga uchragan aholi, guruhlar yoki tashkilotlar (ta'siriga uchragan tomonlar) va Loyihadan manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar (boshqa manfaatdor tomonlar) deb hisoblanishi mumkin. Loyihadan manfaatdor tomonlar uning natijalariga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu MTHR Loyihaning manfaatdor tomonlari deb hisoblangan shaxslar, mahallalar, tashkilotlar va davlat idoralari kiritilgan Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish matritsasini o'z ichiga oladi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish matritsasi Ish hajmini aniqlash bosqichi doirasida maydonga tashriflar davomidagi maslahatlashuvlar natijalariga asoslanadi va o'zgartiriladi, ya'ni Loyihaning butun foydalanish muddati davomida yangi manfaatdor tomonlar guruhlari manfaatdor tomonlar va ularning Loyihadagi manfaati o'zgarishiga qarab qo'shilishi va chiqarib tashlanishi mumkin.

Tizimli yondashuvni qo'llash orqali joriy manfaatdor tomonlar matritsasi manfaat turiga qarab uchta asosiy toifaga bo'lingan:

- Ta'sirga uchragan manfaatdor tomonlar (ular bevosita yoki bilvosita Loyihadan ta'sirga uchrashi mumkin).
- Manfaatlarga asoslangan manfaatdor tomonlar (Loyihadan alohida manfaatdor bo'lganlar, ya'ni Loyihaning benefitsiarlari, NNT va fuqarolik jamiyat)
- Qaror qabul qiluvchi manfaatdor tomonlar
(guruhlar/jismoniyshaxslar/tashkilotlar, ya'ni, Loyiha kreditorlari, mahalliy tartibga soluvchilar va h.k.)

4.2 Manfaatdor tomonlarni aniqlash

EITB bosqichida maslahatlashish kerak bo'lgan aniqlangan manfaatdor tomonlar ro'yxati, Ijtimoiy-iqtisodiy tekshiruv hisobotini (ITH) tayyorlash jarayonida o'tkazilgan avvalgi maslahatlashuvlar va Ish hajmini aniqlash bosqichida o'tkazilgan dastlabki kuzatuvlар asosida tuzilgan va EITB bosqichi uchun yangilangan. Ushbu ro'yxat 3-jadvalda qisqacha taqdim etilgan. Ushbu manfaatdor tomonlar Loyihaning foydalanish muddati davomida (ya'ni, qurilish va foydalanish bosqichlari hamda EITB bosqichi) turli darajada muhimligicha qolishi kutilmoqda, shuning uchun muloqot usuli barcha bosqichlarga mos bo'lishi lozim. Ushbu matritsaga Loyihaning foydalanish davomida, kelgusidagi bosqichlarda aniqlangan ehtiyojlarga qarab, manfaatdor tomonlarni qo'shish yoki chiqarish hamda aloqa usullarini o'zgartirish uchun qo'shimcha o'zgarishlar va tuzatishlar kiritiladi.

3-jadval: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish matritsasi (oxirgi marta 2024 yil 9 oktyabrdagi yangilangan)

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
Loyiha ta'siriga uchragan yer egalari va yerdan foydanuvchilar	Ijarachilar Fermerlar	- T: Ijarachilar - Loyihani ishlab chiqish uchun yer ajratish natijasida iqtisodiy ko'chirishga duchor bo'lganlar.	<ul style="list-style-type: none"> • Loyiha rejalari, potentsial E-I ta'siri va yumshatish strategiyalarini oshkor qilish. • Loyiha ta'siriga uchragan aholi (LTA) ga Loyiha inshootlaridan kelib chiqadigan yerga ta'sirlarni oshkor qilish. • Potensial ta'sirga uchragan mulk, resurslar va yer huquqlari bo'yicha ma'lumot so'rash. • Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish. 	Rasmiy e'lonlar. Aholi bilan yig'ilishlar. Jamoatchilik eshituvlari (Milliy ETB). Jamoatchilikka oshkor qilish (EITB bosqichida). Fokus-guruuh muhokamalari. Aholini ro'yhatga olish (TTTR bosqichida). Ijtimoiy-iqtisodiy so'rov (TTTR bosqichida). EITB va TTTR hujjatlar to'plamini mahalliy jamoalar darajasida oshkor qilish (shu jumladan, kompensatsiya hujjatlarini oshkor qilish). Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar.
	Yerdan foydanuvchilar - Ishchilar (Ijarachilar tomonidan yollangan)	T: Yer foydanuvchilar - Loyihani ishlab chiqish uchun yer ajratish natijasida iqtisodiy ko'chirishga duchor bo'lganlar.		
	Yerdan foydanuvchilar - cho'ponlar (norasmiy yer foydanuvchilar)	T: Yer foydanuvchilar - Loyihani ishlab chiqish uchun yer ajratish natijasida iqtisodiy ko'chirishga duchor bo'lganlar		
	Loyiha maydonida o't va go'ng yig'ish yig'uvchilar va dam oluvchilar	T: O't va go'ng yig'ish hamda dam olish uchun foydalaniladigan hudud yopiladi.	<ul style="list-style-type: none"> • Loyiha rejalari, potentsial E-I ta'siri va yumshatish strategiyalarini oshkor qilish. • Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish. • Qurilish bosqichida doimiy monitoringni olib borish. 	Rasmiy e'lonlar. Aholi bilan yig'ilishlar. Jamoatchilik eshituvlari (Milliy ETB). Jamoatchilikka oshkor qilish (EITB bosqichida). EITB ni mahalliy jamoalar darajasida oshkor qilish

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
				Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar.
	Yerni boshqarish idoralari - "G'uzor Qorako'l klaster" MChJ va "Bobur Murodaliyevich" xususiy korxonasi (XK)	Q: Davlat, kommunal va xususiy yaylov sifatida foydalanish uchun ajratilgan yerlarni boshqarish.	<ul style="list-style-type: none"> Boshqaruvidagi yerning ijarachilari va yerni egalik qilishi to'g'risida ma'lumot so'rash Ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan ijara chilar va cho'ponlar soni to'g'risida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
Loyiha ta'siriga uchragan jamoalar (Mahallalar)	Chorvani ijara beruvchi uy xo'jaliklari (ChIUX)	M: Loyihadan ta'sir ko'rmaydigan, lekin loyiha hududida manfaatlari mavjud bo'lganlar (hayvonlari loyiha hududida boqiladi)	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarining, mumkin bo'lgan ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning hamda kamaytirish choralarining oshkor qilinishi. Loyihaning tashqi Shikoyatlarni Ko'rib Chiqish Mexanizmining (ShKM) tashkil etilishi. Qurilish bosqichida doimiy monitoring o'tkazilishi. 	Rasmiy e'lонlar. Jamoatchilik yig'ilishlari. Ixtisoslashtirilgan guruhi yig'ilishlari. Jamoatchilik tinglovlari (Milliy ATB). Jamoatchilikka oshkor qilish (EITB bosqichi). Ommaviy axborot vositalarida xabarlar. Ijtimoiy tarmoqlarda e'lонlar.
	Xalqobod	T: Loyihaning turli jihatlaridan E- I ta'sirlarga uchragan aholi.	Loyiha rejalar, potentsial E-I ta'siri va yumshatish strategiyalarini oshkor qilish.	Rasmiy e'lонlar. Aholi bilan yig'ilishlar. Jamoatchilik eshituvlari (Milliy ETB).
	Yangiobod			

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
	Batosh Oynako'l		<ul style="list-style-type: none"> • Ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan davlat infratuzilmasi va resurslari haqida ma'lumot so'rash. • Mahalliy demografiya, uy xo'jaligi va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha aniq ma'lumotlarni so'rash. • Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) (jamoat va JAZT) yaratish. • Qurilishdan oldingi va qurilish jarayonidagi yangilanishlarning oshkor qilinishi. 	<p>Jamoatchilikka oshkor qilish (EITB bosqichida). Fokus-guruuh muhokamalari. Aholini ro'yxatga olish (TTTR bosqichida). Ijtimoiy-iqtisodiy so'rov (TTTR bosqichida). EITB va TTTR hujjatlar to'plamini mahalliy aholi darajasida oshkor qilish (shu jumladan, kompensatsiya hujjatlarini oshkor qilish). Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar.</p>
Ijtimoiy ehtiyojmand guruuhlar (ayollar, norasmiy yerdan foydalanuvchilar, sezilarli darajada ta'sir ko'rgan LTOSHLAR, nogironligi bo'lgan odamlar, qariyalar, ayollar va bolalar boshchiligidagi	Ta'sirga uchragan mahallalardan ijtimoiy ehtiyojmand odamlar (shu jumladan zaif hisoblangan LTOSH va savodsiz odamlar)	T: Loyihaning turli jihatlaridan ET ta'siriga uchragan mahallalar. Ijtimoiy ehtiyojmandligi tufayli nomutanosisib tarzda ta'sirga uchrashi mumkin, hamkorlik qilish tadbirlarida qatnashishda qiynalishi mumkin	<ul style="list-style-type: none"> • Loyiha rejalar, potentsial E-l ta'siri va yumshatish strategiyalarini oshkor qilish. • Ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan davlat infratuzilmasi va resurslari haqida ma'lumot so'rash. • Mahalliy demografiya, uy xo'jaligi va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha aniq ma'lumotlarni so'rash. 	<p>Agar manfaatdor tomonlar bilan yuqoridagi LTM lar uchun usullar orqali bog'lana olmasa, Loyihada quyidagilardan foydalaniladi:</p> <p>Yuzma-yuz uchrashuvlar. Telefon qo'ng'iroqlari. Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Telegram).</p>

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
oilalar, yerga ega bo'limganlar, tabiiy resurslarga tayanadiganlar, kambag'allik chegarasi ortida yashovchilar).			<ul style="list-style-type: none"> Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish. 	
Hududiy yo'l (M39) va kirish yo'l foydalanuvchilari	Ta'sirga uchragan mahallalarning aholisi, shuningdek, hududiy yo'ldan (M39) va kirish yo'ldan foydalanadigan uzoqroqda joylashgan tumanlar aholisi.	T: Yo'ldan foydalanish imkoniyatining cheklanishi yoki Loyiha komponentlarini tashish bilan bog'liq xavflar ta'siriga uchragan	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarini va yo'ldan foydalanish imkoniyatlariga potentsial ta'sirlarni oshkor qilish. Qolgan yer maydonlariga kirish uchun boshqa mavjud shag'al yo'llardan foydalanish imkoniyatlari. Yo'lni yopish yoki og'ir yuk transportini tashish jadvalini oshkor qilish. Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) yaratish. 	Rasmiy e'lonlar. Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar.
Kasaba uyushmalari (zarur hollarda)	Kasaba uyushmalari	Q. Loyiha ishchilari va Loyiha kompaniyasi/EPC Pudratchisi o'rtaqidagi aloqalar uchun mas'ul. Shikoyatlarni qabul qilish va boshqarish imkonoyati bor.	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha va ishchilar o'tasida jamoa shartnomasi bo'yicha muzokalar olib borish. Ishchilar nomidan vakillik qila oladi. 	Loyihaning ishchilari kasaba uyushmalariga qo'shilganda yoki ishchilar vakillik qo'mitalarini tashkil qilganda aloqa usuli aniqlanadi.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
			<ul style="list-style-type: none"> Ishchilarining shikoyatlarini qabul qilish va boshqarish imkoniyati. 	
Loyiha ta'siriga uchragan mahalliy davlat organlari.	G'uzor tumani hokimligi	<p>Q: Rivojlanish loyihalarini tuman darajasida rejalshtirish va boshqarish.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yerdan foydalanish bo'yicha takliflarni tayyorlash, keyingi yerdan foydalanish rejalarini tasdiqlash, yer uchastkalarini kadastr ro'yxatidan o'tkazish va Yerni ijaraiga berish shartnomalarini (YelSh) boshqarish. - Eng yaqin chiqindi poligoni va oqava suvlarni tozalash inshootlari bilan bog'liq masala. 	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarini (maqsadlar, loyiha va faoliyatlar) oshkor qilish. Ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan davlat infratuzilmasi va resurslari haqida ma'lumot so'rash. Mahalliy demografiya, uy xo'jaligi va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha aniq ma'lumotlarni so'rash. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ehtiyojmand guruhlari haqida umumiyl ma'lumot so'rash. 	Rasmiy maslahat xatlar/ biznes yozishmalari. Telefon qo'ng'iroqlari. Yuzma-yuz uchrashuvlar.
	Qamashi tumani hokimligi	<p>Q: Hududiy rejalshtirish va rivojlanish loyihalarini boshqarish (zarur hollarda).</p>	<ul style="list-style-type: none"> Mahalliy bioxilma-xillik va davom etayotgan tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari haqida ma'lumot so'rash. Loyihaning tashqi shikoyatlarni ko'rib chiqish 	
	Qashqadaryo viloyati hokimiyyati.			

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
			mexanizmini (ShKM) yaratish.	
Milliy vazirliklar, boshqarmalar va idoralar (VBI) - Energetika	O'zbekiston Respublikasi Kon sanoati va geologiya vazirligi)	Q: Amaldagi va rejalashtirilayotgan va mavjud foyDALI qazilmalarni qidirish bo'yicha tadqiqotlari (loyiha ta'siriga uchragan hududlar doirasidagi tegishli istisno zonalari hamda har qanday geoteknikaviy xavfli yerlar	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha maydonlarida va uning atrofidagi har qanday mavjud yoki rejalshtirilgan qidiruv maydonlari haqida ma'lumot so'rash. Loyiha obyektlari va ularning atrofidagi har qanday geoteknik jihatdan xavfli yerlar haqida ma'lumot so'rash 	Rasmiy uchrashuvlar/xat- yozishmalar/telefon qo'ng'iroqlari.
	"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ (O'MET)	Q: LTA muddati tugagandan so'ng rejalshtirilgan ulanish ob'ektlarini loyihalashtirish, ular uchun yer ajratish, ularning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalinish va texnik xizmat ko'rsatishni ko'rib chiqish va tasdiqlash.	<ul style="list-style-type: none"> HEULning ekspluatatsiyasi va unga texnik xizmat ko'rsatishi, elektr stansiyalarini elektr tarmog'iga ulash, elektr energiyasini sotib oluvchi. 	Rasmiy uchrashuvlar/xat- yozishmalar/telefon qo'ng'iroqlari
	"O'ztransgaz" (tasdiqlanadi) AJ	Q: Loyiha ta'siriga uchragan hududlardagi rejalshtirilgan va mavjud gaz quvurlari haqida umumiylar ma'lumot taqdim etish, shuningdek, gaz ta'minoti infratuzilmasidan foydalinish va texnik xizmat ko'rsatishga	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarini (maqsadlar, loyiha va faoliyatlar) oshkor qilish. Loyiha hududi va uning atrofida joylashgan mavjud gaz quvurlari haqida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar/xat- yozishmalar/telefon qo'ng'iroqlari

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
		doir qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ijro etish (masalan, tegishli sanitariya-muhofaza zonalari).	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha hududi va uning atrofida joylashgan (agar mavjud bo'lsa) gaz quvurlari uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil eilgan sanitariya-muhofaza zonalari haqida ma'lumot so'rash. 	
"O'zsuvitaminot" AJ		Q: Loyiha ta'siriga uchragan hududlardagi rejalarshirilgan va mavjud ichimlik suvi ta'minoti inshootlari haqida ma'lumot taqdim etish, shuningdek, shu bilan bog'liq infratuzilmadan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ijro etish (masalan, tegishli sanitariya-muhofaza zonalari, texnik shartlar va boshqalar). Qurilish paytida ichimlik suvi ta'minoti tizimlaridan foydalanish uchun ruxsatnomalarni berish (ya'ni, kommunal xizmatlarga ularish va suv iste'moli).	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha joylashgan hudud va uning atrofida mavjud suv ta'minoti inshootlari haqida ma'lumot so'rash. Qurilish bosqichida rejalarshirilgan HEUL bo'ylab joylashgan yoki u bilan kesishgan suv ta'minoti inshootlari uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etilgan sanitariya-muhofaza zonalari haqida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar/xat-yozishmalar/telefon qo'ng'iroqlari

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
VBI – Atrof-muhit va iqlim o'zgarishi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi	<p>Q: Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda biologik xilma-xillik va ekologik jihatdan muhim suv resurslari to'g'risida ma'lumot berish.</p> <p>Atrof-muhitni boshqarish bo'yicha qonunlar va qoidalarning bajarilishi.</p> <p>Rejalashtirilgan Loyiha ob'ektlari uchun milliy ETB hisobotlarini ko'rib chiqish.</p> <p>Qurilish va foydalanimish uchun ekologik ruxsatnomalar berish.</p> <p>Ekologik va ijtimoiy talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarini (maqsadlar, loyiha va faoliyatlar) oshkor qilish. Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda muhofaza qilinishi zarur bo'lgan turlar va yashash muhitlarni mavjudligi haqida ma'lumot so'rash. Loyiha ta'siriga uchragan hududlar va ularning atrofida amalga oshirilayotgan saqlash dasturlari va himoyalangan hududlar haqida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar/xat-yozishmalar/telefon qo'ng'iroqlari.
	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Qashqadaryo Viloyati Boshqarmasi	<p>Q: Loyiha ta'siriga uchragan hududlardagi biologik xilma-xillik va ekologik jihatdan muhim suv resurslari hamda ular bilan bog'liq saqlash dasturlari haqida ma'lumot taqdim etish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalarini (maqsadlar, loyiha va faoliyatlar) oshkor qilish. Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda muhofaza qilinishi zarur bo'lgan turlar va yashash muhitlarni 	<ul style="list-style-type: none"> Rasmiy maslahat xatlari / yozishmalar. Ishtirokchilarning maydonga tashrifi.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
		<p>Qurilishdan oldin majburiy biologik xilma-xillik boyicha tadqiqotni olib borish (masalan, daraxtlar va boshqalar). Loyihaning qurilish va foydalanish bosqichlarida ekologik va ijtimoiy talablarga rioya qilinishini umumiy monitoringini olib borish.</p>	<p>mavjudligi haqida ma'lumot so'rash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Loyiha ta'siriga uchragan hududlar va ularning atrofida amalga oshirilayotgan saqlash dasturlari va himoyalangan hududlar haqida ma'lumot so'rash. • Daraxtlarni inventarizatsiya qilish va o'rnini bosuvchi daraxtlarni ko'chirib ekish bo'yicha xulosa so'rash (zarur hollarda). 	
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Zoologiya Instituti	M: Biologik xilma-xillik bo'yicha ma'lumot taqdim etish va muayyan fauna turlari va yashash muhitlari bo'yicha maxsus dastlabki o'rganishlar uchun texnik yordam berish.	M: Biologik xilma-xillik bo'yicha ma'lumot taqdim etish va muayyan fauna turlari va yashash muhitlari bo'yicha maxsus dastlabki o'rganishlar uchun texnik yordam berish.	<ul style="list-style-type: none"> • Har qanday muhofaza qilinishi zarur bo'lgan fauna turlari yoki yashash muhitlari uchun ularning tarqalish darajasi va yashash areali (yoki populyatsiya statistikasi) bo'yicha ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar Telefon qo'ng'iroqlari.
O'zbekiston Respublikasi Fanlar	M: Biologik xilma-xillik bo'yicha ma'lumot taqdim etish va muayyan flora turlari va	M: Biologik xilma-xillik bo'yicha ma'lumot taqdim etish va muayyan flora turlari va	<ul style="list-style-type: none"> • Har qanday muhofaza qilinishi zarur bo'lgan flora turlari yoki yashash muhitlari 	Rasmiy maslahat xatlari/yozishmalar.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
	Akademiyasining Botanika Instituti.	yashash muhitlari bo'yicha maxsus dastlabki o'rganishlar uchun texnik yordam berish	uchun ularning tarqalish darajasi va yashash areali (yoki populyatsiya statistikasi) bo'yicha ma'lumot so'rash.	
VBI- Yer boshqaruvi	Qashqadaryo viloyati Kadastr Agentligi boshqarmasi	Q: "O'zdaverloyiha" Davlat ilmiytadqiqot loyiha instituti tomonidan ishlab chiqilgan tasdiqlangan yer tuzish rejalar asosida yer uchastkalarini kadastr ro'yxitidan o'tkazish.	<ul style="list-style-type: none"> • Ta'sirga uchrashi mumkin bo'lgan yer uchastkalarini aniqlash uchun kadastr ma'lumotlarini olish uchun maxsus so'rovlar. 	Rasmiy maslahat xatlari/ yozishmalar.
	Kadastr Agentligi G'uzor tumani filiali			Rasmiy maslahat xatlari/ yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari. Yuzma-yuz uchrashuvlar.
	Kadastr Agentligi Qamashi tumani filiali			
	Suv xo'jaligi vazirligi	M: Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda rejalashtirilgan va mavjud sug'orish suvi ta'minoti ob'ektlari to'g'risida ma'lumot berish, va tegishli infratuzilmadan (masalan, tegishli sanitariya-muhofaza zonalari) foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishga oid qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ijro etish	<ul style="list-style-type: none"> • Loyiha ob'ektlarida va ularning atrofida mavjud suv ta'minoti ob'ektlari to'g'risida ma'lumot so'rash. • Qurilish bosqichida rejalashtirilgan HEUL bo'ylab/u bilan kesishadigan suv ta'minoti ob'ektlari uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga javob beradigan va vaziyat hususiyatidan kelib 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
			chiqib belgilangan sanitariya-muhofaza zonalarini so'rash.	
	Davlat ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi	Q: Davlat, jamoat va shaxsiy yaylovlardan foydalanish uchun ajratilgan yerlarni saqlash. Ushbu MTHR hisobotini yozish paytida	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha maydonida va uning atrofida mavjud yaylov yer uchastkalari haqida ma'lumot so'rash Yaylov yerining mulk huquqi haqida ma'lumot so'rash. Ta'sirga uchrashi mimkin bo'lgan cho'ponlar soni haqida ma'lumot so'rash 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
Veterenariya chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi	va	Q: Davlat, jamoat va xususiy chorvachilik uchun ajratilgan yerlarning boshqaruvchiligi. Ushbu rolni 2025 yilda IJSRQ dan qabul qilish.	<ul style="list-style-type: none"> Loyihaga yaqin hududlarda mavjud bo'lgan chorvachilik yer maydonlari haqida ma'lumot so'rash Chorvachilik yerlarining mulkchilik huquqi haqida ma'lumot so'rash. Ta'sir ko'rishi mumkin bo'lgan chorvadorlar soni haqida ma'lumot olish. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
VBI -	O'zbekiston Respublikasi	Q: Jamoat salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq qonunlar	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha rejalar (maqsadlar, loyiha va faoliyatlar) haqida 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar\.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
Sog'liqni saqlash, sanitariya, xavfsizlik va qo'riqlash	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati.	<p>va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iじro etish.</p> <p>Sanitariya-muhofaza hamda salomatlik va xavfsizlik zonalarini tashkil etish.</p> <p>Atrof-muhit va jamoat salomatligi hamda xavfsizligiga ta'sirlar bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy talablarga rioya qiliinishini muntazam monitoring qilish.</p>	<p>ma'lumotni oshkor qilish. Rejalashtirilgan Loyiha ob'ektlari va mavjud kommunal resurslar hamda Loyiha maydonlari atrofidagi suv havzalari uchun sanitariya-muhofaza haqida ma'lumot so'rash.</p>	Telefon qo'ng'iroqlari.
	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.	M: Tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarga favqulodda choralar ko'rish va gumanitar yordamni safarbar qilish.	<ul style="list-style-type: none"> Zarur bo'lganda, favqulodda vaziyatlarga javob berish imkoniyatlari va protokollari, tabiiy va boshqa kutilmagan hodisalar (ya'ni, yong'in chiqishi va daryo toshqini) haqida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
VBI - Transport va aloqa	Transport vazirligi	M: Loyiha ta'siriga uchragan hududlardagi transport infratuzilmasi to'g'risida ma'lumot berish va tegishli infratuzilmadan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatishga oid qonunlar va me'yoriy-	<ul style="list-style-type: none"> Loyihaning rejasি (maqsadlari, dizayni va faoliyatları) haqida ma'lumot berish. Loyiha rejalahtirilgan inshootlar uchun sanitariya va xavfsizlik zonalari hamda loyihaning hududida va atrofida 	Rasmiy yig'ilishlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
		huquqiy hujjatlarni ijro etish (masalan, tonnaj, drenaj, mavjud yo'llarni yangilash yoki kengaytirish va harakatni tartibga solish).	joylashgan mavjud kommunikatsiya inshootlari va suv obyektlari bo'yicha ma'lumot so'rash.	
"O'zbektelekom" AJ		Q: Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda rejalashtirilgan va mavjud telekommunikatsiya ob'ektlari (masalan, uzatish kabellari) to'g'risida ma'lumot berish va ushbu ob'ektlardan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatishga oid qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ijro etish (masalan, tegishli sanitariya-muhofaza zonalari).	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha ob'ektlarida va uning atrofida mavjud telekommunikatsiya ob'ektlari haqida ma'lumot so'rash. Loyihaning qurilish va foydalanish bosqichida Loyiha maydonlarida va uning atrofida joylashgan yer usti va yer osti telekommunikatsiya ob'ektlari (masalan, kabellar, minoralar va boshqalar) uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga javob beradigan sanitariya-muhofaza zonalari so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
VBI - Mehnat	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat	M: O'zbekistonda mehnatga oid qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosi, yangi qonunchilik talablarini amalga	<ul style="list-style-type: none"> Zarur hollarda, mahalliy ishchilarni ishga olish uchun yangi kuchga kirgan har 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
	munosabatlari vazirligi.	oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berish.	qanday qonuniy talablar bo'yicha yo'l-yo'riq so'rash.	
VBI-Madaniy meros	Fanlar akademiyasi - Arxeologiya instituti	M: Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlari to'g'risida ma'lumot berish va madaniy meros ob'ektlarini milliy inventarizatsiya qilish uchun arxeologik tadqiqotlarni olib borish.	<ul style="list-style-type: none"> Loyiha ob'ektlari va ularning atrofida olib borilayotgan har qanday arxeologik tadqiqotlar haqida ma'lumot so'rash. Loyiha ob'ektlari va ularning atrofida har qanday arxeologik topilmalar va/yoki madaniy meros ob'ektlari haqida ma'lumot so'rash 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.
	Fanlar akademiyasi - Madaniy meros agentligi. Qashqadaryo viloyati boshqarmasi	M: Loyiha ta'siriga uchragan hududlarda moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlari to'g'risida ma'lumot berish va O'zbekistonda mehnatga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ijro etish.	<ul style="list-style-type: none"> Mayjud madaniy meros ob'ektlari yoki ob'ektlar hududida har qanday jismoniy madaniy resurslar mavjudligi to'g'risida ma'lumot so'rash. Loyiha ob'ektlarida va unlarning atrofida amalga oshirilishi talab qilinadigan arxeologik tadqiqotlar haqida ma'lumot so'rash. 	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari.

Manfaatdor tomonlar guruhi	Manfaatdor tomonlar organlari	Loyihaga aloqadorlik: ta'sirga asoslangan (T), manfaatga asoslangan (M) yoki qaror qabul qiluvchi (Q).	Maslahatlashuvning kun tartibi	Muloqot usuli
Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)	O'zbekiston qushlarni himoya qilish jamiyati	M: Ornitofauna turlari va tabiatni muhofaza qilish uchun muhim bo'lgan yashash muhitlari va tegishli tabiatni muhofaza qilish dasturlari haqida ma'lumot berish.	<ul style="list-style-type: none">• Loyiha ob'ektlarida va ularning atrofida uchragan ornitofauna turlari va yashash muhitlari haqida ma'lumot so'rash Ornitofaunaga mumkin bo'lgan ta'siri bo'yicha har qanday qo'shimcha mulohazalar va tavsiyalarni so'rash.	Rasmiy uchrashuvlar. Xat-yozishmalar. Telefon qo'ng'iroqlari. Press reliz. Ijtimoiy tarmoqlar.

4.3 Ijtimoiy-iqtisodiy sharh⁶

Loyiha maydoni yaqinida jami to'rtta mahalla joylashgan - G'uzor tumanining uchta mahalla fuqarolar yig'ini - Yangiobod, Xalqobod, Batosh, va Qamashi tumanining Oynako'l mahalla fuqarolar yig'ini (9-rasmga qarang). Bu mahallalarning umumiy aholisi mos ravishda 6510, 4936, 4907 va 5677 kishini tashkil qiladi. Mahallalar asosan qishloqlardan iborat bo'lib, maydonni kuzatish davomida TH jamoalaridagi odamlar odatda dehqonchilik va chorvachilik orqali tirikchilik qilishlari aniqlandi.

TH mahallalaridan tashqari, shimoliy-sharqda, Loyiha maydonidan taxminan 1.3 km uzoqlikda joylashgan uy xo'jaliklari, Loyiha maydonining shimolida joylashgan G'uzor podstansiyasi va G'uzor podstansiyasining shimolida joylashgan bitta shaxsga tegishli uchta uy-joy binolari mavjud. Bular Loyihaga eng yaqin manfaatdor tomonlardir.

TH jamoalari a'zolarining aksariyati o'zbek millatiga mansub bo'lib, ularning 99,5% ni tashkil etadi, tojik, rus va turkmanlarning esa soni kam. Maydonga tashriflar chog'ida o'tkazilgan maslahatlashuvlar shuni ko'rsatdiki, TH mahallalaridagi barcha odamlar o'zbek tilini birinchi til sifatida bilishadi. Shu sababli, Loyiha uchun muloqotlar o'zbek tilida olib borilishiga ustuvor ahamiyat beriladi.

TH mahallalari aholisining ko'pchiligi o'rta maktabni tugatgan (96,6%, lekin ayollar uchun bu ko'rsatkich biroz pastroq — 96,0%, erkaklar uchun esa - 97,7%) va juda oz qismi savodsiz (jami 0,7%). Bu odamlar uchun hamkorlik qilish jarayonida alohida yondashuv talab qilinadi va vaziyatga qarab, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishni rejalashtirishda hisobga olinishi kerak. Qolgan manfaatdor tomonlar uchun hamkorlikni yozma shaklda olib borish maqbul bo'ladi.

EITB bo'yicha aholining 65% gacha nogironligi bo'lgan, qashshoqlikda yashovchi, qariyalar va ayol yoki bola boshchiligidagi uy xo'jaliklari, yerga egaligi yo'q shaxslar va turmush tarzini ta'minlashda tabiiy resurslarga tayanadigan shaxslar maqomi tufayli ijtimoiy ehtiyojmand deb hisoblanishi mumkin (batafsil ma'lumot uchun EITB II jildga qarang). Bu TH dagi aholining nisbatan katta foizidir, bu TH dagi aholida yuqori darajadagi beqarorlik va zaiflikni aks ettiradi. Barcha ijtimoiy ehtiyojmand odamlar maslahatlashuvlarga borishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lsa-da, maslahatlashuvlarga kelishga eng ko'p qiyinchiliklarga duch keladigan ijtimoiy ehtiyojmand odamlar (yuqorida aytib o'tilgan savodsizlardan tashqari) - bu nogiron yoki surunkali kasallik bilan kasallangan odamlar (aholining taxminan 10,3%) va keksalardir (aholining taxminan 8,5%).

⁶ Ushbu bo'lim uchun ma'lumotlar EITB V-jild Turmush tarzini tiklash rejasini tayyorlash uchun o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy so'rovlardan olingan

4.3.1 JAZT

EITBda loyiha ishchilari tomonidan aholi uchun, shuningdek, Loyihada ishtirok etayotgan Loyiha ishchilari o'rtasida Loyiha bilan bog'liq JAZT xavflari ehtimoli mavjudligi aniqlandi. Bu loyiha doirasida JAZT (Jinsiy asoslanuvchi zo'ravonlik va tazyiq) xizmatlari, xavflari va muammolari mayjudligi bilan bog'liq maxsus savollar ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar davomida o'tkazilgan ma'lumot to'plash/maslahatlashuv jarayonida, fokus guruh ishtirokchilari va ayol jamoa a'zolari bilan muhokama qilingan. Konsultatsiyalar davomida ushbu mavzuga oid aniq xavotirlar ko'tarilmadi, aksincha bu mavzuni muhokama qilishda umumiyl istaksizlik kuzatildi. Biroq, EITB tomonidan aniqlangan va ushbu Loyihaga tegishli JAZT xavfi manbalari quyidagilar orasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq::

- turli xil ijtimoiy va moliyaviy mavqega bo'lgan turli jinsdagi ishchilar, hamda mahalliy va xalqaro xodimlar yoki menejerlar va ularga bo'y sunuvchi odamlar o'rtasida;
- Loyihada ishlaydigan ayollar va ularning Loyihada ishtirok etishini ma'qullamasligi mumkin bo'lgan ularning oilalari yoki aholi o'rtasida;
- ishchilar va mahalliy aholi yoki muhojirlar o'rtasida, bunda ishchilar moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lishi yoki Loyihadan mahalliy aholi uchun mo'ljallangan foydani qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;
- mahalliy aholi va Loyihaga yoki uning xodimlariga mahsulot sotish va xizmatlar ko'rsatish yoki Loyiha mavjudligidan boshqa foya olish umidida Loyiha hududiga ko'chib kelgan migrantlar o'rtasida;
- Loyiha mavjudligi sababli loyiha hududida joylashgan davlat yoki xususiy xavfsizlik kuchlari (xizmatlari loyiha tomonidan to'lanishi yoki ular hukumat tomonidan yuborilishidan qat'iy nazar) va mahalliy mahallalar aholisi yoki loyiha ishchilari o'rtasida;
- ayollar va bolalarni Loyiha yoki uning xodimlari uchun mahsulot va xizmatlarini sotish yoki Loyiha ishtirokchilariga foya keltirish uchun ularni o'z xohishiga qarshi Loyiha hududiga olib kirgan odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar va shunday ayollar va bolalar o'rtasida;.
- yoshi davlatda ishga joylashish uchun minimal yoshdan past bo'lgan (yoki potentsial xavfli ishlar uchun - 18 yoshdan kichik) shaxslar va ularni Loyiha ta'minot zanjirida ularning ixtiyoriga qarshi ishlashga majburlayotgan shaxslar o'rtasida.

Bu xavflar yangi ishchilar sonining ko'pligi va/yoki ishchilar (asosan erkaklar) oqimining ortishi, shuningdek vaqtinchalik, norasmiy va/yoki migrant ishchilarni jaib etish zaruriyati, shuningdek, ishchilar ketidan kelib, ularga mahsulotlar va xizmatlar sotish yoki ish

o'rirlari yoki biznes imkoniyatlarini izlab kelayotgan odamlar bilan kuchayadi. Ushbu o'zaro aloqalar aksariyati ish vaqtidan tashqari yoki Loyihada ishlamaydigan ikki kishi o'rtasida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Loyiha ushbu o'zaro aloqalarning ko'pini taqiqlash yoki sodir bo'layotgan barcha o'zaro aloqalar haqida xabardor bo'la olmaydi.

Shuning uchun Loyihada JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi aniqlandi (quyida 7.4.4 bo'limga qarang).


4.3.2 Afzal ko'rilgan muloqot qilish usullari

Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovda qatnashganlar ma'lumotni televizordan, keyin esa ijtimoiy tarmoqlardan olishni afzal ko'rishlarini aytishdi. Biroq, TH mahallalari aholisi orasida afzalliklar bo'yicha katta tafovutlar kuzatildi. Quyidagi 4-jadvalda respondentlarning qaysi axborot manbalarini afzal ko'rishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Natijalar 100% gacha qo'shilmaydi, chunki bir nechta variant tanlanishi mumkin.

4-jadval: Respondentlar afzal ko'radigan ma'lumot manbalarini

	Yangiobod	Xalqobod	Batosh	Oynako'I	Jami
Maxsus Loyiha xabarnomalari	37.5	13.9	0.0	1.1	13.4
Televizor	38.5	24.1	59.6	59.6	46.1
Radio	0.0	2.5	1.1	1.1	1.1
Ijtimoiy tarmoqlar	41.7	31.6	47.2	35.1	39.1
Jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar	3.1	11.4	2.2	2.1	5.1
Mahalla qo'mitasi	7.3	34.2	24.7	25.5	23.8
Hokimiyat /energiya sotish kompaniyasi/inspectori	0.0	24.1	4.5	1.1	6.4

9-rasm: THdagi mahallalar joylashuvi



4.4 Maslahatlashuvlar

Loyihaning butun foydalanish muddati davomida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- Yuzma-yuz uchrashuvlar (shuningdek, asosiy ma'lumot beruvchilar bilan suhbatlar (AMS) sifatida ham tanilgan) - bu usul bevosita ta'sirga uchragan va qaror qabul qiluvchi manfaatdor tomonlar guruhlariga qo'llaniladi. Shuningdek, zarur hollarda, ijtimoiy ehtiyojmand guruhlar bilan amalga oshiriladi.
- Mahalla raislari bilan uchrashuvlar – bunda mahalla bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish va jamoada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday muammolarni hal qilish uchun mahalla raislari bilan rasmiy va norasmiy uchrashuvlar o'tkaziladi.
- Biznes yozishmalari – Xatlar va elektron pochta xabarları, jumladan, Loyiha ma'lumotlari va savollar, asosan davlat organlari bilan yozishmalar uchun ishlatiladi.
- Ko'rgazmali qurollar va broshuralarni tarqatish – bunday usul manfaatdor tomonlarning katta guruhlarini, masalan, mahalliy mahallalarni Loyiha va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi haqida xabardor qilish uchun mos keladi.
- Ijtimoiy tarmoqlar – uzoq masofa tufayli yig'ilishlarga kelish imkoniyati bo'lmagan manfaatdor tomonlar guruhlari bilan muloqot qilish uchun foydalanish mumkin. Bunga O'zbekistonda keng qo'llaniladigan telegram aloqa kanalidan foydalanish kiradi. Shuningdek, u Facebook, LinkedIn yoki Instagram sahifalariga ma'lumotlarni yuklashni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bunga O'zbekistonda keng foydalaniladigan Telegram aloqa kanalidan foydalanish kiradi. Shuningdek, Facebook, LinkedIn yoki Instagram sahifalariga ma'lumotlarni yuklash mumkin.
- Jamoatchilik bilan uchrashuvlar – bular katta guruh yig'ilishlari shaklida bo'lishi mumkin va ular yordamida Loyihaning butun foydalanish muddatidagi asosiy amalga oshirish bosqichlarida Loyiha ma'lumotlari oshkor qilinadi.
- Maqsadli uchrashuvlar (MU) - ulardan EITB bosqichi uchun ma'lumot yig'ish, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojmand guruhlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish uchun foydalaniladi.
- Yozishmalardan jamoatchilik bilan uchrashuvlarga taklif qilish uchun foydalaniladi. Bu xatlar yoki biznes yozishmalar shaklida bo'lishi mumkin. Shuningdek, yozishmalardan Loyihaning asosiy bosqichlaridagi ma'lumotlarni ta'sirga uchragan va manfaati bor manfaatdor tomonlarga kengroq taqsimlash uchun oshkor etish uchun foydalaniladi.
- Telefon qo'ng'iroqlari – milliy va mahalliy hukumatga tegishli asosiy manfaatdor tomonlar bilan bog'lanish uchun foydalaniladi, shuningdek, boshqa formatda bo'lgan ma'lumotlarga kirishda qiynalayotgan ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun muqobil aloqa usuli. Bundan manfaatdor tomonlar yoki xodimlarning

sog'lig'i yoki xavfsizligi xavf ostida bo'lishi mumkin bo'lgan izolyatsiya holatlarda ham foydalanish mumkin.

- Matbuot xabari – kengroq manfaatdor tomonlar guruhlariga ma'lumotlarni oshkor qilish uchun Loyihaning asosiy bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu - Loyiha ma'lumotlarini oshkor qilish uchun gazeta, radio yoki televide niyega beriladigan bayonotlar. Loyiha shuningdek, Masdar veb-saytiga media-relizlarni yuklaydi.

3- jadvalda tanlangan aloqa usuli manfaatdor tomonlar guruhining manfaatiga va uning ta'siriga asoslanadi:

- **Chuqurlashgan tarzda hamkorlik qilish:** muntazam, yakkama-yakka uchrashuvlar, ishchi guruhlari, qo'mitalar va yangilanishlar (xat, telefon qo'ng'iroqlari yoki elektron pochta xabarlari orqali).
- **Yo'naltirilgan tarzda hamkorlik qilish:** vaqtı-vaqtı bilan o'tkaziladigan fokus-guruhlar yig'ilishlari, xatlar, telefon qo'ng'iroqlari va elektron pochta xabarlari (iloji bo'lganda).
- **Xabardorlikka asoslangan hamkorlik qilish:** vaqtı-vaqtı bilan o'tkaziladigan ommaviy yig'ilishlar, xatlar, varaqalar, internet va mahalliy ommaviy axborot vositalaridagi reklamalar orqali Loyiha ma'lumotlari.
- **Sharh berish imkoniyati:** Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisiga yoki GZ uchun mas'ul ijtimoiy xodimga to'g'ridan-to'g'ri yoki shikoyat shakllari orqali (qurilish jarayonida) yoki foydalanish davomida boshqa usullar bilan izoh berish imkoniyati (tegishli vaqtida aniqlanadi). Har bir holatda, fikr-mulohaza shakllari, shuningdek, og'zaki fikr bildirish imkoniyati mavjud bo'ladi.
- **Ma'lumotni oshkor qilish:** maxsus ma'lumotni oshkor qilish tadbirlari, varaqar, an'anaviy ommaviy axborot vositalarida, masalan, radio va gazetalardagi reklamalar. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'zda tutilmagan.

4.5 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tamoyillari

Barcha manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlari madaniy jihatdan mos uslubda va manfaatdor tomonlar tushunadigan tillarda (jumladan, o'zbek va rus tillarida) amalga oshiriladi.

Hamkorlik qilish tadbirlarini rejalashtirishda manfaatdor tomonlarning iloji boricha ko'proq ishtirokini ta'minlash uchun madaniy va iqtisodiy jihatlar hisobga olinadi (masalan, ayollar qatnashishi mumkin bo'lgan vaqtлari yoki cho'ponlar chorva mollarini boqishga chiqqanda emas, balki uyda bo'lgan paytlari).

Barcha uchrashuvlar oldindan tashkillashtirilib, ular haqida mahalliy va tuman rahbarlari va boshqa vositalar orqali xabar beriladi. Barcha uchrashuvlarda mahalliy tilda

ko'rgazmali materiallar va tarqatma materiallar taqdim etiladi. Uchrashuvlar manfaatdor tomonlar yetib kelishlari oson bo'lgan joylarda o'tkaziladi va kerak bo'lganda ular uchun transport tashkillashtiriladi. Barcha ma'lumotlar tarqatish uchun hujjatlashtiriladi (fotosuratlar/videolar, ishtirokchilar ro'yxatini to'ldirish va yig'ilish bayonnomalari).

4.6 Ayollarning ishtirokini rag'batlantirish

Mahalliy madaniyat va an'analarni inobatga olgan holda, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarida ayollarning, ayniqsa mahalliy mahallalar va qishloq xo'jaligi ishchilari orasidan, faol va teng qatnashishini ta'minlash choralarini ko'rishga e'tibor qaratiladi. Zarur hollarda, alohida maslahatlashuv va uchrashuvlar tashkil etiladi. Tadbirlar ayollar ishtirok eta oladigan vaqtлага mo'ljallab rejalashtiriladi.

Mazkur uchrashuvlar, maqsadli uchrashuvlar va maslahatlashuvlarni ayol moderatorlar olib boradi. Bu ayollarga Loyihadan xabardor bo'lish, o'z fikr-mulohazalari va tashvishlarini bildirish hamda fikr almashish uchun qulay muhit yaratadi.

4.7 Aholining ijtimoiy ehtiyojmand muhtoj guruhlarning ishtirokini rag'batlantirish

Ayollar (yuqorida muhokama qilingan) bilan bir qatorda, zaif guruhlар quydagilarni o'z ichiga oladi: norasmiy yer foydalanuvchilari, loyihadan sezilarli darajada ta'sirlangan LTOSh (loyiha ta'siri ostidagi shaxslar), nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, ayol va bola boshchiligidagi xonadonlar, yerga ega bo'limganlar, tabiiy resurslarga bog'liq holda yashovchilar hamda qashshoqlikda yashovchi odamlar (4.3-bo'limda muhokama qilingan va EITB asosiy hisobotida (EITB II jild)) batafsil yoritilgan. Ular orasida savodi past yoki savodsiz odamlar ham bo'lishi mumkin. Bu odamlarning barchasi Loyiha haqida ma'lumot olish, o'z fikrlarini bildirish yoki Loyiha haqida o'z xavotirlarini bildirishda qiynaladi.

Ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarning, ayniqsa, jismoniy nogironlik yoki ishonchli transportga chiqish imkoniyati kabi moliyaviy to'siqlar tufayli uchrashuvlarda qatnasha olmaydiganlarning ishtirokini ta'minlash maqsadida, ma'lumotlar turli usullar bilan tarqatiladi, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali (bu Loyihaning ko'plab manfaatdor tomonlari tomonidan afzal ko'rildigan usul). Shuningdek, ijtimoiy ehtiyojmand guruhlар uchun maxsus maslahatlashuvlar o'tkaziladi. Imkon qadar, bu konsultatsiyalar ularning uylarida yoki ularga qulay bo'lgan joylarda o'tkaziladi. Ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarga bo'lgan hamkorlik qilish usullari doimiy ravishda xavflar mavjudligi jihatidan baholanadi va ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarning o'zlari bilan maslahatlashiladi.

5 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishning rejalashtirilgan jarayoni

5.1 Qisqacha ma'lumot

Ushbu bo'limda Loyihaning EITB bosqichi, qurilishdan oldingi va qurilish bosqichi uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejalarini jamlangan. Ushbu MTHR EITB bosqichida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishning rejalashtirilgan jarayoniga qaratilgan. Qurilish-oldi, qurilish, ishga tushirish, foydalanish va foydalanishdan chiqarish bosqichlari uchun hamkorlik qilishga qo'yilgan yangi talablar aniqlangan sari ushbu bo'lim doimiy ravishda yangilanadi. Ushbu MTHRning navbatdagi yangilanishi "Masdar" ning JABM tomonidan Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash bo'yicha maslahatlashuvlar yakunlanganidan va moliyaviy yakuniga erishilgandan so'ng amalgalash oshiriladi (2024 yil dekabrida yoki 2025 yil boshida kutilmoqda).

5.2 Hujjatlarni oshkor qilish

EITB paketi yakunlanganidan va Kreditorning izohlaridan keyin yangilanganidan so'ng "Masdar" va Kreditorlarning veb-saytlarida oshkor qilinadi. Bunda quyidagi hujjatlar oshkor qilinadi:

- NTH (ingliz va o'zbek tillarida)⁷;
- EITB asosiy hisoboti va unga qo'shimcha tarzda tuzilgan EIBR (ingliz va rus tillarida);
- Texnik ilovalar (asl tilida);
- Ushbu MTHR (ingliz tilida);
- TTTR (ingliz tilida va o'zbek tilida); va
- Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (MTHR hisobiti ichida) (ingliz va o'zbek tillarida).

Mahalliy aholi bu haqida allaqachon jamoatchilik uchrashuvlari va loyiha bukletlarining tarqatilishi orqali xabardor qilingan.

Yer olish jarayoniga oid ravishda, loyiha ta'siri ostidagi shaxslar (LTOSh)ga kompensatsiya shartnomasidan tashqari, "Yer olish va kompensatsiya bo'yicha yo'riqnomा" (YKBQ) nomli qo'llanma ham o'zbek tilida taqdim etiladi. Ushbu yo'riqnomा qisqa, tushunarli va oddiy qilib tayyorlanadi hamda aynan loyiha ta'siriga uchragan mahalliy jamoalar va xonardonlar uchun foydali bo'ladi.

⁷ NTH ning dastlabki loyihasi dastlabki maslahatlashuvlar davomida mahalliy jamoalarga oshkor qilingan. Ushbu versiya yakuniy NTH versiyasi bilan yangilanadi.

5.3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishni rejalashtirish

Ushbu bo'limda EITB bosqichini va undan keyingi bosqichlarni yakunlash uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va Jamoatchilikka oshkor qilish bo'yicha davom etayotgan tadbirlar ko'rsatilgan. Loyihaning qolgan qismi uchun manfaatdor tomonlar bilan rejalahtirilgan maslahatlashuvlarning qisqacha mazmuni quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval: Manfaatdor tomonlar bilan rejalahtirilgan hamkorlik qilish tadbirlari (oxirgi yangilangan sanasi 2024 yil oktyabr)

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalahtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
EITB bosqichida maslahatlashuv					
1	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi	Barcha manfaatdor tomonlar guruhlari	2023-yil sentyabridan boshlab	EITB bosqichida – "Juru", keyin "Masdar"ga topshiriladi.	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi ishlamoqda va uning barcha manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarida oshkor etilishi va har doim ochiq bo'lishi davom etiladi.
2	TTTRni doirasidagi kompensatsiya paketlarini yuzma-yuz uchrashuvlar orqali oshkor qilish	Barcha loyiha ta'siriga uchragan xo'jaliklar (LTOUX)dan hech bo'limganda bitta ayol oila a'zosi qatnashishi lozim.	2025 yilning 1-choragi	"Juru"	Maslahatshuvlarda TTTR, kompensatsiya paketlari va turmush tarzini tiklash bo'yicha yordam (har bir xo'jalik o'z paketini o'zbek tilida oladi) va TTTR broshyurasi oshkor qilinadi (shikoyatlarni kiritish uchun aloqa ma'lumotlari ko'rsatiladi)
3	TTTR bo'yicha kompensatsiya paketlarini oshkor qilish, himoyaga muhtoj guruhlari – ehtiyojmand deb aniqlangan LTOUX asosida.	Ehtiyojmand LTOUX holatlarida, hech bo'limganda bir nafar ayol oila a'zosi ishtirok etishi shart.	2025 yilning 1-choragi	"Juru"	Yuqorida gidek, biroq aynan ma'lum joylarda yoki LTOUX bilan maslahatlashuv asosida belgilanadigan maxsus usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Loysiha ta'siri ostidagi shaxslar (LTOSh)ga kompensatsiya to'lanishidan kamida ikki hafta oldin to'lov paketlari bilan tanishib chiqish imkoniyati beriladi.
4	TTTR bo'yicha kompensatsiya masalasida ayol LTOShlar bilan fokus guruh uchrashuvi	Ayol LTOShlar	2025 yilning 1-choragi	"Juru"	Ayol LTOShlar bilan fokus guruh muhokamasi o'tkazilib, TTTR jarayoni, huquqlar matritsasi va kompensatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor qilinadi. Bu orqali ayollarga o'z oilalari uchun

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
					belgilangan kompensatsiya paketlarini chuqurroq tushunish va baholash imkoniyati yaratiladi.
5	Mahallalar bilan maslahatlashuvlar — yuzma-yuz uchrashuvlar.	Loyiha ta'siriga uchragan jamoalarning/ mahalla va mahalliy hukumat rahbarlari,	2025 yilning 1-choragi	"Juru"/"Masdar"	Mahalla vakillari bilan loyiha faoliyatlar haqida ma'lumot berish, Shikoyatlarni Ko'rib Chiqish Mexanizmini (ShKM) tushuntirish va loyiha ta'siriga uchraganligini da'vo qilayotgan shaxslar (masalan, o't yig'uvchilar, chorvadorlikni ijaraga olgan xo'jaliklar - ChiUX, F02 ishchilari va boshqalar) loyha haqida ShKM orqali xabar berishini so'rash.
6	ChiUX bilan maqsadli guruh uchrashuv	ChiUX	2025 yilning 1-choragi	"Juru"	ChiUX bilan maqsadli guruh uchrashuvi o'tkazilib, loyiha amalga oshirilishi va ShKM haqida ma'lumot beriladi.
7	EITBni oshkor qilish	Barcha manfaatdor tomonlar guruhlari, ayniqsa mahalla raislari va mahalliy aholi azolari	2025 yil 1-cgoragi	"Masdar" Kreditorlar va	Yakuniy EITB paketini "Masdar" va Kreditorning veb-saytlarida oshkor qilish (kreditorning sharhlaridan keyin yakunlangan va yangilanganidan so'ng), NTH (ing., o'zb), MTHR, TTTR va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi.

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
					Kompensatsiyani tayinlangan xo'jalik rahbari olishini ma'qullashlarini ta'minlash uchun oila a'zolari bilan maslahatlashuv o'tkaziladi. Loyha ta'siri ostidagi shaxslar (LTOSh)ga kompensatsiya to'lanishidan kamida ikki hafta oldin to'lov paketlari bilan tanishib chiqish imkoniyati beriladi.
8	Kelgusi maslahatlashuv haqida xabar berish – telefon qo'ng'irog'i yoki Telegram kanali orqali	Belgilangan xo'jalik boshliqlari/aloqa qilish uchun shaslar	Kompensatsiya to'lovi boshlanishidan ikki hafta oldin	Masdar JABM	Ushbu uchrashuv LTOShlarni yaqinlashayotgan kompensatsiya to'lovlariga tayyorlash, ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratish hamda to'lov jarayoni haqida muhim ma'lumot berish uchun o'tkaziladi.
9	Kompensatsiyaning to'lanishi – shaxsan uchrashuvlar orqali	Belgilangan xo'jalik boshliqlari va kamida bitta ayol oila a'zosi ishtirok etadi.	2025 yil 1- va 2-choragi	Masdar JABM	Ushbu kunda kompensatsiya LTOShlarga, ularning belgilang'an xo'jalik boshlig'i orqali to'lanadi. Kamida bitta ayol vakilining ishtirok etishi talab qilinadi.
10	Turmush tarzini tiklash bo'yicha trening haqida xabarnoma va uning amalga oshirilishi – telefon qo'ng'irog'i yoki Telegram kanali orqali	Belgilangan xo'jalik boshliqlari yoki treningda qatnashish uchun tanlangan xo'jalik a'zolari.	Har bir trening amalga oshirilishidan ikki hafta oldin – taxminan 2025 yil aprel oyida.	Masdar JABM	Turmush tarzini tiklash bo'yicha treningning boshlanishi haqida xabarnoma. Har bir trening uchun alohida sana belgilanadi. Xabarnoma faqat qatnashishni tanlagan LTOShlarga taalluqlidir.
11	Qurilish ishlarining boshlanishi haqida xabarnoma – telefon qo'ng'irog'i yoki Telegram kanali orqali	Belgilangan xo'jalik boshliqlari/aloqa qilish uchun shaslar	Qurilish ishlarining boshlanishidan ikki hafta oldin – taxminan 2025 yil uchinchi chorakda	Masdar JABM	Yer egalik huquqining Masdarga o'tish sanalari va atrofni o'rab olish panjarasining qurilishi boshlanish sanalari oshkor qilinadi.

EITB bosqichidan keyin ma'lumotlarni oshkor qilish

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
12	Qurilish ishlari boshlanishidan oldin, maslahatlashuvlar, ma'lumot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish.	Barcha manfaatdor tomonlar	Qurilish ishlari boshlanishidan oldin (2025 yilning 3-choragida boshlanishi kutilmoqda).	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	<p>Qurilish boshlanishidan nimani kutish mumkinligi va Loyihani amalga oshirish muddatlari haqida ma'lumot va mahalliy jamaa bilan o'zaro aloqaning aniq sohalari.</p> <p>Konsultatsiyaning maxsus mavzulari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ehtimoliy ish o'rirlari. • So'nggi turar joy ehtiyojlari va yondashuv bo'yicha kelishuv. • Trafik va transport. • Muddatli yer egallahash (zarur bo'lsa). • Jinsiy zo'ravonlik va jamoatchilik shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi (shikoyatlar yo'nalishi/aloqa ma'lumotlari va boshqalar). • Inson huquqlari, ehtimoliy xavf va ta'sirlar. • Loyiha holati haqida yangilanishlar (davriy va doimiy).
13	Qurilish boshlanishidan oldin jamoatchilik bilan yig'ilishlar	Barcha manfaatdor tomonlar, ayniqsa, mahalla raislari va mahalliy aholi vakillariga alohida e'tibor qaratiladi.	Qurilish ishlari boshlanishidan oldin (2025 yilning 3-choragida boshlanishi kutilmoqda).	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	<p>NTH (shu jumladan, Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi) oshkor qilish va broshuralarni ommaga ko'rindigan joylarda qoldirish (masalan, uchrashuvlardan 2 hafta oldin va uchrashuvlardan 2 hafta keyin).</p> <p>TH mahallalarida uchrashuvlar.</p> <p>Materiallar o'zbek tiliga tarjima qilinadi.</p>

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
					NTH onlayn tarzda oshkor qilinadi (https://masdar.ae/en/Masdar-Clean-Energy/Projects)
14	Yuzma-yuz uchrashuvlar, fokus-guruhralar va/yoki telefon orqali suhbatlar (muloqotning afzal usuli sifatida belgilangan)	Ijtimoiy ehtiyojmand guruhralar	Qurilish ishlari boshlanishidan oldin (2025 yilning 3-choragida boshlanishi kutilmoqda).	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Qurilish boshlanishi bilan nima kutish mumkinligi va Loyihani amalga oshirish muddatlari haqida ma'lumot. Potensial ish o'rirlari imkoniyati.
15	Yuzma-yuz uchrashuvlar	Davlat organlarining mansabдор shaxslari (G'uzor tumani, Qamashi tumanlari va tegishli Qashqadaryo viloyati hokimliklari)	Qurilish ishlari boshlanishidan oldin (2025 yilning 3-choragida boshlanishi kutilmoqda) va qurilish vaqtida taxminan har oyda	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Masdar (va EPC pudratchisi) Loyerha uchun ishga joylashtirish imkoniyatlari bo'yicha hukumat organlari bilan o'z harakatlarini muvofiqlashtiradi va ishchi kuchi soniga bo'lgan ehtiyoj va lavozimlar uchun malakalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi.
16	Belgilangan yer uchastkasida ish boshlanishidan oldin ijarchilar va yerdan foydalanuvchilar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar/telefon qo'ng'iroqlari (Loyerha maydonida)	Ta'sir ostidagi aholi	Muntazam ravishda ish boshlanmaguncha va Loyerha maydonidagi ularning yer uchastkalarida (2025 yilning 3-choragida bo'lishi kutilmoqda) ish boshlanishidan kamida ikki hafta oldin.	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Ushbu uchrashuvlar quyidagi larni o'z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmagan holda): <ul style="list-style-type: none"> • Kompensatsiya to'lash to'g'risida xabar berish • Tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlar haqida xabar berish va ularni amalga oshirish Yerga egalik huquqi o'tkazilishi va perimeter bo'ylab panjarani qurilishining boshlanish sanasini oshkor qilish
17	Favqulodda vaziyatlarga	Favqulodda vaziyatlarga	Qurilish boshlanishidan oldin (2025 yil 3-chorak	"Masdar" ning jamoatchilik bilan	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va harakat

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
	tayyorgarlik ko'rish va harakat qilish rejasи bo'yicha yuzma-yuz uchrashuvlar/telefon qo'ng'iroqlari	tayyorgarlik ko'rish va harakat qilish rejasiga tegishli asosiy manfaatdor tomonlar	bo'lishi kutilmoqda) va qurilish vaqtida taxminan har chorakda bir marta.	aloqalar bo'yicha mutaxassisi	qilish rejasи va uni amalga oshirish bo'yicha tafsilotlarni muhokama qilish
18	Jamoatchilik yig'ilishlari, JAZT bo'yicha yuzma-yuz uchrashuvlar va/yoki fokus-guruh uchrashuvlari	TH mahalla a'zolari	Qurilish boshlanishidan oldin, qurilish vaqtida taxminan har chorakda bir marta va foydalanish bosqichida davrida yiliga bir marta.	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi malakali mutaxassisni aniqlash uchun	Ushbu uchrashuvlar qo'yidagi masalalar bo'yicha o'tkaziladi (lekin ular bilan cheklanmagan holda): <ul style="list-style-type: none"> • JAZT, JEZ va ZT • OIV/OITS va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallar • Xodimlarning xulq-atvor qoidalari • JAZT shikoyatlarini qanday topshirish • Inson huquqlari Erkaklar va ayollar uchun alohida uchrashuvlar o'tkaziladi.
19	Ma'lumot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish.	Barcha manfaatdor tomonlar	Qurilishning bosqichlarida asosiy	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	<ul style="list-style-type: none"> • Qurilish boshlanishi, asbob- uskunalarini tashish tufayli yo'llarning yopilishi, monitoring natijalari va ASKlar, Loyihaning asosiy yutuqlari (masalan, HEUL bo'yicha yutuqlar yoki qurilish bosqichlariga erishish va boshqalar) to'g'risida ma'lumot.
20	Ma'lumotlarning oshkor etilishi – telefon, telegram yoki shaxsan	Barcha LTOSH	Qurilish jarayonidagi asosiy bosqichlarda, ammo oyda kamida bir marotaba	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Ma'lumot turi va LTOSh (loyiha ta'siridagi shaxslar) ga qarab ma'lumotlar virtual yoki shaxsan taqdim etilishi mumkin. Masalan, turmush tarzini tiklash faoliyatlarini amalga oshirish, monitoring

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
					natijalari va asosiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumot berish, loyihaning muhim yutuqlari (masalan, qurilish bosqichlariga erishish va hokazo).
21	Jamoatchilik yig'ilishlari	Mahalla raislari va mahalliy aholi a'zolari	Qurilishning muhim bosqichlarida va har oyda kamida bir marta	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Qurilish boshlanishi, asbob-uskunalarini tashish tufayli yo'llarning yopilishi, monitoring natijalari va ASKlar (MTHR hisoboti, Insosn huquqlariga ta'sirini baholash va Gender ta'sirini baholash), Loyihaning asosiy yutuqlari (masalan, HEUL bo'yicha yutuqlar yoki qurilish bosqichlariga erishish va boshqalar) to'g'risida ma'lumot.
22	Maqsadli uchrashuvlar	Mahalliy aholi a'zolari va Loyiha ta'siriga uchragan odamlar	Qurilish vaqtida kamida har chorakda	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Odamlar oqimi bilan bog'liq har qanday ta'sirlarni, o'tlar va go'ngni yig'ish va qurilishning boshqa mumkin bo'lgan ta'sirini aniqlash bo'yicha muhokamalar.
23	Har choraklik monitoring – LTOUX va Mahalla bilan yuzma-yuz uchrashuvlar	Barcha LTOUX va Mahalla/mahalliy hokimiyat rahbarlari	Har chorakda	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	TTTR bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni tekshirish va har choraklik monitoring hisobotini tayyorlash maqsadida maslahatlashuvlar va so'rovlar o'tkaziladi.
24	Bo'lajak maslahatlashuv haqida xabardor qilish – telefon qo'ng'iroq'i yoki Telegram kanali orqali	Belgilangan xo'jalik boshliqlari/aloqa qilish uchun shaslar	Kompensatsiya to'lovidan ikki hafta oldin	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Ushbu uchrashuv LTOSni bo'lajak kompensatsiya to'lovlariga tayyorlash, ularning uchrashuvda ishtirok eta olishini ta'minlash va to'lov qanday amalga oshirilishi haqida tegishli ma'lumot berish uchun o'tkaziladi.

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
25	Kompensatsiya to'lovlari - yuzma-yuz uchrashuvlar	Belgilangan xonodon rahbarlari va kamida bitta ayol oila a'zosi	2026 yil 1- va 2-choraklari	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Bu sana LTOShlarga kompensatsiya belgilangan xonodon rahbari orqali to'lanadigan kundir. Kamida bitta ayol vakilning ishtiroti talab etiladi.
26	O'rta muddatli audit - yuzma-yuz maslahatlashuvlar	Barcha LTOUX va Mahalla/mahalliy hokimiyat rahbarlari	Turmush tarzini tiklash jarayonining amalga oshirilishining o'rtacha bosqichida (2026-yilning 1-choragida kutilmoqda)	Tashqi maslahatchi	TTTR bo'yicha asosiy ko'satkichlarga riosa qilinishini tekshirish va har choraklik monitoring hisobotini tayyorlash maqsadida maslahatlashuvlar va so'rovlar o'tkaziladi.
27	Foydalanish bosqichi boshlanishidan oldin ma'lumot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish.	Barcha manfaatdor tomonlar	Foydalanish bosqichi boshlanishidan oldin (2026 yilning 1-choragida kutilmoqda)	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Foydalanish bosqichi boshlanishi va Loyihaning muddatlaridan nimani kutish mumkinligi haqida ma'lumot.
28	Foydalanish bosqichi boshlanishidan oldin jamoatchilik yig'ilishlari	Barcha manfaatdor tomonlar, ayniqsa, mahalla raislari, va mahalliy aholi a'zolariga alohida e'tibor qaratiladi.	Foydalanish bosqichi boshlanishidan oldin (2026 yilning 1-choragida kutilmoqda)	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Foydalanish bosqichiga o'tish natijasida tegishli hujjatlarni yangilash. Nima kutish kerakligi va Loyihaning muddatları haqida ma'lumot, Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini qayta oshkor qilish. Asosiy ko'satkichlarni (MTHR, TTTR, Inson huquqlariga ta'sirni baholash (IHTB), Genderga ta'sirni baholash (GTB) ko'satkichlari) tekshirish va monitoring qilish.
29	Yuzma-yuz uchrashuvlar, fokus-	Ijtimoiy ehtiyojmand guruhlar	Foydalanish bosqichi boshlanishidan oldin	"Masdar" ning jamoatchilik bilan	Foydalanish bosqichiga o'tish natijasida tegishli hujjatlarni yangilash. Nima kutish

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
	guruhlar va/yoki telefon orqali suhbatlar (muloqotning afzal usuli sifatida belgilangan)		(2026 yilning 1-choragida kutilmoqda)	aloqalar bo'yicha mutaxassisi	kerakligi va Loyihaning muddatlari haqida ma'lumot, Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini qayta oshkor qilish. Asosiy ko'rsatkichlarni (MTHR, TTTR, Inson huquqlariga ta'sirni baholash (IHTB), Genderga ta'sirni baholash (GTB) ko'rsatkichlari) tekshirish va monitoring qilish.
30	Yakuniy audit – yuzma-yuz maslahatlashuvlar	Barcha LTOUX va Mahalla/mahalliy hokimiyat rahbarlari	Turmush tarzini tiklash faoliyatları yakunlangandan so'ng (2028-yilda yakunlanishi kutilmoqda)	Tashqi maslahatchi	ASKlarni tekshirish va choraklik monitoring hisobotini shakllantirish uchun maslahatlashuvlar va so'rovlar o'tkaziladi.
31	Turmush tarzini tiklash faoliyatining yakunlangani haqida ma'lumot - jamoat yig'inlari/yuzma-yuz maslahatlashuvlar orqali	Barcha manfaatdor tomonlar, ayniqsa, mahalla raislari, va mahalliy aholi a'zolariga alohida e'tibor qaratiladi.	Faoliyatlar yakunlangandan va yakuniy audit tugallangandan so'ng (2028-yilda yakunlanishi kutilmoqda)	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Yakuniy audit natijalari e'lon qilinadi, bunda LTOShga turmush tarzini tiklash faoliyatları endi yakunlanganligi va ShKM qayta e'lon qilinadi.
32	Turmush tarzini tiklash faoliyatining yakunlangani haqida ma'lumot - zaif LTOUX tomonidan belgilangan tarzda	Zaif guruhlar	Faoliyatlar yakunlangandan va yakuniy audit tugallangandan so'ng (2028-yilda yakunlanishi kutilmoqda)	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Yuqoridagidek, ammo LTOUX bilan maslahatlashuvlar orqali belgilangan aniq joylarda yoki aniq usullar bilan amalga oshiriladi.
33	Ma'lumot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot	Barcha manfaatdor tomonlar	Foydalanishning muhim bosqichlarida yoki kamida har yili	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Loyihaning asosiy yutuqlari (masalan, HEUL yutuqlari yoki foydalanish bosqichidagi yutuqlar) kabi ma'lumotlar.

T/r	Hamkorlik qilish tadbirining turi	Manfaatdor tomonlar guruhi	Rejalashtirilgan sana	Mas'ul tashkilot	Izohlar
	vositalari orqali e'lon qilish va yillik hisobot				
34	Jamoatchilik yig'ilishlari	Barcha manfaatdor tomonlar, ayniqsa, mahalla raislari va mahalliy aholi a'zolariga alohida e'tibor qaratiladi.	Foydalanishning muhim bosqichlarida yoki kamida har yili	"Masdar" ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi	Loyihaga yoki uning xodimlariga kiritilgan har qanday o'zgarishlar haqida ma'lumot berish, monitoring natijalari va ASKlarni (MTHR, TTTR, IHTB, (GTB) ko'rsatkichlari) oshkor qilish, Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini qayta oshkor qilish.

6 Vazifalar va amalga oshirish

6.1 Qisqacha ma'lumot

MTHR va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmining samarali ishlashini ta'minlash uchun mas'ul tomonlarni aniqlash va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Loyihaga qo'shimcha mas'ul tomonlar (masalan, MXQ pudratchisi) qo'shilgan taqdirda ushbu bo'lim yangilanadi. Hozirda uchta asosiy tomon quyidagilardir:

- EITB bo'yicha maslahatchilar jamoasi – "Juru Ltd." (Juru);
- Loyiha kompaniyasi – "Masdar"; va
- Kreditorlar – YeTTB, OTB va XMK ishlash standartlari va/yoki Ekvator Prinsiplariga amal qiluvchi kreditorlar.

Har bir asosiy tomon uchun vazifalar quyidagi bo'limlarda muhokama qilinadi.

6.2 Asosiy javobgar tomonlar

6.2.1 "Juru Ltd."

"Juru" Loyihaning Ish hajmini aniqlash va EITBni tayyorlash jarayonida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun javobgar bo'ladi. "Juru"ning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Ish hajmini aniqlash hisoboti haqida habar berish uchun yuqori darajadagi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarini o'tkazish (2023 yil 11-12-sentyabrda o'tkazilgan).
- EITBni tayyorlash va oshkor qilish uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarini va maqsadli uchrashuvlarni o'tkazish, va ma'lumotlarni oshkor qilish.
- I toifadagi loyihibar uchun O'zbekiston talablariga rioya qilgan holda jamoatchilik eshituvlarni o'tkazish (2024 yil 30-31-iyulda o'tkazilgan).
- Tegishli manfaatdor tomonlarga shikoyat qilish mexanizmi, shu jumladan, aloqa ma'lumotlari haqida ma'lumotni taqdim etish.
- EITB bo'yicha jamoatchilikka ma'lumotni oshkor etish bo'yicha yig'ilishlar (jumladan, jamoat joylarida notexnik hisobotni oshkor qilish)
- TTTR bilan bogliq manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlari.
- Zarur bo'lganda, "Masdar" bilan kelishilgan holda shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali olingan shikoyatlarni ro'yxatga olish, monitoring qilish va ularga javob berishda yordam berish.
- EITB bosqichi tugaganidan so'ng, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va shikoyatlarni hal qilish bo'yicha talablarini "Masdar"ga o'tkazish.

6.2.2 "Masdar"

"Masdar" EITB bosqichi tugaganidan so'ng manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish talablarini o'z zimmasiga oladi. U Loyihaning foydalanish davri davomida manfaatdor tomonlar ishtiroki bilan hamkorlik qilish uchun to'liq javobgar bo'ladi. "Masdar"ning vazifalari quyida keltirilgan:

- "Masdar" veb-saytida ushbu MTHRni oshkor qilish.
- Tegishli hollarda, EITB davomida va kelgusida "Juru" tomonidan tashkil etilgan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish talablarida ishtirok etish.
- EITB bosqichida va keyingi bosqichlarda shikoyatlarni tekshirish va yopishda "Juru"ga ko'maklashish.
- Qurilish va foydalanish bosqichlari uchun ushbu MTHRni yangilash.
- EITB bosqichidan keyingi barcha bosqichlarda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish faoliyatini o'z zimmasiga olish va amalga oshirish.
- MTHR ga muvofiq manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun malakali xodimlarni tayinlash (masalan, Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejer, JABM va shikoyatlarni hal qilish uchun mas'ul shaxs - bu bitta shaxs bo'lishi mumkin).
- JAQT bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasini (ShKQ) tashkil etish - bu qo'mita tarkibida Loyihaga jalb qilingan maxsus gender masalalari bo'yicha mutaxassis yoki JAQT shikoyati bildirliganda yordam berish uchun jalb qilinadigan uchinchi tomon mutaxassisi bo'lishi kerak.
- Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi talablariga rioya qilgan holda (ushbu MTHRning 7-bo'limga kiritilgan) Loyihaning EITB bosqichidan so'ng, shikoyatlarni qabul qilish, ularga javob berish va yopishni o'z zimmasiga olish.

6.2.2.1 Masdarning Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejeri, JABM va shikoyatlar bo'yicha mas'ul shaxs

Masdar manfaatdor tomonlarni jalb qilish va turmush tarzini tiklash faoliyatlarini boshqarish va nazorat qilish uchun Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejerni, shuningdek, EITB bosqichi yakunlangandan so'ng manfaatdor tomonlarni jalb qilish faoliyatlarini amalga oshirish uchun JABMni tayinlaydi. Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejer ushbu Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasini (MTHR) amalga oshirishni boshqaradi va loyiha ta'sir ostidagi aholi uchun asosiy mas'ul shaxs bo'ladi. JABM esa loyiha va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi asosiy aloqa nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, shikoyatlarni yopish uchun mas'ul bo'lgan Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha menejer ham tayinlanadi (bu shaxs JABM bo'lishi yoki bo'lmagligi mumkin).

6.2.3 MXQ pudratchisi

Loyiha manfaatdor tomonlarini jalg qilish bo'yicha asosiy faoliyatlar Loyiha kompaniyasi va uning jamoasi tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Biroq, ba'zi holatlarda MXQ pudratchisi manfaatdor tomonlarga uzlusiz va bir xil axborotni yetkazilishini ta'minlash uchun Loyiha kompaniyasi bilan hamkorlik qilishi zarur bo'ladi. Bunga mahalliy hamjamiyatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan texnik masalalar (og'ir materiallarni tashish, haddan tashqari shovqin yoki chang xavfi bo'lgan faoliyatlar va hokazo) yoki ijtimoiy mas'uliyat doirasidagi faoliyatlarni amalga oshirish kabi holatlar kiradi. Shuningdek, bu JABMga mahalliy hamjamiyatlar shikoyatlarini hal qilishda yordam berishni ham o'z ichiga olishi mumkin.

JABM MXQ pudratchisi orqali yollanadi. Ular barcha xabarlar mosligini ta'minlash va kerak bo'lganda shikoyatlarni boshqarishni qo'llab-quvvatlash uchun Loyiha kompaniyasining JABMi bilan yaqindan ishlaydi (quyida 7.4.3-bo'linda muhokama qilingan).

6.2.4 Loyiha kreditorlari

Loyiha kreditorlarining o'zlarining kredit berish shartlariga asosan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlariga qo'yiladigan maxsus talablari bo'ladi. Ularning, shuningdek, kredit berishdan oldin loyiha bajarishi kerak bo'lgan oshkor qilish talablari bo'ladi. Aniqlanganidan so'ng, kreditorlar ushbu MTHR va EITBni o'z veb-saytlarida oshkor qiladilar va o'zlarining ichki mexanizmlari orqali MTHRning bajarilishini nazorat qiladilar.

7 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

7.1 Qisqacha ma'lumot

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi manfaatdor tomonlar bilan aloqani davom ettirish, ya'ni ularning tashvishlaridan xabardor bo'lish va kreditorlar talablariga muvofiq ularning so'rovlariiga javob berishga qaratilgan. Shikoyatlarni yaxshi ko'rib chiqish mexanizmi muammolarni aniqlashi va ular kuchayishidan oldin ularni hal qilishi mumkin. Manfaatdor tomonlar shikoyat mexanizmi loyiha qurilish bosqichida amalga oshiriladigan Sog'liq, Xavfsizlik, Ijtimoiy va Atrof-muhitni boshqaruv tizimining bir qismi hisoblanadi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi barcha jamoatchilik maslahatlashuvlari va fokus-guruh muhokamalari davomida oshkor qilingan va oshkor qilinishi davom ettiriladi. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bo'yicha bayonot Loyihaning notexnik hisobotga (NTH) kiritiladi va shikoyatlar bo'yicha aloqa ma'lumotlari manfaatdor tomonlarga oshkor qilish uchun barcha hujjalalar/broshyuralar va broshuralarga kiritiladi. NTH va broshyura/varaqalar o'zbek va ingliz tillarida tarqatiladi. Ushbu shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi Ijtimoiy va rivojlanish masalalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tekshiruv hisoboti tayyorlash jarayonida ishlab chiqilgan har qanday mexanizmdan ustun bo'ladi.

EITB bosqichida "Juru" shikoyatlarni ko'rib chiqish vazifasini bajaradi va Loyiha kompaniyasining yordami bilan shikoyatlarni qabul qilish uchun javobgar bo'ladi. EITB bosqichidan so'ng, Shikoyatlarni ko'rib chiqish vazifikasi butunlay Loyiha kompaniyasining zimmasida bo'ladi.

7.2 Shikoyatlarni topshirish va hal qilish

Shikoyat - bu loyiha faoliyati natijasida tirikchiligi, sog'lig'i va xavfsizligi, madaniy me'yirlari va merosiga salbiy ta'sirga uchragan (zarar ko'rgan) deb hisoblangan shaxs yoki guruh tomonidan bildirilgan da'vo bo'lib, u samarali hal etilmagan taqdirda, foydalanish bosqichi va da'vegar(lar)ning tirikchilik manbalari, farovonligi yoki hayot sifati uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Shikoyatlarni yig'ilishlar va Loyiha ob'ektiga tashriflar davomida, darvoza oldida to'g'ridan-to'g'ri qo'rirqhilarga, telefon qo'ng'iroqlari orqali va yozma shaklda (elektron pochta orqali matnli xabarlar, mobil ilovalar, yozma so'rovlar va boshqalar) berilishi mumkin. Shikoyatlar qutilari va shikoyat blankalari quyidagi joylarga ham o'rnatiladi va blankalar o'zbek tilida taqdim etiladi.:

- G'uzor va Qamashi tumanlari hokimliklari
- Eng yaqin mahallalar idoralari (Batosh, Oynako'l, Xalqobod, Yangiobod)
- G'uzor 500 kV podstansiyasi
- Loyiha maydonidan tashqarida.

Ushbu qutilar qurilish vaqtida kamida haftada bir marta tekshiriladi. Shikoyatni har qanday aloqa vositasi orqali qabul qilgandan so'ng, Shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha menejer/Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi barcha bildirilgan tashvishlar/so'rovlar tekshirilishi va ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun shikoyatlarni shikoyatlar jurnaliga kiritadi.

Shikoyat qabul qilinganidan va ro'yxatga olinganidan so'ng, shikoyatchi so'rovga qarab tekshirish taxminiy muddatni va javob olishning dastlabki sana ko'rsatilgan yozma xabarnoma oladi.

"Juru" har bir qabul qilingan shikoyatni kuzatib borish uchun shikoyat shakli va shikoyatlar jurnalini ishlab chiqdi. Shikoyat shakli B ilovasida, shikoyatlar jurnali esa C ilovasida keltirilgan.

EITB maslahatchi guruhining a'zolari Loyihaning EITB bosqichida shikoyatlarni qabul qilish va monitoring qilish uchun javobgar bo'ladi. Shikoyat shakli aniqlangan manfaatdor tomonlarning joylashuvi, ma'qul deb ko'rilgan til va muloqot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi. Javoblar shikoyatchiga qulay tilda, ya'ni o'zbek yoki rus tilida beriladi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali shikoyatni topshirish shikoyatchiga milliy huquqiy tizim orqali murojaat qilishiga hech qanday to'sqinlik qilmaydi va agar shikoyatchi o'z shikoyatiga olgan javobidan qoniqmasa, bunday yo'l tutishi mumkin. Bundan tashqari, har bir mahallada JAZT holatlari bilan shug'ullanuvchi gender masalalari bo'yicha vakili ishlaydi. Loyiha boshidanoq Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis ushbu vakillar bilan Loyihaning Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi haqida xabardor qilish uchun hamkorlik qiladi va ularni Loyiha bilan bog'liq holda ro'y berishi mumkin bo'lgan JAZT shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun Loyiha protokollari bilan tanishtiradi (quyida 7.8 bo'limga qarang). Mahallaning gender masalalari bo'yicha vakili har qanday shikoyatlarga (Loyihadagi shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali) jabrlanganlarning ehtiyojlariga qaratilgan javobni taqdim etishda, shu jumladan jabrlanganlarni tegishli qo'llab-quvvatlash xizmatlariga (odil sudlov, sog'liqni saqlash, huquqiy) yuborish uchun Loyihaga yordam ko'rsatadi.

7.3 Aloqa ma'lumotlari

EITB bosqichida va qurilish-oldi bosqichida aholining shikoyatlarini qabul qilish uchun mas'ul bo'lган vakillarning aloqa ma'lumotlari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan:

6-jadval: Aloqa ma'lumotlari

Kompaniya	2.3 Aloqa ma'lumotlari
"Juru Energy" Viktoriya Filatova – Atrof-muhit bo'yicha katta maslahatchi	Email: o.khegayv.filatova@juru.org Telefon: +998 71 202 044090 941 43 71
"Juru Energy" Zarina Gafurova – Ijtimoiy maslahatchi	Email: z.gafurova@juru.org Telefon: +998 90 935 74 48
Loyiha kompaniyasining Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi tasdiqlanadi	Email: Telefon:
MXQ pudratchisi aloqa ma'lumotlari tasdiqlanadi	Email: Telephone:
Loyiha kompaniyasi: Gross Plaza biznes markazi, 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 21A.	
Telefon raqami: +998978686860	

Shikoyatlarni Mahalla idorasining tegishli bo'limlari orqali ham berish mumkin. Loyihaning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisi ushbu yo'l bilan kelib tushgan shikoyatlarni qabul qilish va kuzatib borish uchun mahallalar bilan muntazam ravishda (qurilish vaqtida kamida har hafta) maslahatlashadi.

JAZT bo'yicha shikoyatlar ham JAZT bo'yicha Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasiga (ShKQ) bevosita yo'naltirilishi mumkin (7.8-bo'limga qarang). Ushbu qo'mita tashkil etilgandan so'ng va qurilish ishlari boshlanishidan oldin, tegishli aloqa ma'lumotlari taqdim etiladi. Bu aloqa ma'lumotlari loyiha bilan bog'liq barcha axborot kanallarida yangilanadi: jumladan, ushbu Jamoatchilik bilan aloqa rejasi (JABR), loyiha bukletlari, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlarda.

O'zbekistonda, shuningdek, qonun bilan belgilangan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan loyiha ta'siri ostidagi shaxslar (LTOSh) ham foydalanishlari mumkin. Bunday shikoyatlarni tekshirish jarayonida Loyiha kompaniyasi xabardor qilinadi va shikoyatni yopish bo'yicha harakatlarga qo'shilishi, qo'llab-quvvatlashi talab etiladi.

7.4 Shikoyatlar bo'yicha vazifalar²

7.4.1 "Juru"

Loyihaning Ish hajmini aniqlash va EITB bosqichida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish Juru tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu sababli, Juru mahalliy jamoalridan manfaatdor tomonlar, shu jumladan, Loyiha ta'siriga uchragan odamlar uchun shikoyatlarini bilidirishlari uchun asosiy koordinator vazifasini bajaradi. Bildirilgan har qanday shikoyatlar shikoyat shakli va shikoyatlar jurnalida qayd etiladi. Loyiha kompaniyasi ("Masdar") shikoyatlarni hal qilishda yordam beradi va "Juru" va/yoki "Masdar" shikoyatlarga javob beradi.

7.4.2 Loyiha kompaniyasi

Loyiha kompaniyasi EITB bosqichi tugaganidan so'ng, ushbu MTHRda talab qilinadigan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarni amalga oshirish uchun munosib xodimlarni tayinlaydi. Ushbu xodimlar tayinlanganidan so'ng ishga kirishib "Juru"ga ushbu tadbirlarda yordam berishadi. Loyiha kompaniyasi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisni tayinlashi kutilmoqda.

7.4.2.1 Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis

Bu shaxs Loyiha va mahalliy aholi o'rtasidagi asosiy muloqot qilinadigan shaxs bo'ladi. Mumkin bo'lган hollarda, o'sha shaxs va foydalanish bosqichlarida mahalliy aholi bilan izchillik va yaxshi munosabatlarni olib borish uchun javobgar bo'ladi.

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis barcha tadbirlarda shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini, shu jumladan barcha oshkor qilinadigan ma'lumotlar bo'yicha aloqa ma'lumotlarini oshkor qilish uchun javobgar bo'ladi. Ular o'z ishlari davomida ularga bildirilgan har qanday shikoyatlarni qayd qiladilar.

Shikoyat qutilarini muntazam tekshirib turish va mahalla idoralari bilan maslahatlashishga mas'uldirlar. Qabul qilingan barcha shikoyatlarni qayd qiladi va ularning yopilishini kuzatib boradi. JABM har bir shikoyatni ko'rib chiqish uchun tegishli shaxsni aniqlashga mas'uldir va zarur hollarda, bu haqda shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasini xabardor qiladi.

7.4.2.2 JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi

Loyiha xodimlaridan (JAZT bo'yicha aniq tajribaga ega) yoki katta ehtimol uchinchi tomonidan tashkil topgan JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi loyihada yuzaga kelishi mumkin bo'lган Loyiha bilan bog'liq har qanday JAZT shikoyatlarga javob berishi uchun safarbar qilinadi. JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasining a'zolari JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasining maxfiylik majburiyatlarini bajarishlari uchun Loyiha bilan bog'liq shikoyatlar haqida to'liq ma'lumot va tafsilotlarga ega bo'lган yagona shaxslar bo'ladi. JAZT bo'yicha ShKQ tarkibi mobilizatsiyadan avval belgilanadi va u jins masalalari bo'yicha mutaxassis(lar)dan iborat bo'ladi. Maxfiylikni ta'minlash maqsadida ushbu ShKQ tarkibiga faqat uchinchi tomon tashkilotining vakillari kiritiladi. Uchinchi tomon tashkilotidan ShKQga 2 dan 5 nafargacha a'zo tayinlanishi mumkin.

MXQ Pudratchisi

MXQ pudratchisi tomonidan ham Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis tayinlanadi. U barcha xabarlar bir biriga mos kelishini ta'minlash uchun Loyiha kompaniyasining jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis bilan yaqindan hamkorlik qiladi. MXQ pudratchisi o'zining subpudratchilarini kuzatib borish va tushgan har qanday shikoyatlar haqida "Masdar"ga xabar berish uchun javobgar bo'ladi. MXQ pudratchisi hisobot berish majburiyatları pudratchilar va subpudratchilar zimmasiga yuklanganligini ta'minlaydi.

MXQ Pudratchisi o'z xodimlari va subpudratchilariga JAZT bo'yicha ShKQning roli hamda ushbu organ tomonidan olib boriladigan faoliyatga hamkorlik qilish bo'yicha Loyiha talablari haqida ma'lumot berishi shart. MXQ, shuningdek, JAZT bo'yicha ShKQ tomonidan har qanday JAZT shikoyati bo'yicha chiqarilgan xulosalarni amalga oshirishi lozim.

7.4.3 Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi (JAZTdan tashqari)

Agar aholining (yoki ishchining) shikoyatini Loyiha darajasida hal qilishning iloji bo'lmasa yoki shikoyatchi berilgan javobdan mamnun bo'lmasa, muammoni hal qilish uchun Aholi shikoyatlarini ko'rib chiqish komissiyasi chaqiriladi. Aholi shikoyatlarini ko'rib chiqish qo'mitasi Shikoyatlar bo'yicha menejer tomonidan chaqiriladi va uning tarkibiga quydagilar kiradi:

- Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis
- Loyiha maydonining menejeri (zarur hollarda)

- Mahalliy mahalla raisi
- Mahalliy mahalladan erkak va ayol vakillar.
- Mahalliy hokimiyat organlari (bildirilgan shikoyat bilan bog'liq).

7.4.4 O'qitish

Loyiha kompaniyasi, Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejer orqali, Loyiha kompaniyasi xodimlari va MXQ pudratchisi (hamda zarur bo'lsa, boshqa pudratchilar va tashqi tomonlar) uchun quyidagi mavzular bo'yicha tegishli ma'lumot va o'quv mashg'ulotlarini taqdim etishga mas'ul bo'ladi:

- Aholi shikoyatlari mexanizmi: uning qanday ishlashi, kim mas'ul tomon ekanligi va shikoyatni qanday taqdim etish kerakligi,
- JAZTga oid SHKM haqida ma'lumot: bu Loyiha xodimlari (JAZT bo'yicha maxsus tajribaga ega) yoki uchinchi tomon tomonidan taqdim etiladi,
- Barcha shikoyatlar (hatto joyida hal etilgan taqdirda ham) ro'yxatga olish uchun Loyiha kompaniyasiga xabar berilishi kerakligi.⁸

Loyiha va jamoa bilan ishlovchi xodimlar, jumladan qo'riqchilar, rahbariyat xodimlari, kadrlar bo'limi xodimlari uchun jamoatchilik va JAZT shikoyatlarini qanday qabul qilish, ularni qanday qayd etish hamda mas'ul xodimlarga – ya'ni, Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisga (JABM) yoki JAZT bo'yicha ShKQga (agar JAZT shikoyati bo'lsa) yuborish bo'yicha maxsus tayyorgarlik o'tkaziladi.

Jamoatchilik va JAZT bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi haqida doimiy o'quv mashg'ulotlari barcha ishchilarga qurilish maydonchasiga kirish instruktaji vaqtida, shuningdek, zaruratga ko'ra muntazam yangilanish darslari doirasida o'tkaziladi. MXQ Pudratchisi o'z xodimlariga ushbu shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bo'yicha treninglar o'tkazishga mas'ul bo'ladi. MXQ Pudratchisi ushbu trening majburiyatları barcha pudratchi va subpudratchilarga yetkazilishini ta'minlashi lozim.

7.5 Maxfiylik va anonimlik

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmida ma'lumotlarning, shu jumladan, barcha shikoyatchilarning shaxsiy ma'lumotlarining qat'iy maxfiyligi ta'minlanadi. Shikoyatlar haqida xabar berilishi mumkin bo'lsa-da, shikoyatchilarning ismlari va shaxsiy ma'lumotlari ommaga oshkor qilinmaydi. Shikoyatni qabul qilish/ro'yxatga olish bosqichida shikoyatchi anonim tarzda shikoyat yuborishi mumkinligi haqida xabardor qilinadi. Agar shikoyatlar anonim tarzda berilgan bo'lsa, ularning ba'zilariga javob berilmasligi mumkinligi haqida shikoyatchilarga xabar beriladi.

⁸ Ishchilar shikoyatlarini bildirishlari uchun alohida ishchi shikoyat Ishchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi ham tashkil etilib, EPC Pudratchisi tomonidan boshqariladi.

JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasiga nisbatan qo'shimcha maxfiylik choralar qo'llaniladi, va bunda faqat JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi a'zosi ish bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'ladi va bular 7.8 va 8.4-bo'limlarda keltirilgan.

7.6 Shikoyatlarni ko'rib chiqish variantlari va ularga javob berish

Aholi shikoyatlarini ko'rib chiqishda qo'llaniladigan yondashuvlar shikoyatlarning turi, paydo bo'lish chastotasi va soniga bog'liq bo'ladi. Shikoyatlarni hal qilinganligi to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda rasmiy ravishda xabar beriladi. Agar shikoyatchi yozma javob ololmasa, shikoyatchi bilan telefon orqali bog'lanishadi va u shikoyat natijalari haqida xabardor qilinadi. 7-jadvalda aholi shikoyatlariga javob berish muddatlari ko'rsatilgan⁹.

7-jadval: Shikoyatni ko'rib chiqish muddatlari - aholi shikoyatlari

Bosqich	Muddat
Shikoyatni qabul qilish va ro'yxatga olish	0 kun
Ariza beruvchiga shikoyat qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqnomasi taqdim etish	Shikoyat berilganidan keyin 3 kundan oshmagan holda
Qabul qilingan shikoyatni baholash/tekshirish	Shikoyat berilganidan keyin 10 ish kunidan oshmagan holda
Shikoyatchiga javob berish	Baholash tugaganidan keyin maksimal uch kundan oshmagan holda
Agar shikoyatchi ilgari berilgan javobdan qoniqmasa, shikoyatni qayta baholash	Shikoyatchi tomonidan norozilik to'g'risida xabar berilganidan keyin 10 ish kunidan oshmagan holda

Murakkab shikoyatlar yoki boshqa omillar tekshiruv vaqtini uzaytirsa, shikoyatchiga bu kechikish haqida xabar beriladi, javob berish uchun yangilangan taxminiy muddat va unga muntazam ravishda yangilanishlar taqdim etiladi. Agar shikoyatni Loyiha darajasida hal qilib bo'lmasa, uni shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasiga yuboradi.

7.7 Shikoyatlarni ro'yxatga olish

Har bir shikoyatni kuzatish va ro'yxatga olish shikoyatlar jurnalida qayd etiladi. Har bir shikoyatga noyob identifikasiya raqami beriladi, so'ngra ro'yxatga olish tafsilotlari va uni hal qilish va yopish vaqtini ko'rsatiladi. Loyiha shikoyatlar jurnalining nusxasi C-ilovasida ko'rsatilgan. Shikoyatlarni boshqarish jarayonining umumiy ko'rinishi 10-rasmda keltirilgan. Ushbu shakl JAZT bo'yicha shikoyatlarni ro'yxatga olish uchun ham qo'llaniladi (bu jarayon JAZT ShKQ tomonidan yuritiladi), biroq batafsil ma'lumotga faqat JAZT ShKQ

⁹ JAZT bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati 7.8-bo'limda keltirilgan.

to’liq kirish huquqiga ega bo’ladi. Maxfiy ma’lumotlar olib tashlangan qisqartirilgan nusxasi boshqa manfaatdor tomonlarga ham tarqatilishi mumkin.

7.8 JAZT shikoyatlari

JAZT shikoyatlarini ko’rib chiqish mexanizmi yuqorida bayon qilingan Aholining shikoyatlarini ko’rib chiqish mexanizmi (yuqorida aytib o’tilgan) bosqichlariga o’xshash, ammo quyidagi muhim farqlarga ega. Har doim, jarayonning har bir bosqichida omon qolgan shaxs (yoki uning vakili) tomonidan xabardor rozilik olinadi. Qurilish bosqichi yakunlanishidan oldin, ochiq qolgan JAZT bo'yicha ishlar ko'rib chiqiladi va ularning qanday hal etilishi hamda omon qolganlarga qanday yordam ko'rsatilishi aniqlanadi. JAZT bo'yicha shikoyatlar quyidagi (lekin faqat shular bilan cheklanmagan) usullar orqali bildirilishi mumkin. Loyihaning boshlanishida va qurilishdan avval barcha Hokimiyat idoralari, jamoat ofislari hamda boshqa ehtimoliy shikoyat qabul qiluvchilarga JAZT va jamoaviy shikoyatlar mexanizmi haqida tushuntirish ishlari olib boriladi va agar ular jamoaviy yoki JAZT bo'yicha shikoyat qabul qilsa, qanday yo'l tutish kerakligi bo'yicha yo'rinqoma beriladi. Bu ishlarni JABM yoki uchinchi tomon bo'lgan JAZT ShKQning vazifasi sifatida amalga oshirish mumkin.

- G'uzor va Qamashi tumanlari hokimliklari (JAZT shikoyatlari va gender masalalarini boshqaradigan bo'lim)¹⁰
- Eng yaqin joylashgan mahallalar idoralari (Batosh, Oynako'l, Xalqobod, Yangiobod) (har qanday bo'lim)
- G'uzor 500 kV podstansiyasi (xavfsizlik jamoasi, boshqaruv jamoasi)
- Loyiha darvozasidan tashqarida (xavfsizlik jamoasi, boshqaruv jamoasi)
- Mahallaning gender masalalari bo'yicha vakili (qurilish ishlari boshlanishidan oldin aniq shaxs belgilanadi va manfaatdor tomonlar ro'yxatiga qo'shiladi)
- Ishchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi. (Kadrlar bo'limlari, ish joyida o'rnatilgan shikoyatlar qutilari – Ishchilar shikoyat mexanizmiga muvofiq)
- JAZT ShKQ (aloqa nuqtasi JAZT ShKQ tashkil etilgandan so'ng belgilanadi; bu maxfiy qo'ng'iroq yoki SMS yuborish uchun mo'ljallangan “ishonch telefoni” raqami yoki faqat JAZT ShKQ a'zolari kira oladigan maxsus elektron pochta manzili bo'lishi mumkin). Bu ishlar qurilish boshlanishidan va obyektga har qanday safarbarlikdan oldin amalga oshiriladi.
- Loyiha kompaniyasi / Pudratchi rahbariyati (har qanday shikoyatni JABMga va oxirida JAZT ShKQga yuborish bo'yicha o'qitilgan bo'lishi kerak).

¹⁰ All Khokimiyat Offices and community offices will be sensitised on the JAZT and community GM and what to do if they receive a community or JAZT grievance. However, there is one department at each municipality that has been specifically designated to manage such complaints.

Shikoyat qanday tarzda berilishidan qat'i nazar (loyiha kompaniyasi ishchilar yoki pudratchi/subpudratchi ishchilar bo'lishidan qat'i nazar), barcha shikoyatlar dastlab Loyiha Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis (JABM)ga yuboriladi. JABM esa JAZT (Gender asosidagi zo'ravonlik va xunuk muomala) bo'yicha Shikoyatlarni Ko'rib Chiqish Qo'mitasini (ShKQ) chaqiradi. Bu qo'mita, odatda, maxfiylik va xolislikni ta'minlash uchun uchinchi tomon maslahatchi tashkiloti tomonidan shakllantiriladi. JAZT ShKQ tarkibi safarbarlik vaqtida yakuniy ko'rinishga keltiriladi va JAZT masalalari bilan ishslash bo'yicha maxsus malakaga ega bo'lgan jins va JAZT mutaxassislari (ushbu malaka to'liq stavkada topilishi qiyin bo'lishi mumkin)ni o'z ichiga oladi. JABMning salohiyatiga qarab, u shikoyat topshirilgach, maxfiylik va xolislikni ta'minlash uchun JAZT ShKQ ishida to'liq ishtirok etmasligi mumkin. MXQ (loyiha bosh pudratchisi) jamoasi yoki mahalla vakillari JAZT ShKQ tarkibiga kiritilmaydi – bu jabrlanuvchining maxfiyligini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. JAZT shikoyat mexanizmi va JAZT ShKQ roli haqida EPC/pudratchi/jamoa vakillarini xabardor qilishdagi asosiy jihatlardan biri — ushbu qo'mitaning maxfiy va xolis faoliyat yuritishini tushuntirish va bu orqali jabrlanuvchi manfaatlarini ustuvor qo'yan yondashuvni ta'minlashdir. Uchinchi tomon tomonidan yuritiladigan JAZT ShKQ yakuniy ko'rib chiqish jarayoni (jabrlanuvchini yo'naltirish, tekshiruv, choralar belgilanishi) tugaganidan so'ng egasi/EPC/jamoaga faqat maxfiy bo'limgan ma'lumotlarni taqdim etadi. So'ngra JAZT ShKQ qarorlarini JABM yoki tegishli uchinchi tomon pudratchisining Kadrlar bo'limi amalga oshiradi. JAZT ShKQ (ya'ni maxsus uchinchi tomon tashkiloti bilan shartnoma) qurilish ishlari boshlanishidan oldin tashkil etiladi.

Quyidagi bosqichlarda JAZT Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi asosiy Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bilan birga qanday ishlashi haqida qo'shimcha tushuntiriladi. Har bir bosqichda jabrlanuvchidan (yoki uning vakilidan) ongli rozilik olinadi.

1-qadam: Tekshirish –Shikoyat Loyiha bilan bog'liq JAZT shikoyati ekanligini tasdiqlash uchun tekshiriladi (pastga qarang). Agar shunday bo'lsa, shikoyat ShKQ javobgarligiga 2-bosqichga o'tadi, agar bunday bo'lmasa, shikoyat yopiladi.

- Loyiha bilan bog'liq JAZT jabrlangan shaxs yoki ularning uchinchi tomon vakili YOKI voyaga etmagan bola ishtirok etgan bo'lsa - uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilgan shikoyatdir.
- Loyiha bilan bog'liq bo'limgan JAZT shikoyati yoki mish-mish (ya'ni, uchinchi shaxs tomonidan kiritilgan va jabrlangan shaxsni aniqlash va keyingi harakatlar uchun undan rozilik olishning imkoniyati yo'q) va shuning uchun shikoyat yopiladi¹¹.

¹¹ Agar kelajakda jabrlanuvchi murojaat qilsa, yangi shikoyat ochilishi mumkin va shikoyat tartibi hamda muddatlari ushbu murojaat qilingan kundan boshlab amalga oshiriladi.

2-bosqich -Shikoyatlarni ro'yxatga olish - JAZT shikoyatlarini qayd etishda JAZT Shikoyat Formasi uchun bir xil format qo'llanadi, ammo faqatgina JAZT ShKQ shaklning barcha tafsilotlariga to'liq kirish huquqiga ega bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, tashqi hisobotlar uchun JAZT Shikoyat formasining maxfiy ma'lumotlari olib tashlangan qisqartirilgan (redaktlangan) versiyasi taqdim etiladi. JAZT bilan bog'liq hodisalar yuzasidan, JAZT ShKQ hech qanday hisobot yoki himoya bo'yicha kommunikatsiyada jabrlanuvchi yoki tajovuzkorning ismi, aloqa ma'lumotlari yoki aniqlovchi xususiyatlarini o'z ichiga olmaydi. Faqatgina ShKQ a'zolari ishning to'liq tafsilotlariga ega bo'ladi. JAZT shikoyatlari bo'yicha nimalar hisobot qilinishi kerakligi haqida ma'lumotlar 8.4-bo'linda keltirilgan. Barcha shikoyatlar ilova Cda berilgan formatga muvofiq shikoyat formasida qayd etiladi. Yuqorida shikoyat formasiga muvofiq, faqat JAZT ShKQ shikoyatlarning to'liq tafsilotlariga kirish huquqiga ega bo'ladi, tashqi hisobot uchun esa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan qisqartirilgan versiyasi taqdim etiladi..

3-bosqich - Tasdiqlash - JAZT shikoyatlarini boshqarishning nozikligini inobatga olgan holda, JAZT shikoyatlari juda vaqtga bog'liq ekanligini va ularni yanada tezroq hamda puxta qayta ishlash zarurligini ta'kidlash muhimdir.

- Shikoyat qabul qilinganligi ShHQ tomonidan olingen kunidan boshlab 24 soat ichida tasdiqlanadi.
- Bunda jabrlangan shaxsdan yoki guman qilinayotgan aybdordan holat haqida qo'shimcha ma'lumot olish talab etilishi mumkin. ShHQ ushbu ma'lumotni olish uchun 24 soat ichida jabrlangan shaxsga aloqaga chiqadi. Barcha ma'lumotlar Shikoyat shaklida qayd etilishi kerak, bundan ismlar, aloqa ma'lumotlari yoki jabrlangan shaxs yoki aybdorning identifikatsiyalash tafsilotlari mustasno.
- Ushbu bosqichda, shuningdek, “Ongli ravishda berilgan rozilikni” olish kerak (quyida 4-bosqichga qarang).
- Jabrlangan shaxsga yo'naltirilgan Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini (ShKM) amalga oshirish bo'yicha bizning talabimizga binoan (quyida 5-bosqichga qarang), har qanday Tekshiruv yoki boshqa harakatlardan oldin, ShHQ jabrlangan shaxsni tegishli JAZT b'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga jo'natishi kerak.
- ShKQ voqeа turi va guman qilinayotgan aybdorning Loyiha bilan bog'liqligi yoki bog'liq emasligi haqida jabrlangan shaxs va/yoki unga g'amxo'rlik qilayotganlarga shaxsi ko'rsatilmagan ba'zi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

4-bosqich-Ongli ravishda berilgan rozilik - JAZT ShKQ, hodisani tekshirish, shikoyatni rasmiylashtirish va mavjud JAZT bo'yicha xizmat ko'rsatish tashkilotlariga jo'natish uchun jabrlangan shaxsning yozma roziliginı oladi. Rozilik uning mazmuni batafsil tushuntirilganidan so'ng olinishi kerak bo'lib, u jabrlangan shaxs tushunadigan tilda va uning yoshi va / yoki cheklovlariiga qarab ovoz chiqarib o'qilishi kerak. JAZT ShKQ bu rozilikni xabarnoma kelib tushganidan keyin 24 soat ichida oladi. Ongli ravishda

beriladigan rozilik mazmunini aniq tushunishga imkon bermaydigan nogironlikning ayrim shakllariga ega bo'lgan JAZTdan jabrlangan shaxslar sog'liqni saqlash muassasalarga yoki shunga mos ravishda xizmatlarni taklif qiladigan boshqa mahalla resurslariga yuborilishi kerak. Ishni boshqarishga taalluqli bo'limgan boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga qilingan barcha murojaatlar maxfiylik to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan keyin amalga oshirilishi kerak. Xizmatlar (salomatlik, adliya yoki boshqa) jabrlanuvchiga bepul taqdim etiladi. Yo'naltirish xizmatlariga murojaat darhol, Tekshiruv davom etayotgan paytda ham amalga oshirilishi kerak.

ESLATMA: Agar jabrlangan shaxs ish bo'yicha Tekshiruvga rozi bo'lmasa, bu jarayon 24 soat ichida yopiladi va jabrlangan shaxsga masala yopilganligi haqida yozma ravishda xabar berilishi kerak; bu yopish jarayoni JAZT ShHQ tomonidan amalga oshiriladi. Xabar berish jarayoni xat orqali amalga oshiriladi va kerak bo'lganda mahalliy tilga tarjima qilinadi. Jabrlanuvchining o'z ixtiyoriga ko'ra, agar keyinchalik ular shikoyatni qayta ko'tarishni istasa, bu yangi shikoyat sifatida amalga oshirilishi mumkin va ma'lumotli rozilik olish, jabrlanuvchini yo'naltirish hamda Tekshiruvning tegishli muddatlari yana boshlanadi.

ESLATMA: Jabrlangan shaxslar Tekshiruvni rad etib, xizmatlardan foydalanishga rozi bo'lishlari mumkin. Rozilik istalgan vaqtda qaytarib olinishi yoki davom ettirilishi mumkin. Jarayon davom ettiriladigan taqdirda, barcha aloqa ma'lumotlari va tartiblar jabrlangan shaxslar va vasiylariga taqdim etilishi kerak. Tegishli suddagi jinoiy Tekshiruv ishlari alohida davom ettirilishi mumkin.

5-bosqich - Yo'naltirish - Jabrlanuvchining da'vo qilish jarayoni va uni qanday boshlash mumkinligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi muhimdir. Ma'lumotli rozilik olgandan so'ng, jabrlanuvchini darhol JAZTdan keyingi xizmatlarga yo'naltirish uchun tezkor choralar ko'riliishi kerak. Xizmatlar doirasi quydagilardan biri yoki barchasini o'z ichiga olishi mumkin va jabrlanuvchiga bepul taqdim etiladi:

- Sog'liqni saqlash/tibbiy yordam xizmati, psixologik-ijtimoiy yordam;
- Xavfsizlik xizmatlari, masalan, politsiya/qo'riqlash xizmatlari, xavfsiz bospana va qo'riqchilar yoki oila ichidagi himoya;
- Yuridik va odil sudlov bilan bog'liq xizmatlar, masalan, advokatlar yoki advokat yordamchilari, sudlar (prokurorlar, sudyalar va ichki ishlar xodimi) va/yoki oqsoqollar yoki mahalla raislari kabi an'anaviy huquq vakillari.

Yo'naltirish xizmatlariga murojaat Tekshiruv davom etayotgan paytda ham darhol amalga oshirilishi lozim.

JAZT ShHQ ushbu va Loyihaning safarbar qilish jarayonida aniqlangan boshqa uchinchi tomonlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mahalladagi ushbuni gender vakillari bilan

muvofiglashtirishi mumkin. JAZTga oid ShKM va ShKQni tashkil etish jarayonida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ro'yxati yakunlanadi, va bu bir yoki bir nechta xizmat ko'rsatuvchi tashkilotni, shuningdek, voqeaga xos bo'lgan xizmatlarga muhtoj bo'lgan jabrlanuvchilar ularga murojaat qila olishlarini ta'minlash uchun yaqin hududdan tashqaridagi tashkilotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. JAZT ShKQ amalga oshirish bosqichining boshida xizmat ko'rsatuvchilar reestrini belgilaydi va uni muntazam ravishda yangilab boradi. Xizmat ko'rsatuvchilar tibbiy (kasalxonalar, umumiy amaliyat shifokorlari, klinikalar), huquqiy (huquqiy maslahat xizmatlari), psixologik va ayollar farovonligi xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlar bo'lishi mumkin. Loyiha bilan bog'liq JAZT shikoyatlari uchun jabrlanuvchiga yo'naltirish xizmatlari bepul taqdim etiladi. Jabrlanuvchiga Tekshiruv jarayonida vakil ishtirok etish huquqi haqida ma'lumot beriladi; bu vakil aniqlangan yo'naltirish xizmatlaridan bo'lishi mumkin yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchilardan ham bo'lishi mumkin (agar ular uchun moliyaviy imkoniyati bo'lsa).

6-bosqich - Tekshiruv - JAZT tekshiruvi ongli ravishda berilgan rozilik olinganidan keyin 24 soat ichida (yoki undan oldin) safarbar qilinadi va dastlabki tekshiruv ongli ravishda berilgan rozilik olinganidan keyin 48 soat ichida yakunlanishi kerak. Tekshiruv JAZT ShKQ tomonidan to'liq ishonch bilan amalga oshiriladi.

- Tekshiruv guruhi tarkibiga Loyiha kompaniyasi, pudratchi, subpudratchi, aybdor yoki jarayonga yoki boshqa elementlarga xalaqit berishi mumkin bo'lgan, real yoki potentsial manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan har qanday tomon kiritilmasligi kerak.
- JAZT ShKQ a'zolari tegishli tarzda o'qitilishi va tekshiruvni o'tkazish uchun maxsus tanlangan bo'lishi kerak (Ushbu loyiha uchun bu ehtimol shartnomada asosida jalb qilingan maxsus uchinchi tomon mutaxassisi bo'ladi).
- JAZT bo'yicha jazo choralarini vaqtinchalik (qo'shimcha o'qitish, shartnomani to'xtatib turish va h.k.) yoki doimiy (shartnomani bekor qilish) bo'lishi mumkin.
- Milliy qonunchilikda jinoyat hisoblangan har qanday JAZT hodisasi yuzasidan tegishli sudga majburiy ravishda xabar berilishi shart (jabrlangan shaxs roziligi bilan).

7-bosqich - Izoh - Tekshiruv paytida va darhol undan keyin JAZT ShKQ quyidagilarni bajarishi shart:

- Maxfiylikni buzmagan holda, jabrlangan shaxsni tekshiruvning borishi to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilinishi kerak.
- Maxfiylikni buzmagan holda, tekshiruv natijalarini barcha tegishli tomonlarga yetkazish.

Tekshiruv jarayonida ishtirok etayotgan har bir shaxs tekshiruv JAZT hodisasi sodir bo'lgan-bo'limganligini aniqlash uchun mo'ljallanganligini yodda tutishi muhim; bu

aybdor deb taxmin qilingan shaxslar (Loyiha kompaniyasi/pudratchi/subpudratchi) bilan tuzilgan shartnomalar avtomatik ravishda bekor qilinishi kerak degani emas. Agar tekshiruv hodisa sodir bo'lgan deb hisoblasa, tegishli jazo choralari qo'llanilishi kerak.

Sanksiyalar LOYIHA KOMPANIYASI/Pudratchi/Subpudratchiga yozma ravishda yetkazilishi MAJBURIY bo'lib, ular aybdorga ma'lum qilinadi. Tegishli sanksiyalar tekshiruvdan so'ng 24 soat ichida bajarilishi kerak va shikoyat formasida qayd etilishi, zarurat bo'lsa keyingi chora-tadbirlar rejasi tuzilishi lozim. Sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi xabar JAZT ShKQ tomonidan yozma shaklda berilishi shart.

8-bosqich – Tashqi tomonlarga murojaat – JAZT hodisasini hal qilishning iloji bo'lmasa, tegishli tarzda o'qitilgan (ichki yoki tashqi) xodimlardan iborat bo'lgan maxsus JAZT shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi/nizolarni ko'rib chiqish qo'mitasi tashkil etilishi mumkin. Bunda ikkinchi darajali uchinchini tomon xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning yordami kerak bo'lishi mumkin. Ushbu Nizolarni Hal Qilish Qo'mitasi Loyiha va shikoyat qiluvchiga "muammo hal qiluvchilar" sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi va uzoq muddatli munosabatlarni yaxshilash hamda maqbul yechim topishga yordam beradi. JAZT ShKQ milliy qonunchilik, mahalliy sharoit va eng yaxshi amaliyotlarni hisobga olgan holda Nizolarni Hal Qilish Qo'mitasi tarkibini aniqlaydi. Nizolarni Hal Qilish Qo'mitasi tarkibiga kompaniya vakillari, mahalliy va qishloq kengashi vakillari yoki JAZT ShKQ tomonidan aniqlangan boshqa tegishli tomonlar kirishi mumkin. Nizolarni Hal Qilish Qo'mitasi nizolarni hal qilish va murakkab shikoyat masalalarini boshqarish uchun oldindan sudga murojaat qilish (pre-arbitraj) usullaridan foydalanadi. Agar nizolar hal etilmasa, shikoyat qilgan tomon tegishli milliy organlarga murojaat qilib, nizoni loyiha kontekstiga muvofiq masalan, mahalla yoki tuman organlariga yuboradi. Jazt (GBVH) holatlarida jabrlanuvchi nizolarni hal qilish qo'mitasi yoki bu maqsad uchun tashkil etilgan milliy organlar orqali qo'shimcha tashqi chora-tadbirlarni amalga oshirishda dastlabki qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Kompaniya tegishli murojaat qilgandan keyin xizmatlarni taqdim etishda bevosita ishtirok etmaydi (ammo ular jabrlanuvchi bilan bog'lanib, xizmatlar jabrlanuvchining ehtiyojlariga mos kelishini va ular uchun qulay ekanligini nazorat qiladi).

9-bosqich - Shikoyatni yopish - JAZT hodisasi quyidagi sabablarga ko'ra yopilishi mumkin:

- Tekshiruv jarayoni qoniqarli natija bilan yakunlangani uchun yopiladi.
- Loyiha bilan bog'liq shikoyat emasligi uchun yopiladi¹².

¹² Bunday holda, shikoyat Loyiha bilan bog'liq bo'lmasa-da, shikoyatni Loyiha ShKM doirasidan tashqari keyyinga harakatlar uchun tegishli JAZT xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga yuborish imkoniyati bo'lishi mumkin

- Jabrlanuvchi va/yoki ularning vasiylari tomonidan rasmiy shikoyatni davom ettirish uchun xabardor rozilik berilmagani sababli yopildi.
- Shikoyati bo'lgan shaxsning talabi bo'yicha bekor qilinadi, masalan, jabrlangan shaxs ish beruvchiga rasmiy shikoyat bilan murojaat qilishni istamasa, shikoyat yopiladi.
- Tekshiruv jarayonini yakunlangani va axloq kodeksida nazarda tutilgan jazo choralari qo'llanilgani sababli yopiladi.
- Tekshiruv o'tkazish uchun asoslar mavjud emasligi sababli yopilishi. Bunday qaror odil sudlov tizimi tomonidan ish uchun asos yo'qligi tasdiqlangan xulosa bilan tasdiqlanishi kerak va bu haqdagi ma'lumot yozma ravishda taqdim etilishi lozim.

Shikoyatning yopilishi shikoyatchilarga va jarayonda ishtirok etuvchi boshqa tegishli shaxslarga yetkazilishi kerak.

JAZT shikoyatlarini ko'rib chiqishning umumiyligi vaqt jadvali quyidagi 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval: Shikoyatni ko'rib chiqish muddatlari - JAZT shikoyatlari

Bosqich	Muddat
Shikoyatni qabul qilish var ro'yxatga olish	0 kun
Shikoyat qabul qilinganligi haqida shikoyatchiga tasdiq berish	Shikoyat yuborilganidan so'ng maksimal 24 soat ichida
Ma'lumotli rozilikni olish	Shikoyat yuborilganidan so'ng maksimal 24 soat ichida
Tegishli xizmatlarga (sog'liqni saqlash, xavfsizlik, huquqiy, adliya) yo'naltirish	Ma'lumotli rozilik olinganidan keyin darhol (48 soat Ichida)
Qabul qilingan shikoyatni baholash / Tekshiruv o'tkazish	Ma'lumotli rozilik olinganidan keyin 24 soat ichida ishga kirishish (yoki undan oldin) va dastlabki Tekshiruv 48 soat ichida yakunlanadi. (Qo'shimcha intervyular bu muddatdan keyinga cho'zilishi mumkin)
Shikoyatchiga javob berish	Doimiy yangilanishlar va Tekshiruv yakunlangach javob berish
Natijalar / jazo choralari haqida Loyihachi / Pudratchi / Subpudratchiga xabar berish	Tekshiruv yakunlanganidan keyin 24 soat ichida
Oldingi javobdan norozi bo'lgan shikoyatchi holatida shikoyatni qayta ko'rib chiqish (mojaroni hal qilish qo'mitasi)	Norozi ekanligi haqida xabar berilganidan keyin maksimal 10 ish kuni ichida

7.9 Shu kungacha kelib tushgan shikoyatlar


Ushbu MTHR versiyasi chiqarilgan vaqtida uchta mahalla shikoyati bildirildi. Ushbu uchta shikoyatning barchasi turmush tarzini tiklashga oid.

Ushbu shikoyatlardan ikkitasi yopilgan, ammo biri, ya'ni yer egallash natijasida LTOShning qarzni to'lash qobiliyatiga ta'sir qilgan masala, imtiyozlar taqdim etilishi orqali hal qilinadi.

Shu sababli, ushbu shikoyat MTHRning ushbu versiyasi chiqarilgan vaqtida hal qilinmagan edi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun C-ilovasiga qarang.

10-rasm: Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi



8 Hisobot berish

8.1 Qisqacha ma'lumot

Turli tadbirlar ushbu MTHR doirasida monitoring qilinishi va ular haqida hisobot berilishini talab qiladi. Ular keyingi bo'limlarda muhokama qilinadi.

8.2 MTHR haqida hisobot berish

MTHR - bu Loyihaning butun foydalanish muddati davomida manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishning o'zgaruvchan tabiatini aks ettiruvchi yangilanadigan hujjat. MTHR, shuningdek, amalga oshirilgan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarini ro'yxatga olish uchun muhimdir.

Ushbu MTHR yangi va turli manfaatdor tomonlarni hamda hamkorlik qilish faoliyati va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmidagi har qanday o'zgarishlarni aniqlash uchun qurilish-oldi bosqichda (va har bir keyingi loyiha bosqichida yoki kamida har yili) ko'rib chiqiladi va yangilanadi. Ushbu MTHRning barcha kelajakdagи versiyalari ham manfaatdor tomonlarga oshkor qilinadi.

8.3 Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis hisoboti

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis Loyihaning butun foydalanish muddati davomida, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarni o'tkazishi va muntazam ravishda hisobot berishi uchun javobgar bo'ladi. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisning hisoboti quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis tomonidan amalga oshirilgan ma'lumotni oshkor qilishga oid tadbirlarning qisqacha mazmuni, jumladan, yig'ilish bayonnomalari, qatnashganlar ro'yxati, fotosuratlar shaklidagi dalillar va gazetalar va boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtirilgan e'lonlarning nusxalari.
- Genderga oid maslahatlashuvlar va ijtimoiy ehtiyojmand guruhlari a'zolari bilan maslahatlashuvlar bayonnomalari. Hisobot shuningdek, yig'ilish ishtirokchilarining jinsi bo'yicha ajratilgan sonini ham o'z ichiga oladi.
- Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha yozishmalar asl nusxalari, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotni oshkor qilingan qaydlari. Sharh va mulohazalar ham saqlab qolinadi va MTHRga ilova qilinadi.
- Inson huquqlari bilan bog'liq manfaatdor tomonlar bilan muloqot to'g'risidagi hisobot talab qilinadi va kiritiladi.

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis mobilizatsiya bosqichida Loyihada ishslash uchun imkon qadar ertaroq yollanib, ular kamida har oyda o'z faoliyati to'g'risida hisobot berishlari kerak bo'ladi.

8.4 Shikoyatlar bo'yicha hisobot

EITB bosqichida va Loyihaning butun foydalanish muddati davomida davom etayotgan jarayon bo'yicha Loyiha Kompaniyasi tomonidan shikoyatlar holati to'g'risidagi oylik

hisobot tayyorlanishi kerak. Buning maqsadi - shikoyatlarni o'z vaqtida yopish va shikoyatlarni qondirishni nazorat qilishdir.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

- Olingan shikoyatlar soni va ularning kelib chiqqan joyi (masalan, Mahalla idoralari orqali);
- Har oyda tushgan shikoyatlarning turlari;
- ShKM qo'mitasi orqali hal qilingan shikoyatlar soni;
- Sudlarga yoki boshqa tashqi usullar orqali hal qilinishi uchun yuborilgan shikoyatlar soni;
- Yopilgan shikoyatlar soni va ularni yopish uchun sarflangan vaqt.

Shikoyatlar bo'yicha hisobot Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis hisobotiga kiritilishi mumkin, chunki shikoyatlar ham Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis tomonidan boshqariladi.

JAZT shikoyatlari bo'yicha hisobot.

JAZT shikoyatlari logida yoki hisobot berilganda quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim:

- Shikoyat sanasi va tabiatı (ya'ni, ko'tarilgan JAZT turi)
- Jabrlangan shaxsning jinsi va yosh oralig'i
- Shikoyat loyihada ishlaydigan xodimlar (loyiha kompaniyasi xodimlari va pudratchi xodimlari) bilan bog'liq yoki yo'qligi (jabrlangan yoki ayblanuvchi sifatida)
- Jabrlangan shaxsga yordam xizmatlari taklif qilinganligi (lekin ular qaysi xizmatlardan foydalanganligi sir saqlanishi kerak)
- Javob choralarini kim tomonidan boshqarilayotgani, tergov o'tkazilishi yoki yakuniy natija (bu ma'lumotlarning barchasi bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmasligi mumkin, ammo tashqi hisobotda ma'lumotlar yangilanishi mumkin)

Manfaatdor tomonlarga quyidagilar berilmasligi kerak:

- Shikoyatchilar/jabrlanganlar va ayblanuvchilarining shaxsini aniqlovchi ma'lumotlar
- Batafsil tergov hisobotlari, intervyu bayonotlari, guvoh ma'lumotlari, intizomiy chora ko'rilganligi haqidagi xatlar, tibbiy hujjatlar yoki hodisaga oid boshqa dalillar

- Jabrlangan shaxs maslahat xizmatlaridan foydalangan yoki foydalangan emasligi haqidagi ma'lumotlar — bu ularning maxfiy ma'lumotidir
- Maxfiylikni buzishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday tafsilotlar

8.5 Yillik hisobot

Loyiha Kompaniyasi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis yordamida MTHR holati to'g'risida yillik hisobot tayyorlaydi. Loyiha faoliyati, Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisning faoliyati, shu jumladan anonim shikoyatlar va MTHRga kiritiladigan yangi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun Loyihaga oid yillik hisobot tayyorlanadi. Birinchi hisobot qurilish bosqichida tayyorlanadi. Ushbu hisobotning tashqi versiyasi Ta'sirga uchragan mahallalarga oshkor qilish va Ta'sirga uchragan mahallalarga doimiy xavf yoki ta'sirni o'z ichiga olgan masalalar va maslahatlashuv jarayoni yoki shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi tashvishli deb topilgan masalalar bo'yicha Loyiha majburiyatlarini amalga oshirish uchun tayyorlanadi.

Manfaatdor tomonlar bilan muloqot mazmunidan tashqari, yillik hisobotda TTTR, Inson huquqlariga ta'sirini baholash (IHTB) va Genderga ta'sirini baholash (GTB) uchun aniqlangan ASKlar bo'yicha anonim yangilanishlar ham taqdim etiladi.

Ushbu hisobot loyiha veb-saytida onlayn tarzda hamda qog'oz yoki elektron shaklda tegishli manfaatdor tomonlarga tarqatiladi.

Loyihaning foydalanish bosqichi haqidagi ma'lumot “Masdar”ning muntazam Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv jihatlari va barqarorlik bo'yicha yillik hisobotiga kiritilishi mumkin.

8.6 Ko'rsatkichlar / ASK

Loyihada doimiy ravishda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish faoliyatini kuzatish uchun 8-jadvalagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan (ASK) foydalilanadi.

9-jadval: ASK va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish faoliyati uchun maqsadli ko'rsatkichlar

ASK kod i	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlar ni yig'ish chastotasi	Monitoring tadbiри	Javobgar ¹³
SEP -01	Manfaatdor tomonlar bilan	Hisobot davrida barcha	Har chorakda	Manfaatdor tomonlar bilan	"Juru"/"Masdar"

¹³ Eslatma:S o'tilgan ba'zi bandlar hozirda "Juru" mas'uliyati bo'lib, ular Loyiha davom etgan sari o'zgaradi va javobgarlik "Masdar", MXQ Pudratchisi (faqat) yoki maslahatchiga o'tadi. Ushbu o'zgarishlar ushbu hisobotning keyingi versiyalarida aks ettiriladi.

ASK kod i	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlar ni yig'ish chastotasi	Monitoring tadbiri	Javobgar ¹³
	hamkorlik qilish tadbirlari yakunlandi	manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi (5-bobdag'i har bir talab bo'yicha)		hamkorlik qilish tadbirlarning jurnali, yig'ilish bayonnomalar i, qatnashganlar ro'yxati	
SEP -02	Ayollar va aholining ijtimoiy ehtiyojmand guruhlari bilan maslahatlashuvlarning soni	Ayollar va aholining ijtimoiy ehtiyojmand guruhlari bilan kamida bitta maslahatlashuv o'tkazildi.	Har chorakda	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarning jurnali, yig'ilish bayonnomalar i, qatnashganlar ro'yxati	"Juru"/"Masdar"
SEP -03	Qoniqarli hal etilgan shikoyatlarning soni	Shikoyatlarning 100 foizi ShKMda belgilangan muddatlarda hal qilindi	Har chorakda	Shikoyatlar jurnali	"Juru"/"Masdar"
SEP -04	Shikoyat va ko'rib chiqish jarayonlari hujjatlashtirildi	Shikoyatlarning 100 foizi hujjatlashtirildi	Har chorakda	Shikoyatlar jurnali	"Juru"/"Masdar"
SEP -05	Sudga topshirilgan shikoyatlarning soni	Sudga shikoyatlar topshirilmadi	Har 6 oyda	Qabul qilingan huquqiy hujjatlar	"Juru"/"Masdar"
SEP -06	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlari hujjatlashtirildi	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarining 100 foizi hujjatlashtirildi	Har chorakda	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish tadbirlarning jurnali, yig'ilish bayonnomalar i, qatnashganlar ro'yxati	"Juru"/"Masdar"/MX Q Pudratchisi
SEP -07	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi bo'yicha o'qitilgan Loyiha xodimlarining soni	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmiga jalb qilingan xodimlarning 100 foizi o'qitildi	Har chorakda	O'quv jurnallari / fotosuratlar / qatnashganlar ro'yxati	"Masdar"/ MXQ Pudratchisi
SEP -08	JAZT shikoyat mexanizmi bo'yicha	JAZT SHKMga jalb qilingan	Har chorakda	O'quv jurnallari / fotosuratlar /	"Masdar"/ MXQ Pudratchisi

ASK kod i	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlar ni yig'ish chastotasi	Monitoring tadbiri	Javobgar ¹³
	o'qitilgan loyiha xodimlari soni	xodimlarning 100% o'qitilgan		qatnashganlar ro'yxati	

8.7 Ma'lumotlarni boshqarish

Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va maslahatlashuvlar yig'ilish bayonnomalari va fotosuratlar yordamida hujjatlashtiriladi (E, F va G ilovalariga qarang). Har bir yig'ilishda ishtirokchilardan qatnashganlar ro'yxatini imzolash so'raladi, va u ham saqlab qolinadi. Hozir ushbu hujjatlarni tayyorlash "Juru" zimmasiga yuklangan. Biroq, kelajakda (2024 yil dekabrida yoki 2025 yil boshida kutilayotgan moliyaviy yopilishdan keyin) ushbu hujjatlarni saqlash "Masdar"ning jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislarining zimmasiga yuklanadi.

Barcha maslahatlashuvlar ushbu MTHRda yangilanib turadigan hujjat sifatida yuritiladigan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jurnalida qayd etiladi (D ilovasiga qarang). Barcha shikoyatlar shikoyatlar jurnalida yuritiladi (C ilovasiga qarang). Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish matritsasi (4.2-bo'lim) Loyihaning istalgan muayyan davrda Loyihaning manfaatdor tomonlarini aniqlaydigan yangilanib turadigan hujjat sifatida yuritiladi. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis, shuningdek, manfaatdor tomonlarning aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan manfaatdor tomonlar ro'yxatini yuritishi mumkin.

Loyiha manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonida qasos olishning oldini olishga harakat qiladi. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va shikoyat qilish mexanizmi orqali to'plangan barcha shaxsiy ma'lumotlar maxfiy saqlanib, tashqi tomonlarga ruxsatsiz berilmaydi va barcha hisobotlarda anonimlashtiriladi.

A-ilovasi: Loyihaning Ish hajmini baholash va EITB bosqichi broshurasi¹⁴

a) Ingliz tilidagi versiya

JURU
MASDAR

ENVIRONMENTAL AND SOCIAL IMPACT ASSESSMENT - Findings

The draft ESIA is now completed, and we will now hold public meetings to provide feedback on the draft findings and integrate any final community and stakeholder comments into the final documentation. The impact assessment process identified moderate impacts in the following area:

- Change in land use and grazing.
- Traffic safety issues from an increase in heavy goods vehicles during delivery of components.
- Implications for the community from work influx.
- Poor working conditions and labour welfare.
- Construction nuisance

The ESIA identified several management measures to reduce impacts to acceptable levels (minor or lower). Key measures include:

- Livelihood restoration plan
- Compensation for lost farming/grazing land and impact on livelihoods (e.g., alternative land)
- Worker code of conduct
- Security fence, lighting and accommodation for workers
- Management and monitoring plans for the above topics
- An Environmental and Social Management Plan



JURU
MASDAR

NUR KASHKADARYA SOLAR PV INTRODUCTION

Abu Dhabi Future Energy Company PJSC (“Masdar”) has been awarded by the Ministry of Energy, Government of Uzbekistan to design, build, finance, construct, commission and operate & maintain the Nur-Kashkadarya Solar photovoltaic (PV) project with a capacity of 300 MW_{AC} and 75 MW Battery Energy Storage System (“Project”). The Project will be implemented through a long-term i.e., 25 years power purchase agreement (a “PPA”) with JSC National Electric Grid of Uzbekistan (“NEGU”). The Project will be designed to meet national regulations and international standards.

The Project will support Uzbekistan to:

- Reduce energy dependence on carbon-based fuels.
- Meet renewable energy targets.
- Reduce greenhouse gas emission rates.

This brochure is to support information disclosure on the final draft of the national EIA and supporting ESIA prepared for Project Lenders. A complete summary of the findings is presented in a non-technical summary (NTS) in English and Uzbek, which can also be viewed at:

- [Kokimmat Offices in Kashkadarya region](#)

Final ESIA documentation incorporating the feedback from this public consultation meeting can be found on (June 2023 onward): the project is expected to be able to meet all national standards and Lender E&S standards.

¹⁴ MATNGA IZOH: EITB broshurasi yakuniy versiyaga qo'shiladi

JURU
MASDAR

PROJECT DESCRIPTION AND LOCATION

The proposed site covers approximately 731 ha area of land and is spread across two districts - the Kamashi and Guzar Districts of Kashkadarya region, of the Republic of Uzbekistan. It is located 8 km northeast of Guzar city. The site is accessible from the M39 roadway. The site has an undulating topography; there are no permanent surface water bodies or rivers on the site.



Figure 1: Nur Kashkadarya Solar PV Project

JURU
MASDAR



Figure 2: PV Plot Boundary – Guzar Solar PV Project

- The Battery System including the batteries themselves and a control and monitoring system (BMS);
- Operation and maintenance rooms, offices and parking areas;
- Security fence, lightning and Accommodation for workers (including water and sanitation).
- Project substation
- 0.9 km underground cable then 0.6 km overhead transmission to connect the new substation to the grid at the Guzar 220kV substation (green line).
- 1.65 km new access road (red line)

Stakeholder engagement has been undertaken while preparing the ESIA, following national regulations and good practices. Stakeholder engagement activities included Project Affected Persons ("PAP") and communities concerned by the Project, e.g., local and traditional leaders, representatives of the communities, land users, and potentially vulnerable groups such as youth and women.

CONTACT DETAILS

All complaints, comments or queries relating to the ESIA for the Guzar Solar PV Project should be sent to:

JURU CONSULTING
Name: Mukhtaram Burieva, Yulduz Yusupova
Address: 10A, Chust Str., Tashkent, Uzbekistan, 100077
Email: guzar_SolarPV_ESIA@juru.org
Phone: +998 91 502-85-33

b) O'zbek tilidagi versiya

Juru
MASDAR

ATROF-MUHIT VA IJTIMOIY TA'SIRNI BAHOLASH - Topilmalar

Atrof-muhit va ijtimoiy ta'siri baholash loyihasi bozir yakuplandi va biz buzorda loyiha xulosalar bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirish va xekunnuw bajarilgaga hennamuvat va manfaatdor tomonlarning har danlays yakuniy izoblahori kiritish uchun ommaoviy vigilislilar o'tkazanish. Ta'siri baholash jarayoni quridagi sobida o'rsha ta'sulatu apiladi:

- Yerdan foydalananish va yaxshilovning o'zgarishi;
- Tarkibiy asoslari yelkazib berishda og'ir yuk tashbuvchi transport vositalarining korpusini qurilmasida yoki harakati xavfizilouvish ammoplari;
- Ish o'miningar jamiat uchun qoiballari;
- Yamon ish sharoitlari va ishchilarning farovonligi;
- Qurilishda oqimaylidar.

Atrof-muhit va ijtimoiy ta'siri baholash ta'sirlarini maqbul darajaga (kuchik yoki pastqa) kamaytirish uchun bir nechta boshamuvux choralarini apiladi. Asosiy chora-jadobdar quridagilari o'z ichiga oladi:

- Turmush tarzini tiddash rejas;
- Yo'qotilgan debonchilik/vaylov verdlari va turmush tarziga ta'sir uchun kompensatsiya (massalen, muvobil yoki xodimlarning vulqatvor kodelsi);
- Xavfsizlik devori, yordish moslamalari va ishchilar uchun turar joy;
- Yuqoridaqgi mayzular bo'yicha boshamuv yoki monitoring rejalari;
- Atrof-muhit va ijtimoiy boshamuv rejas;



Juru
MASDAR

NUR QASHQADARYO QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYASI KIRISH

Abu Dhabi Future Energy kompaniyasi DAJ ("Masdar") qurivti 300 MWt o'zgaruvchan loj va 75 MWt batareya energiyasini sadlashtirishga ega. NUR QASHQADARYO avosht fotoelektrik stansiyasini (QFS) loyihalash qurish, mulvalashish, istiga tushishish va foydalananish, va texnik xizmat ko'rsatishni rejalashdirgan. Masdar "Qozbekiston milliy elektr tarmogi" AJ ("OMET") bilan elektr energiyasini solib olish to'g'risidagi shartnomani imzolaydi. Ushbu loyihasi analoga osbunish uchun Masdar turi, xalqaro mulva institutlariga kredit olib uchun murojaat yollagan. Loviha milliy qurunchilik va xalqaro standartlarini inobatiga olgan holda ishlab chiqiladi.

Loviha:

- Ulerod asosidagi vog'oilarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish;
- Qavila tikanadigan energiya sobasida rivojanish;
- Issiqxona gazlari chiqarishni kamaytirishda bissa mo'shad;

Ushbu usula milliy atrof-muhitiga ta'siri baholashning yakuniy loyihasi bo'yicha ma'lumotni osbokor qilishni va Loviha sarmoyadordan uchun foyvoritligan atrof-muhit va ijtimoiy ta'siri baholashni qillab qurivtash uchun mulvalangagan. Matjalarning to'liq xulosasi engil va o'zbek tillarida texnik bo'limiga zulosada keltirilgan bo'lib, uni quridagi manzilda ham ko'rish mumkin:

- Qashqadaryo viloyat hokimliklar

Jamoatchilik bilan mustahkashuv vig'ilishidagi fikr-mulohazalarini o'z ichiga olgan yakuniy atrof-muhit va ijtimoiy ta'siri baholash hujjatlari (2023-yilning ikun quridagi boshamuv) topish mumkin: Loviha bercha milliy standartlariga va Sarmoyadoming atrof-muhit va ijtimoiy standartlariga javob berishi kutilmoqda.

LOYIHA TAVSIFI VA JOYLASHUVI

Takif etilavotgan loyiha joylashuviga O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Guzor va Qaraqalpaqstan tumanlarida joylashgan bo'lub, taxminan 731 dektar yet maxdonuni egallaydi. U Guzor shahridan 8 km shimalisharqda joylashgan. Takif etilavotgan loyiha maxdoniga M39 avtomobil volgida kichik ruykun. Loviha maxdoni toloqni topografiyaga ega; maxdonda doimiy er uslu suv havzalarini volki daryolar mavjud emas.



Bazar 1: NUR QASHQADARYO QFS joylashuvi

Loviha qurilishi 2-rasmida ko'saligan ko'k chegaradagi quridagi asosiy infrastruktura tarkibini hissmlardan iborat boladi:

- Fotolelektrik panelari o'rnatish insho'llari uchun do'vedevorlar, shuningdek panelar, kabeller va qidravlik armajuralar;
- Inventor transformator stansiyasi va podstansiyasi;
- Ichki kichik volilar va tashidash volilar, shuningdek drenaj tizimi;
- Vaytinchalik qurilish lagerlari/ ofislar va qurilish maxdonchasi;

Batareya tizimi shu jumladan batareyalarning o'zi va bosqaruv va monitoring tizimi;

- Operatsion va texnik xizmat ko'satish xonalari, ofislar va tashidash joylari;
- Xavfizlik to'sinlari, istchilar uchun turar joy va xordish moslamalari (shu jumladan SUV va kanalizatsiya insho'llari).
- Loviha nimstansiyasi;
- Guzor 220 KV nimstansiyasida yangi nimstansiyani tarmoqda ulash uchun 0,9 km yet osti kabeli va 0,6 km elektr. uzatish havo tarmoqi (vestil chiziq);
- 1,65 km kirish yoki (qizil chiziq)



Bazar 2: QFS joylashuvi chiziq - Guzor QFS Lawkasi

Aksarayda va utiqorli telciori baholashni tashxashlarda, qillyk qondalar va il'or emalivchalariga dova gileas holda manfaatdor temoplasri labb qilish amaliya e'tiborli. Manfaatdor temoplasni labb qilish, tashxash loyiha tashxusiga shaxsler va loyiha dan bilan bog'liq jamoalat masalasi, maballyk va eu'anesuv liddeler, jamoat vakilleri, verdan foydalanuvchilar va yoshlar va avollar kabi potential zart surʼubatlari o't kirsa oldi.

QO'SHIMCHA MA'LUMOT UCHUN

Guzor qurash fotolelektrik stansiyasi atrof muhibit va il'moriy tasvirularini o'rnatish bilan bog'liq harsha masalalar yuzasidan quridagi manzilarga muojaat qilishingiz mumkin.

JURU CONSULTING

Ma'lumot uchun: Muhammed Burieva, Yulduz Yusupova
Manzil: 100077, Toshkent, O'zbekiston, Chust ko'chasi, 10A
Email: guzar_SolarPV_ESIA@juru.org
Telefon: +998 91 502-85-33

B-Ilovasi: ShKM shakli

a) Ingliz tilidagi versiya

NUR-KASHKADARYA SOLAR PV GRIEVANCE FORM	
<i>To be used for grievance(s) comments, suggestions, or/and inquiries or any other matters</i>	
Reference number	(to be filled in by Juru representative) REF:
INSTRUCTIONS	Please fill in this Grievance form in clear handwriting and submit through one of the following means: <ul style="list-style-type: none">- Directly to Juru Ltd (Juru)- By email to: z.gafurova@juru.org o.khegay@juru.org Phone Number: +998 90 935 74 48 +998 90 941 43 71
Full Name (optional)	<p>First Name:</p> <p>Last Name:</p> <p><input type="checkbox"/> I wish to raise my grievance anonymously (<i>You can remain anonymous if you prefer but we may not be able to contact you with a response to your concern</i>)</p> <p><input type="checkbox"/> I wish to raise my grievance confidentially (<i>You can remain confidential in all reporting if you prefer</i>)</p>
Contact Information Please mark how you wish to be contacted (mail, telephone, e-mail)	<p><input type="checkbox"/> By Post: <i>Please provide:</i></p> <p><input type="checkbox"/> By telephone: <i>Please provide:</i></p> <p><input type="checkbox"/> By email: <i>Please provide:</i></p>
Preferred Language of Communication	<p><input type="checkbox"/> Uzbek</p> <p><input type="checkbox"/> Russian</p> <p><input type="checkbox"/> Turkmen</p> <p><input type="checkbox"/> English</p>
Description of Incident/Grievance <i>What happened?</i> <i>Where did it happen?</i> <i>Who did it happen to?</i>	

<i>What is the result of the problem?</i>			
Date of Incident/Grievance	<input type="checkbox"/> One-time incident/grievance (date...)		
	<input type="checkbox"/> Happened more than once (how many times?)		
	<input type="checkbox"/> Ongoing (currently experiencing problem)		
What would you like to see happen to resolve the problem?			
Signature:		Date:	

b) O'zbek tilidagi versiya

SHIKOYAT MUROJAATNOMASI SHAKLI	
<i>Izohlar, takliflar yoki/va yoki boshqa masalalarni ko'tarish uchun foydalanilmaydi</i>	
YO'RIQNOMA	<p>Iltimos, ushbu shikoyat murojaati shaklini aniq yozuvda to'ldiring va quyidagi aloqa vositalari orqali taqdim eting:</p> <ul style="list-style-type: none">- To'g'ridan-to'g'ri Juruga- Elektron manzil orqali: z.gafurova@juru.org o.khegay@juru.org- Telefon orqali: +998 90 935 74 48 +998 90 941 43 71
F.I.Sh (Ixtiyoriy)	<p>Ismi:</p> <p>Familiyasi:</p> <p><input type="checkbox"/> Murojaatimni anonim tarzda bo'lishini istayman. (Hohishingizga ko'r'a anonim tarzda murojaat qilishingiz mumkin, ammo u holda masalangiz yuzasidan sizga javob bilan murojaat qila olmaymiz)</p>
Aloqa ma'lumotlari Murojaatga javob olish shaklini ko'rsating (pochta, telefon, e-mail).	<p><input type="checkbox"/> Pochta orqali: <i>Iltimos, manzilni ko'rsating:</i></p> <p><input type="checkbox"/> Telefon orqali:</p> <p><input type="checkbox"/> Email orqali:</p>
Afzal ko'rildigan aloqa tili	<p><input type="checkbox"/> O'zbek</p> <p><input type="checkbox"/> Rus</p> <p><input type="checkbox"/> Turkman</p> <p><input type="checkbox"/> Ingliz</p>
Murojaat/shikoyat mazmuni	<p><i>Nima sodir bo'ldi?</i></p> <p><i>Qayerda?</i></p> <p><i>Kim buni boshidan o'tkazdi?</i></p> <p><i>Natijada nima sodir bo'ldi?</i></p>
Murojaat/shikoyat sanasi	<p><input type="checkbox"/> Bir martalik murojaat/shokoyat (sana _____)</p> <p><input type="checkbox"/> Bir necha marta yuborilgan murojaat/shikoyat (necha marotaba _____)</p> <p><input type="checkbox"/> Davom etayotgan (ayni paytda yechimi topilayotgan murojaat)</p>
Muammoni hal qilish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llanishini xohlaysiz?	

Imzo:	
Sana:	

C-Ilovasi: Loyihaning shikoyatlar jurnali (2024 yil oktyabrdagi yangilangan)

ID	Sana	Shikoyatchi ning nomi	Aloqa ma'lumotlari	Ma'qul deb ko'rigan til	Anonimlik talab qilinadimi?	Muammoning tavsifi	Qabul qilinganligini tasdiqlash	Mas'ul shaxs	Bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar	Bajari sh muddati	Harakatlar natijalari	Yopish sanasi	Dalil (agar mavjud bo'sa)	
1	09.08.2024 y.	Maxfiy (Mahalliy fermer xo'jaligi rahbari).	oshkor qilish uchun olib tashlandi	O'zbek	Ha	Kutilmagan holatlar, ya'ni so'nggi uch yildagi yomon ob-havo va qurg'oqchilik tufayli, afsuski, rejalashtirilgan hosilni terib ola olmadim. Natijada davlat va klasterga soliq to'lovlarini to'liq to'lashning iloji si bo'lmasdi (miqdori-oshkor etilmaydi, maxfiy). Bu yil fermer xo'jaligimda hosil yetishtirib, bu qarzlarni to'layman deb rejashtirgan edim, lekin Loyihangiz amalga oshirilayotgani tufayli bu hali ham mumkinmi yoki yo'qmi, aniq bila olmayapman. Shu yilning oktyabr-noyabr oylarida bug'doy ekib, may-iyun oylarida yig'ib olsam bo'ladimi? Buning iloji si bo'lmasa, Loyiha ishlab chiquvchilari qarzimni to'lashda menga yordam bera oladimi?	09.08.2024 y. Murodjon Berdimurod ov javob berdi	Zarina Gafurova	Talablarni TTTR asosan hal qilish	28 avgust 2024	Murodjon Berdimur odov tomonidan 09.08.2024 yilda javob berildi. Biz hali ham baholash hisob-kitoblari va huquqni tekshirish tugallanishini kutyapmiz.	Ko'rib chiqilm oqda	Yo'q	
2	10.01.2025	Maxfiy (dehqon/jamoat rahbari)	Oshkor qilish uchun maxfiy	O'zbek	Yo'q	Shikoyat qiluvchi Batosh mahallasining yetakchisi va fermerlardan birining menejeri sifatida, fermerlar tomonidan kompensatsiya sanasi bo'yicha bir qator tashvishlar bildirilgani haqida Loyihaga xabar berdi va kompensatsiya aniq qachon berilishi haqida loyiha ishlab chiquvchisidan rasmiy javob olishni so'radi.	10.01.2024 kuni Mokhinur Zokirova tomonidan javob berildi (telefon orqali og'zaki tasdiqlash)	Mohinur Zokirova	Ijro jadvali TTTR yakunlanishi jarayonida tasdiqlanadi. Taxminiy javob uchun Loyiha ishlab chiquvchisi bilan maslahatlashish zarur.	10.01.2024	LTOSh tushuntiri shni qabul qildi	Yopildi	Yo'q	
3	21.01.2025	F07	Ma'lumot uchun so'rov	O'zbek	Yo'q	Hukumat mening yer ijaramni bekor qildi, shuning uchun qolgan yerimda ekin ekishim uchun maydon chegarasi haqida aniq ma'lumot olishni so'rayman. Loyihachi texnik guruhni maydonga yuborib, chegarani belgilab berishi mumkinmi, shunda men ekin ekishni davom ettira olaman?	21.01.2025 kuni Mokhinur Zokirova tomonidan telefon qo'ng'iroq'id a javob berildi	Mohinur Zokirova	Bog'langanining uchun rahmat. Hozirda loyiha kompaniyasi yerga egalik qilmaydi, shuning uchun aniq chegaralarni tasdiqlay	29.01.2025	LTOSh tushuntiri shni qabul qildi	Yopildi	Yo'q	

¹⁵ Eslatma: Loyihaning natijasida yetishmay qolgan ekin mavsumi uchun kompensatsiya TTTRga muvofiq amalga oshiriladi.

D-Illovasi: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jurnali (2024 yil oktyabrdagi yangilangan)

Retseptornin g nomi	Yig'lish sanasi va joyi	Yig'lish kim bilan o'tkazildi	Muhokamaning qisqacha mazmuni	Bildirilgan tashvishlar/mulohaz alar	Berilgan javoblar	Tashvishlar qanday hal qilindi va qanday qo'shimcha harakatlat talab etiladi	Oshkor qilingan ma'lumot
G'uzor tumani hokimligi	2023 yil 11 sentyabr	Hokim va qurilish bo'yicha o'rinnbosari	Loyiha haqida ma'lumot berildi, Loyiha broshurasi taqdim etildi. Loyiha maydonidan foydalananish masalalari muhokama qilindi	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha broshurasi
Qamashi tumani hokimligi	2023 yil 11 sentyabr	Hokim va qurilish bo'yicha o'rinnbosari	Loyiha haqida ma'lumot berildi, Loyiha broshurasi taqdim etildi	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha broshurasi
G'uzor tumani elektr tarmoqlari boshqarmasi	2023 yil 11 sentyabr	Bo'llim boshlig'i	Loyiha haqida ma'lumot berildi, Loyiha broshurasi taqdim etildi	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha broshurasi
G'uzor tumani elektr tarmoqlari boshqarmasi	2023 yil 11 sentyabr	G'uzor tumani elektr tarmoqlari boshqarmasi boshlig'i	Loyiha haqida ma'lumot berildi	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha broshurasi
Kadastr Agentligi G'uzor tumani filiali	2023 yil 11 sentyabr	Kadastr Agentligi G'uzor tumani filiali boshlig'i	Loyiha haqida ma'lumot berildi. Yerdan foydalananish bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazildi	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha broshurasi
G'uzor tumani	2023 yil 11	G'uzor tumani	Loyiha haqida ma'lumot	yo'q	yo'q	yo'q	Loyiha

